


37  
A-19



S.J.ACHILOVA

# DISLALIYA. DIZARTRIYA

37  
A-19

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

S.J.Achilova

## DISLALIYA. DIZARTRIYA

Pedagogika universitet hamda institutlarning defektologiya  
yo 'nalishida ta'lif olayotgan talabalari uchun  
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

—  
—  
—  
—  
—

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ  
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT  
«ISHONCHLI HAMKOR»  
2021

**Taqrizchilar:**

**F.U.Qodirova** – TVCHDPI Defektologiya kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori.

**G.A.Tursunova** – Toshkent viloyati Chirchiq shahar 9 - umumta'lim maktab o'qituvchi – logopedi Xalq ta'limi a'lochisi.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'lim talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, dislaliya nutq kamchiligi va dizartriya nutq kamchiliginining ilmiy nazariy jihatdan o'r ganiladi. Shuningdek, dislaliya va dizartriya nutq kamchiliginining turlari, bartaraf etishning korreksion-pedagogik ishlari o'chib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31 maydagi 237-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7092-7-0

**KIRISH**

So'nggi yillarda jahon miqyosida maktab va maktabgacha yoshdag'i bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va maxsus ta'lim muassasalariga jalb qilish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilayotgan bo'lib, jalb qilingan bolalarni hayotga tayyorlash, zarur bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish ishlari olib borilmoqda. Maktab va maktabgacha tarbiyaning qanchalik muhim ekanligini bugun barcha yaxshi biladi. Shu boisdan ham maktabgacha yoshdag'i bolalarga to'g'ri ta'lim- tarbiya berish eng muhim masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Jumladan, maxsus maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham dizartrik bolalar bilan maxsus pedagogik ish jarayoni tashkil qilingan bo'lib, bolalarning nutq nuqsonlarini bartaraf etish, ularning bilish jarayonlari ustida ishslash, bilim va malaka, ko'nikmalarini rivojlantirish kabi ishlar tashkil qilinib bormoqda.

Maktabgacha yoshdag'i bolalar nutqida kamchiliklar kuzatilishi uning ta'lim olishini murakkablashtiradi. Jumladan, dislaliya va dizartriya nutq kamchiligi bundan mustasno emaslar.

Bugungi kunda jahon miqyosida nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni erta aniqlash, ularni maxsus ta'limga jalb qilish, korreksion - pedagogik ishni tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarni nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ushbu ilmiy izlanishlar yordamida bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarning kelib chiqish sabablari va nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo'yicha korreksion logopedik ishlar tashkil qilinmoqda.

Bolaning rivojlanishi va o'sishi uzlusiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi buyumlar orqali anglab, undan o'zicha ma'no topishga intilishi, qiziqish va hissiyotlari rivojlanishini kuzatamiz.

Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida: "Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi", - deb ta'kidlangan.

## I BOB. DISLALIYA

### 1§. DISLALIYA NUTQ KAMCHILIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

#### Reja:

1. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'rganishda rus va o'zbek olimlarning ishlari.
2. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'rganishda 16-18 asrlarda chet-el olimlarning qo'shgan hissasi.

Bolada tovushni to'g'ri talaffuz qilish asosan 5 yoshlarda shaklla-nadi. Bolalarda to'g'ri talaffuzni tarbiyalash ishi nutqning har tomon-lama rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Maktabgacha muassasalarda lug'atni boyitishga, to'g'ri talaffuz qoidalarini egallahsga, grammatik shakllar bilan tanishtirishga katta e'tibor beriladi.

Nutqning tovush sistemasi hozirda shakl birligi (fonetika) va mazmuni (fonologiya), "ifodalash rejasi" va "mazmun rejasi" birligi, nutq va til vositalari birligi sifatida ko'rib chiqildi.

S.N.Trubetskoy yozganidek, tovush haqida ikki fanni bilish darkor – biri nutqda, ikkinchisi tilda o'z ifodasini topishi kerak. Tekshirishlardan kelib chiqib, tovush haqida ikkita fan tafovut qilinadi – muloqot maqsadida qo'llaniladigan tovush signallari va jismoniy ko'rinish bo'lgan konkret tovushlar.

Tovush ta'sirotlariga bo'lgan reaksiya yangi tug'ilgan chaqlolarda kuzatiladi. Reaksiya tana qimirlashi, imlash, nafas va pulsning o'zgarishi ko'rinishida bo'ladi. Bolaning ikki haftaligidagi eshitish dominantining yuzaga kelganligi haqida xabar beruvchi, tovush ta'sirotlari ostida ba'zi bir tana harakatlarining va yig'ining to'xtalganligi kuzatiladi. To'rtinchi haftada alla ta'sirida bolada tinchanish holati kuzatiladi. Bularning hammasi shartsiz reflekslardir.

Yetti oylikdan boshlab, bola onaning ba'zi bir tovushlariga ta'sir

ko'rsatadi va bu tovushlar uning gugulash repertuaridan joy oladi. Olti-yetti oylik bolaning gugulashida atrofdagilardan eshitgan va ona chos bo'lgan spetsifik holatlar yuzaga keladi. V.Tervurt yozishicha, studentlar plynokaga yozilgan olti oylik bolaning gugulashini boshqa millatdagi bolalar gugulashidan yaxshi ajrata bilganlar.

Bolalar eng oson intonatsiyani yaxshi o'zlashtiradilar, u bolaning ona bilan emotsiyal muloqoti jarayonida paydo bo'lib, asosan nutqqacha eng muhim vosita hisoblanadi.

Nutqni idrok qilishni tekshirish jarayonida olimlar (V.P.Ananov, V.I.Beltikov, A.N.Gvozdev) bolalarda birinchi fonematik eshituv nutq normal rivojlangan holda juda erta yuzaga kelar ekan degan xulosaga keldilar. Avtorlarning ta'kidlashicha, bolaning eshitish analizatori funksiyasi erta rivojlanganligi sababli u nutq rivojlanishining boshidayoq akustik jihatdan qarama-qarshi bo'lgan tovushlarni ajrata biladi, rivojlangan fonematik eshituv bolaga faqat to'liq nutqni egalashiga yordam beribgina qolmay ona tilida bermalol muloqot qila olish malakalarini ham shakllantiradi.

Normal rivojlanayotgan 6, 7 yoshli bolaning umumiy va nutqiy rivojlanish darajasi muktabda ta'lim olishga ma'lum jihatdan yetarli ko'nikmalarga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda muktabda ta'lim olishga, savod o'rganishga zarur bo'lgan nutqiy ko'nikma va malakalar yetarli shakllanmagan bo'ladi. Bu esa muktabda ta'lim olish, savod o'rganish jarayonida bir qator qiyinchiliklar tug'diradi.

Nutq nuqsonlari, ularni namoyon bo'lishini o'rganish tarixdan juda dolzarb bo'lib, bu sohada juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Nutqning tovushlar tomonini o'zlashtirish uchun tovushlarni idrok etish va talaffuz qilishning rivojlanishi muhimdir.

Nutqda tovushlarni, so'zlarning fonetik tarkibini to'g'ri idrok etish darxolda vujudga kelmaydi, balki bu doimiy rivojlanishi natijasi hisoblanadi.

Nutqning ilk rivojlanish davrida bola so'zlarni umumiy yaxlit idrok etadi. Keyingi etaplarda esa, rivojlanish natijasida so'zlarning tarkibidagi tovushlarni ajrata boshlaydi. Bir vaqtning o'zida faol lug'ati rivojlanadi va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rganadi. Bolada so'zlar va alohida tovushlarni akustik va artikulyar jihatidan

farqlash shakllanadi.

Nutqiy kamchiliklar ustida juda ko'p olimlar A.Kusmaul, M.A.Aleksandrovskaya, A.M.Smirnova, A.T.Spirova, S.N.Shaxovskaya, YE.M.Grinsipun, A.V.Yastrebova va boshqalar ish olib borganlar. Talaffuzdagi kamchiliklar muammosi nutqiy patologiyalar tarixini o'rganishda eng dolzarb bo'lgan ko'pgina ishlarda yoritilgan. Kichik muktab yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirish metodlari F.A.Rau, R.E.Levina, A.G.Ippalitova, G.A.Kashe, G.V.Chirkra, O.N.Usanova, O.V.Pravdina, T.V.Filicheva va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Og'zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar milliy tilda: Z.G.Gabashvili, A.S.Vinokur, R.A.Ayazbekova, K.K.Karlen, A.Mikulsskit, L.V.Savka, L.R. Mo'minova, M.Y.Ayupova tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilgan. Mualliflar og'zaki nutqdagi kamchiliklarni kelib chiqish sabablarini turlicha talqin qiladilar va bartaraf etish uchun turli metodik ko'rsatmalar beradilar.

M.Aleksandrovskaya ma'lumotiga ko'ra tekshirilgan 1200 ta bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar kuzatilgan, shularning 404 tasi 5 yoshli, 324 tasi 6 yoshli, 244 tasi 78 yoshli, 144 tasi esa 8-9 yoshli bolalarni tashkil etgan. Muallifning fikricha tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning ko'p foizi maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatilar ekan, hamda bu kamchilik maxsus pedagogik aralashuvhsiz o'z-o'zidan yo'qolib ketmaydi, balki bu kamchiliklar maktabgacha yoshda bartaraf etilmasa kichik muktab yoshda ham namoyon bo'ladi degan xulosa keladi.

Bolalarda, sirg'aluvchi, shovqinli, sonor r, l tovushlaridagi kamchiliklar ko'proq uchrar ekan. Qolgan tovushlardagi kamchiliklar yuqorida ko'rsatilgan tovushlarga nisbatan kam uchrar ekan.

R.M.Boskis, R.V.Levina, N.X.Shvachkin, A.R.Spirova, L.K.Nazarova va boshqalar bolalarda uchraydigan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar sababi motor sferadagi va akustik idrokdag'i kamchiliklar natijasidir deb ko'rsatdilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda talaffuz kamchiliklari E.F.Sobtovich va M.M.Alesivalarning ilmiy izlanish ishlarida har tomonloma tahlil etilgan hamda logopedik ishning mazmuni ishlab chiqilgan.

Bu borada O'zbekistonda L.R.Mo'minova, M.Y.Ayupova va boshqalarning olib borgan ishlari alohida e'tiborga loyiqidir. Tovush-

lar talaffuzidagi kamchiliklar qadimgi davrlarga taqalib, birinchi ma'lumotlar qadimgi grek olimlari Plutarx, Gippokrat, Kladiya, Galen va boshqalarning ishlarida bayon qilindi. Yuqoridagi mualliflar noto'g'ri talaffuzni davolashni talab qiluvchi kasallik deb qaraydilar. Ularning fikricha, tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilish til, lab, qat-tiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog'liq deb ko'rsatdilar. O'rta asrga kelib, dislaliya haqida yangi fikrlar paydo bo'lmay, qadimgi davr ilmiy g'oyalari takrorlanadi. Tarixning keyingi davarlarida (ya'ni 16-18 asrlarda) italyan professori Merkurialis, nemis fiziologi Alberxt Fon Gallering ishlari paydo bo'ldi. Ular ham tili chuchuklikni (dislasiyani) pereferik nutq apparati tuzilishidagi kamchiliklar natijasi deb qaraydilar. Merkurialis bu kamchilikni davolash usulining eng mosi deb xirurgik terapiya deb hisoblaydi. Galler esa talaffuzdagi kamchiliklarni mashqlar orqali davolash fikrini ilgari suradi. Keyinchalik bu fikr fransuz aktyori J. Talma ishlarida ham o'z aksini topadi. Shunday qilib, XIX asrgacha tili chuchuklikning mohi-o'rganganlar. Chunonchi, bu davrlarda tili chuchuklik «duduklanish» deb nomlanuvchi nutq buzilishining umumiylaridan ajratilmagan edi. Nutqdagi talaffuz kamchiliklarni ilmiy tasnif birinchi o'rinishlar XIX asrning boshlarida boshlandi. Funksional dislaliyaga noto'g'ri nutqiylar tarbiya va nutq apparatida mashqlarni ya'ni harakatni yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan nutq kamchiliklarni kiritadi. A. Kussmaul tomonidan birinchi marta ayrim tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni ifodalovchi terminlar kiritildi: rotatsizm-pararotatsizm, lambdatsizm-paralambdatsizm, sigmatizm - parasigmatizm va hokazo. Shunday qilib, A. Kussmaulning xizmatlari shundaki, u dislaliyani dizartriyadan ajratdi va dislaliyani funksional va mexanik shakllarini ko'rsatib berdi.

A. Kussmaul tomonidan berilgan yuqoridagi fikrlar hozirgi kunga qadar o'z kuchini yo'qtgani yo'q. Bu kamchiliklarni davolashda A. Kussmaul xirurgiya va didaktik usullarni tavsiya etadi.

Keyinchalik nutqning tovush tomonidagi kamchiliklar ustida rossiyada A. Andres, fransiyada Leguve Sherven, germaniyada G. Gutsmanlar ishladilar.

Tovush buzilishlarining harakteri haqidagi fikrlarning rivojlanishida rus va chet el lingvistlarining, psixolog va fiziologlarning his-

sasi katta bo'ldi: V.A. Bogoroditsski, L.V. Herbn, D.P. Yenko, Boduen, A.A. Shaxmatov, L.V. Varshavskiy, I.M. Litvak, N.I. Jinkin va hokazo.

Tili chuchuklikning tabiatini o'rganish, uning harakteri va mexanizmi jihatdan alohida turlarini ajratish, bu kamchilikni bartaraf etishning differinsial usullarini ishlab chiqilishiga olib keldi.

XIX asr boshlarida tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni artikulyatsion mashqlar yordamida bartaraf etish rivojlandi (J. Telma, Pualson).

«Dislaliya» terminini Yevropada birinchi bo'lib Vilnyus universitetining vrachi professor I. Frank ilmiy muomalaga kiritgan. 1827 yilda chiqqan monografiyada, u bu terminni umumlashtirilgan ma'noda talaffuz buzilishlarining hamma turlarini turli etiologiyalarini nomlashda qo'lladi. I. Franklin farqli ravishda bir muncha tor ma'noda, bir qancha kechroq, 19 asr-ning 30 yillarda shveysariya vrachi R. Shultess ham o'z ishlariga «dislaliya» terminini kiritgan. U dislaliyaga faqat talaffuz buzilishlarini (artikulyatsion organlarining anatomik nuqsonlari sababli) kiritdi. A. Kussmaul tasnifida ham Shultessni shunday qarashlari ta'kidlangan, shunday dislaliya tushunchasi bilan biz Gutsman ishlarida ham tanishamiz.

Polyak tadqiqotchisi V. Oltushevskiy dislaliyaga talaffuz buzilishini nutq apparatini anatomik nuqsonlari bilan bog'lanmagan hollarini kiritadi. U dislaliyani ikkita formasini ko'rsatgan: funksional va eshitish qobiliyatini pasayishi bilan bog'liqlikni. Artikulyatsion apparatida patologik o'zgarishlar sababli talaffuz nuqsonlari bo'lishini u «dislossiya» termini bilan belgiladi va bu nuqsonni qaysi artikulyatsiya bo'limi buzilgan bo'lganligiga qarab to'rtta turini ajratdi: labning, tilning, tishning, tanglayning.

Sobiq Sho'rolar davrida logopediyasida 20 asrning boshlarida dislaliya tushunchasi A. Kussmaul va Gutsmanning ishlaridan farq qilmasdi. Lekin 30-50 yillarda bu tushuncha amaliy o'zgarishlariga duch keldi. M.E. Xvatsev dislaliyani tutilib gapishtirishning bir formasi deb ko'rди (shu umumlashtirilgan terminga talaffuzning hamma tur buzilishlari kiritilgan). U bunga periferik nutq organining buzilishi kiritgan: suyak-kemirchak-muskullar qismlar yoki «ularning periferik innervatsiyasi», hamda periferik qulog'i og'irligi sababli tovush talaffuzining buzilishi. U 10% dan kam bo'limagan dislaliya hollari

shu nuqson bilan bog'liq deb hisoblangan. M.E. Xvatsev dislaliyani uchta formasini ko'rsatadi: nutq organ-larini qo'pol anatomik nuqsonlari bo'lgan m e x a n i k (tanglay yoriqlari, til osti yuganchasining kaltaligi); periferik qulog og'irligi, jag' va tishlar anatomiyasi, shuningdek til va tanglay, lab anomaliyasi bilan bog'liq bo'lgan o'r g a n i k, yumshoq tanglay muskullarining bo'shlig'i, til uchi egisustligi sababli kelib chiqadigan f u n k s i o n a l formasi va boshqalar.

50 yillarning boshlarida A.M. Smirnova katta klinik material asosida M.E. Xvatsev taklif qilgan tasnidan sezilarli darajada farq qiladigan talaffuz nuqsonlari tasnifini nashr qildi.

Shu vaqtning o'zida O.V. Pravdina dislaliyaga boshqacha talqin beradi: ayrim hollarda faqat eshitish nuqsonlari bilan bog'liq bo'lган buzilishlar bo'ladi deydi. Bunda M.E. Xvatsevdan farqli ravishda u dislaliyani faqat ikkita formaga ajratdi: funksional va mexanik, keyingisiga (mexanika) rinolaliya ham kiritilgan edi.

Keyinchalik, 60 yillarda S.S. Lyapidevskiy va B.M. Grinshpun ishlarida talaffuz nuqsonlarini dizartriya va dislaliyaga bo'lishni, umumlashtirilgan «utilib gapirish» terminidan umuman voz kechishni taklif qilganlar. Shu yilning o'zida S.S. Lyapidevskiy va B.M. Grinshpun ishlarida rinolaliya mexanik dislaliyadan ajra-tilib, alohida nutq kamchiligi deb qaralgan. Bu anqlik dislaliya tushunchasini toraytirdi va uni yanada aniqroq qildi. Keyinchalik dislaliyani funksional va mexanik dislaliyaga bo'linishi ko'pchilik mualliflar ishlarida ham ajratildi. Faqat ayrim ishlarida organik dislaliya eslatib turildi, lekin hamma mualliflar ishlarida bu termin mazmuni bir xil emas edi: E.F. Rau va V.A. Sinyak o'z ishlarida «organik dislaliya» terminini mexanik dislaliya termini almashtirilgan. L.V. Melexova ishlarida esa «organik dislaliya» tushunchasi bilan dizartriya va dislaliya orasidagi o'tish hollarida talaffuz buzilishi deb belgilangan. Keyingi vaqtarda bunday buzilishlar siyqalangan dizartriya deb aniqlandi.

Hozirgi davrda «dislaliya» termini xalqaro xarakterga ega bo'ldi (uning mazmuni hamda u aniqlagan buzilish turlari doimo mos kelmasa ham). Bu kelishmovchilik buzilishlarni aniqlashda tadqiqotchilarining qanday ta'riflashni asos qilib olishiga bog'liq: anatomoфизиologik, psixologik yoki lingvistik. Klinik mezonlarni

odat bo'yicha ta'riflashda dislaliya turlarini turli talaffuz buzilishlari ko'pincha qator qo'yilgan deb ko'riladi. Psixologik va lingvistik mezonlar asosiga qo'yilgan dislaliya tushunchasiga, goh uning turli forma va turlari, goh fonetik va fonetiko-fonematisk talaffuz buzilishlari kiritiladi. (masalan: R.E. Levina ishlarida). O'zbekistonda M.Ayupova ma'lumotiga ko'ra 5 yoshli bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar 41,5%, 6 shli bolalarda esa 22,9% ni tashkil etadi. M.Ayupova ma'lumoti bo'yicha 5 yoshli bolalarda sirg'aluvchi (s, z) 32,1%, shovqinlilar (sh, j) 38,4%, «R» tovushi talaffuzida 60,7%, til orqa tovushlari 25%, chuqr til orqa tovushlari (q, g') 7,1, «L» tovushi 5,4% tashkil etgan<sup>1</sup>.

#### Savollar va topshiriqlar:

1. Nutq kamchiliklarni o'rganishda rus olimlarning ishi?
2. Nutq kamchiliklarni o'rganishda o'zbek olimlarning ishi nimadan iborat?
3. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni 16-18 asrlarda kimlar asos solgan?

#### Tayanch iboralar:

Dislaliya - termini grekcha so'zdan olingen bo'lib, dis-buzilish, lalia-nutq degan ma'noni anglatadi.

Fonetika – yunoncha so'z bo'lib, tovushga, tovush chiqarishga oid, tovushli, ovozli.

Fonologiya – tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy va funksional qonuniyatları.

## 2§. DISLALIYA NUTQ KAMCHILIGI VA UNING KELIB CHIQISH SABABLARI

**Reja:**

1. Dislaliya nutq kamchiligining kelib chiqish sabablari.
2. Dislaliya nutq kamchilgida bolaning rivojlanishiga ta'siri.

Dislaliya nutq kamchiligin o'rganishda uning kelib chiqish sabablarini aniqlash orqali logopedik ish belgilanadi, shuningdek logopedik ishini tashkil qilish vaqtida dislaliya nutq kamchilining turlari inobatga olingan holda korreksion - logopedik ish tashkil qilinadi. Korreksion- logopedik ishlarni tashkil qilish vaqtida dislaliyani turlari hisobga olinadi.

Mexanik (organik) dislaliya pereferik nutq apparatning (til, jag', tanglay, tish) organik buzilishi natijasidir.

*Til tagidagi yuganchaning kaltaligi mexanik dislaliyaga sabab bo'ladi. Bu kamchilik til harakatini qiyinlashtiradi, til tagidagi etning haddan tashqari kalta bo'lishi tilning yuqori tomon ko'tarilishiga imkon bermaydi. Bundan tashqari, tilning haddan tashqari katta bo'lishi yoki haddan tashqari kichik va tor bo'lishi ham dislaliyaga olib keladi. Bunday hollarda to'g'ri artikulyatsiya qiyinlashadi.*

Jag' tuzilishidagi kamchiliklar prikus nonormalliklarga olib keladi. Nonormal prikuslar bir necha xil ko'rinishda bo'lishi mumkin.

*Prognatiya-yuqori jag' oldinga tomon chiqqan bo'ladi. Buning natijasida pastki oldingi tishlar yuqoridagi tishlar bilan birlashmaydi.*

*Progeniya-pastki jag' oldinga chiqqan bo'ladi (5-rasm)*

*Ochiq prikus-yuqori va pastki jag'lar birlashganda ular orasida oraliq masofa qoladi. Ayrim hollarda bu oraliq faqat oldingi tishlar orasida bo'ladi (oldingi ochiq prikus). (6-rasm)*

*Yoni ochiq prikus o'ng tomonli, chap tomonli va ikki tomonli bo'lishi mumkin.*

*Tishlarning (tish qatorining) noto'g'ri tuzilishi ham dislaliyaga sabab bo'lishi mumkin. Tishlar va jag'dagi kamchiliklarni bartaraf etish vrach-stomatolog tomonidan olib boriladi.*

*Tanglayning tuzilishidagi kamchiliklar ham tovushlarning to'g'ri talaffuziga to'sqinlik qiladi. Tanglayning tor, baland, past, yassi tanglay ko'pchilik tovushlarning to'g'ri artikulyatsiyasiga xalaqit*

beradi.

*Lablarning ingichka, qalinligi hamda kam harakatchanligi ham lab va lab-tish tovushlarini aniq talaffuz qilishiga to'sqinlik qiladi.*

*Funksional dislaliyada pereferik nutq apparatining artikulyatsion qismida hech qanday organik buzilishlar, kamchiliklar kuzatilmaydi.*

Funksional dislaliyaning keng tarqalgan sabablaridan biri oiladan nutqini noto'g'ri shakkantirishdir. Ayrim oilalarda kattalar bola nutqiga taqlid qiladilar. Bolani erkalab u bilan «bola tilida» gaplashadilar. Buning natijasida esa bolada tovushlarning to'g'ri talaffuzi kech rivojlanadi. Dislaliya nutq kamchiliga ega bolalarda *taqlid qilish asosida* ham paydo bo'ladi. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning paydo bo'lishi bolaga kattalarning erkalab gapriishi orqali ham tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Shu boisdan ham noto'g'ri nutqga taqlid qilish asosida bolada funksional dislaliya kelib chiqadi.

*Oladagi ikki tillilik va pedagogik qarovsizlik ham funksional dislaliyaga sabab bo'ladi. Bunda tovushlarga e'tibor bermaslik, boladagi kamchiliklarni to'g'rimaslik, to'g'ri va aniq talaffuz namunalarini bermaslik hollari kuzda tutiladi<sup>1</sup>.*

Fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan biridir. Bu holda tovushlar differensiyasi (tovushlarni farqlash) qiyinlashadi. Bolalar asosan bir-biriga o'xshash: jarangli-jarangsiz, sirg'aluvchi va shovqinli tovushlarni ajrata olmaydilar. Bu qiyinchiliklar natijasida tovushlarning to'g'ri talaffuzi uzoq vaqtga cho'zilib ketadi.

Shu bilan birga, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar, ayniqsa tovushlarni almashtirish hollari, o'z navbatida, fonematik eshituvning shakkantishining qiyinlashtiradi va kelgusida nutqning umumiyligi rivojlanmaganligiga va o'qish-yozishda buzilishlar bo'lishiga sabab bo'ladi.

Dislaliya nutq kamchilgida artikulyatsion nutq *apparat a'zolarining* (til, lab, pastki jag') *harakatchanligidagi kamchiliklar* natijasida ham sodir bo'ladi. Bu hol bolaning tilni kerakli holatda ushlab tura olmasligi yoki bir harakatdan ikkinchi harakatga tez

<sup>1</sup> M.Y.Ayupova "Logopediya" darsligi. Toshkent 2007 y, 88b.

o‘ta olmasligida namoyon bo‘ladi. Dislaliya nutq kamchiligiga ega bolalarda eshitish idrokning buzilishi oqibatida ham tovushlar talaffuzidagi kamchiklar kuzatiladi

#### Savollar va topshiriqlar:

- 1.Mexanik dislaliya nima?
- 2.Funksional dislaliya nima?
- 3.Korreksion - logopedik ish nima?

#### Tayanch iboralar:

Prognatiya-yuqori jag‘ oldinga tomon chiqqan bo‘ladi. Buning natijasida pastki oldingi tishlar yuqoridagi tishlar bilan birlashmaydi. Progeniya-pastki jag‘ oldinga chiqqan bo‘ladi.

†

### 3§. DISLALIYA TURLARI. DISLALIYANI BARTARAF ETISHDA LOGOPEDIK TA’SIR METODIKASI

#### Reja:

1. Dislaliya turlari.
2. Dislaliya nutq kamchiliginin bartaraf etishda logopedik ish.
3. Artikulyatsion mashqlar.
4. Dislaliya nutq kamchiligida fonematik idrokni rivojlantirish.

Tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish ona tilida hamma tovushlarda uchratish mumkin. Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo‘lgan: sonor (r, l), sirg‘aluvchi (s, z,) va shovqinli (sh, j, ch), til orqa (k, g) tovushlarida uchraydi. Bolalarga tovushlar talaffuzining buzilishi tovushlarni nutqda yo‘qligi, ularni buzib talaffuz etish va bir-biri bilan almashtirish hollari bilan namoyon bo‘ladi. Bu holatlarning har birini bataysil ko‘rib chiqamiz. Nutqda tovushlarning yo‘qligi ularning so‘zning boshida (masalan, randa so‘zi o‘rniga bola «anda»), so‘zning o‘rtasida (tarvuz-«tavuz»), so‘zining oxirida (qor-«qo») tushib qolishida ifodalanishi mumkin.

Tovushlarni buzib (noto‘g‘ri) talaffuz etish shunda ifodalanidiki, bunda tovushlarning to‘g‘ri talaffuzi o‘rniga, shu tovushga yaqin lekin ona tili fonetika tizimida ifoda etilmaydigan tovush talaffuz etiladi. Masalan, tish aro sigmatizm, yon sigmatizm, valyar R (bunda til uchi tebranishi o‘rniga yumshoq tanglay tebranadi), uvilyar R (bunda til uchi o‘rniga kichik tilcha tebranadi).

Tovushlar tilning fonetik tizimida mavjud bo‘lgan boshqa tovushlarga almashtirilishi mumkin. Ular quyidagicha namoyon bo‘lishi mumkin:

1)hosil bo‘lish usuliga ko‘ra o‘xhash, artikulyatsiya o‘rniga ko‘ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan, portlovchi til orqa k va g, portlovchi til oldi t va d tovushlari (masalan kitob so‘zi o‘rniga «titob», gul so‘zi o‘rniga «dul»);

2)hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra o‘xhash, hośil bo‘lish ustüliga ko‘ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan sirg‘aluvchi til oldi s tovushi, portlovchi til oldi t tovushi bilan (soat o‘rniga «toat»);

3)hosil bo‘lish usuliga ko‘ra o‘xhash va artikulyatsiya organlarining ishtirokiga ko‘ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan

### **3§. DISLALIYA TURLARI. DISLALIYANI BARTARAF ETISHDA LOGOPEDIK TA'SIR METODIKASI**

**Reja:**

1. Dislaliya turlari.
2. Dislaliya nutq kamchiligini bartaraf etishda logopedik ish.
3. Artikulyatsion mashqlar.
4. Dislaliya nutq kamchiligidagi fonematik idrokni rivojlantirish.

Tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish ona tilida hamma tovushlarda uchratish mumkin. Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikuly-

s tovushi, lab-tish a'zolari ishtirokida hosil bo'ladigan f tovushi bilan (sumka so'zi o'rniga «fumka»);

4)hosil bo'lish usuli va o'rniga ko'ra o'xshash, ovoz ishtirokiga ko'ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan, jarangli tovushlar jarangsiz tovushlar bilan alshmashtiriladi (bola-«pola», pay-poq-«bayboq», zina-«sina», gul-«kul»).

Buzilgan tovushlarning soniga qarab dislaliya yana *oddiy* va *murakkab* turlarga bo'linadi. Agarda to'rtta tovush talaffuzida kamchilik bo'lsa-*oddiy* dislaliya, agar beshta va undan ortiq tovush talaffuzida kamchilik bo'lsa, bu-*murakkab* dislaliya deb ataladi.

Agar bir fonetik gruppaga kiruvchi tovushlar talaffuzida kamchiliklar bo'lsa (masalan, sirg'aluvchi s, z, j) bu-*monomorf dislaliya*. Agar u ikki va undan ortiq artikulyatsiya guruhiga tegishli bo'lsa (masalan, rotatsizm, sigmatizm, va lambdatsizm) bu-*polimorf dislaliya* bo'linadi.

Talaffuzidagi kamchiliklar o'z xarakteriga, ma'lum tovushlar gruppasiga tegishli bo'lishiga ko'ra dislaliya quyidagi turlarga ajratildi:

1. *Sigmatizm* (grekcha «sigma» «ss» harfining nomini bildiradi). Bunda sirg'aluvchi (s, z) va shovqinli (sh, j, ch) tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Sirg'aluvchi va shovqinli tovushlarning boshqa tovushlarga almashtirilishi parasigmatizm deb yuritiladi. Masalan, soat-«toat», jo'ja-«do'da», choynak-«toynak».

2. *Rotatsizm* (grekcha ro harfi nomidan olingan bo'lib, «r» tovushni bildiradi) –r tovushning talaffuzidagi kamchiliklardir. R tovushini boshqa tovushlar bilan almashtirilishi pararotatsizm deb yuritiladi. Masalan, raketa-«yaketa», rom-«lom», ruchka-«yuchka».

3. *Lambdatsizm*- (grekcha lambda harfini nomidan olingan bo'lib, I tovushini bildiradi). –I tovushining talaffuzidagi kamchilikdan iborat. L tovushining boshqa tovushlarga almashtirilishi paralambdatizm deb yuritiladi. Masalan, lola-«yoya», gul-«guy».

4. *Til orqa tovushlaridagi kamchiliklar*:

*kappatsizm*-k tovushining nutqda yo'qligi, parakatatsizm «k» tovushini almashtirilishi. Masalan, koptok-«topto», kitob-«titob»;

*gammatsizm*-k tovushining nutqda yo'qligi, parakatatsizm-g tovushining almashtirilishi. Masalan, gul-«dul», gilam-«dilam»;

*xitizm*-x tovushining nutqda yo'qligi, paraxitizm x tovushining

almashtirilishi. Masalan, xat-«tat», xo'roz-«to'roz»;

*yotatsizm*-y tovushining nutqda yo'qligi, parayotatsizm x tovushining almashtirilishi (grekcha kappa, gamma, xi, yota harflarini nomidan olingen bo'lib, k, g, x, y tovushlarini bildiradi).

5. *Jaranglatish nuqsonlari*-jarangli undosh tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar. Bu kamchiliklar jarangli undosh tovushlarni jarangsiz undosh tovushlarga almashtirilishidir: b-p, d-t, v-f, z-s, j-z, g-k va boshqalar.

### Dislaliya nutq kamchiliginu bartaraf etishda logopedik ish

Talaffuz buzilishlarni bartaraf etish uchun logopedik ta'sir lozim. Logopedik ta'sirning asosiy maqsadi, nutq tovushlarini to'g'ri shakllantirishdir. Nutq tovushlarini to'g'ri tiklash uchun bola quyidagilarni bilishi lozim: nutq tovushlarini bilishi va ularni idrokida aralashtirib yuborishi kerak emas; normal talaffuz qilingan tovushdan noto'g'ri talaffuz qilingan tovushni ajrata bilishi; o'zi talaffuz qilgan tovushni eshitib nazorat qila bilishi va sifatini baholashi; tovushni normal akustik effektini hosil qiluvchi artikulyatsion holatni bajara olishi; nutqning hamma turlarida tovushlardan o'rinali foydalanishi lozim.

Logoped bolani to'g'ri talaffuzga o'rgatishi uchun nihoyatda samarali yo'l topishi lozim.

To'g'ri tashkil qilingan logopedik ish dislaliyaning boshqa turlarida ham samarali natijaga erishadi. Mexanik dislaliyaning bir qancha hollarida logopediya va tibbiyotning birgalikda yondashishi natijasida samarali muvaffaqiyatlarga erishiladi.

Logopedik ta'sirning muvaffaqiyatli shart sharoitlari talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yaxshi sharoitlar yaratib beradi: logopedning bola bilan emotsiyal kontakti; mashg'ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil qilish va charchashga yo'l qo'ymaydigan ish tizimida olib borish.

Logopedik mashg'ulotlar xafasiga uch marta muntazam ravishda o'tkaziladi. Ota-onalar bilan birgalikda uy sharoitida ham mashg'ulotlar o'tkazilishi lozim (logoped topshiriqlari asosida). Mashg'ulotlarni har kuni (kuniga 2-3 marta) 5-15 minutdan o'tkazish lozim.

Talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun didaktik materiallardan keng foydalaniladi.

Talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish muddati bir qancha faktorlarga bog'liq: nuqsonning murakkablik darajasiga, bolaning yosh va individual xususiyatiga, mashg'ulotning muntazamligiga, ota-onalar tomonidan beriladigan yordamga. Oddiy dislaliyada mashg'ulotlar bir oydan uch oygacha, murakkab dislaliyada esa uch oydan olti oygacha o'tkaziladi. Maktab yoshidagi bolalarga qaraganda, bog'cha yoshidagi bolalar talaffuzidagi nuqsonlar qisqa muddat ichida bartaraf etiladi, katta maktab yoshidagi bolalarga qaraganda esa kichik maktab yoshidagi bolalarda tezroq bartaraf etiladi.

Logopedik ta'sir bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, har bir bosqichda logopedik ta'sir umumiyligi maqsadiga qarashli bo'lgan aniq pedagogik masala yechiladi.

Adabiyotlarda logopedik ta'sir nechta bosqich bo'linishi haqida hech qanday bir xil fikr yo'q; F.F.Rau o'z ishlarida ikki bosqichga, O.V.Pravdina va O.A.Tokareva uch bosqichga, M.E.Xvatsev to'rtta bosqichga bo'lgan.

Logopedik ta'sirning vazifa va maqsadlaridan kelib chiqib, quyidagi bosqichlarga ajratishni muhim deb topildi; tayyorlov bosqichi boshlang'ich talaffuzda bilim va ko'nikma (malaka)larni shakllantirish bosqichi.

*Tayyorlov bosqichi.* Bu bosqichning asosiy maqsadi bola diqqatini maqsadga qaratilgan logopedik jarayonga qaratish. Buning uchun bir qator umumpedagogik va maxsus logopedik masalalarni yechish lozim.

Muhim umumpedagogik masalalardan biri mashg'ulotlar yo'naliшини shakllantirishdir: logoped bolani logopedik kabinet jihozlariga, muhitiga o'rgatishi, bolada mashg'ulotga nisbatan qiziqish va hohish uyg'otish lozim. Bolalarda notanish odamlarga nisbatan uyalish, tanglik, indamaslik ba'zi hollarda hatto qo'rquv hollari ham kuzatiladi. Logopeddan asosan xushmuomilalilik talab qilinadi; bola bilan munosabatda rasmiyatchilik, qattiq qo'llik qilish kerak emas.

Bola mashg'ulot qoidalariga rioya qilishi, logoped bergen instruksiyalarni bajarishni, muloqotga faol ravishda kirishishni o'rganishi kerak. Mashg'ulotlarga tushungan holda, erkin faoliyat shaklida yondashishni shakllantirish lozim.

Tayyorlov etapining muhim masalalaridan biri erkin diqqat, xotira, fikrlash operatsiyalarini, analiz va sintez, taqqoslash, xulosa

chiqarish operatsiyalarini rivojlantirishdir.

Maxsus logopedik masalalardan biri tovushlarni bir-biridan ajratishga, tanishga, artikulyatsiyani shakllantirishni bilish va ko'nikishga o'rgatishdir.

Bu masalalar dislaliyaning qaysi formasi ekanligiga qarab parallel yoki ketma-ket ravishda yechiladi. Idrok qilish jarayoni buzilmagan artikulyar formada (fonematik yoki fonetik) bo'lsa, yuqoridagi masalalar parallel ravishda olib boriladi.

Dislaliyaning akustiko-fonematik formasining muhim masalasidan biri bolalarni fonemalarni tanishga, ajratishga va eslab qolishga o'rgatishdir. Bu yuqoridagi masalalarni yechmasdan tovushlarni to'g'ri talaffuzini shakllantirishga o'tib bo'lmaydi. Bola, tovushni to'g'ri talaffuziga erishishi uchun, u tovushni (fonemani) eshitish lozim.

Dislaliyaning aralash va murakkab shaklida retseptiv bilimlarni rivojlantirish uchun artikulyar bazani shakllantirish lozim. Fonematik idrok qo'pol buzilgan bo'lsa, artikulyar bilim va malaka jarayonlarini shakllantirish ishlari olib boriladi.

Artikulyatsion bazani shakllantirish uchun bir qancha mashqlar turi, metodik tavsiyalar, talaffuzni to'g'rilash uchun qo'llanma va didaktik talablar ishlab chiqilgan.

Dislaliya nutq kamchiligida qo'pol ravishda harakat buzilishlar uchramaydi. Dislaliya nutq kamchiligiga ega bolada nutq uchun maxsus bo'lgan artikulyatsion organlar harakatining ayrimlari shakllanmagan. Artikulyatsion organlar harakatining shakllanish jarayoni erkin va tushungan holda amalga oshadi: bola vazifani to'g'ri bajarishga va artikulyatsion organlar harakatini nazorat qilishga o'rganadi. Zarur bo'lgan harakatlarni oldin ko'rsatilib taqlid qilish asosida shakllantiriladi: logoped oyna oldida bolaga tovushning to'g'ri artikulyatsiyasini ko'rsatadi, tushuntiradi, qanday harakatlarni bajarishni ko'rsatadi va qaytarishni so'raydi. Ko'rish nazorati ostida bir necha marta qaytarish natijasida bola to'g'ri (kerakli) vaziyatni egallashga erishadi. Agar bola qynalsa logoped zond yoki shpatel bilan yordam beradi. Keyingi mashg'ulotda ko'rsatmasiz og'zaki instruksiya bo'yicha qildirishga xarakat qilish kerak. Keyinchalik bola to'g'ri bajarayotganini kinestik sezgisi asosida tekshirishi mumkin. Bola qachon artikulyatsiyani ko'rsatmasiz, bexato bajarsa,

shunda o'zlashtirib olgan bo'ladi.

Tovush talaffuzini *to'g'ri shakllantirish davrida*, shu tovush ustida ishlanayotganligi haqida eslatish kerak emas.

Logoped, mashg'ulot davomida, bola kerakli tovushni talaffuz qilish uchun to'g'ri vaziyatni egalladimi, yo'qmi tekshiriladi. Buning uchun logoped boladan to'g'ri vaziyatni egallagan holda nafas natijasida intensiv shovqin hosil bo'ladi. Agarda shovqin kerakli to'g'ri tanlangan bo'ladi. Agar bunday bo'lmasa, unda logoped boladan artikulyatsion organ vaziyatini o'zgartirishini so'raydi (bir oz ko'tarish, tushirish, tilni xarakatlantirish) va yana puflatadi. Muvaffaqiyatli natijaga erishmaguncha bajartiriladi.

Ba'zi hollarda bola hosil bo'lgan shovqinga qulq solib uni normal tovush bilan tenglashtiradi va xatto mustaqil ravishda nutqiga kiritishga harakat qiladi. Bu har bir ham yaxshi natijaga olib kelmaydi. Shuning uchun bunday hollarda logoped bola diqqatini boshqa holatga qaratadi.

Dislaliya nutq kamchiligidagi artikulyatsion organlarni kerakli harakatlarini shakllantirish uchun qilingan mashqlar natijasi yetarlidir, ortiqcha mashqlarni bajartirish zarur emas. Bola nutqi rivojlanish jarayonida ayrim shakllanmagan nutq xarakatlari ustida ish olib boriladi.

Artikulyatsion mashqlar o'tkazish uchun kerakli bo'lgan talablar:

1. Talab qilingan vaziyatni egallay bilish, shu vaziyatda tura bilish (olish), shu vaziyatni sakrab turish, bir vaziyatdan ikkinchisiga o'ta bilish.

2. Artikulyatsion motorikani rivojlantiruvchi mashqlar tizimiga statik mashqlar kabi nutq xarakatining dinamik koordinatsiyasini rivojlanishiga qaratilgan mashqlarni ham kirgizishi lozim.

3. Lab va til harakat mashqlarini birga olib borish zarur, chunki bu organlar tovushlarni talaffuzida birgalikda ishtirot etishadi, bir-biriga moslashadi (bu ko'rinishnikoartikulyatsiya deyiladi).

4. Bola charchab qolmasligi uchun mashg'ulotlar qisqa, lekin ko'p marta o'tkazilishi lozim. Orada boshqa ish turi bilan shug'ullanish lozim.

5. Kinestik sezgini, kinestik analiz va tasavvurni shakllantirishga

katta e'tibor berish kerak.

6. Harakatlarni o'zlashtirish bilan birga, tovushlarni realizatsiya qilish uchun logoped boshqa tovushlarga kerak bo'lgan xarakatlar ustida ishlashga o'tadi.

### Artikulyatsion mashqlar

Logoped korreksion ishni boshlashdan avval bolalarning artikulyatsion nutq apparati a'zolarining holatini tekshiradi. Agar artikulyatsion nutq apparatida kamchiliklar bor bo'lsa, bularning barchasi logoped tomonidan qayd etib boriladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda fonematik idrokni rivojlantirish ishlari bilan birgalikda artikulyatsiya mashqlar ham olib boriladi.

Artikulyatsiya mashqlarining asosiy maqsadi, tovushlarni to'g'ri talaffuz etish uchun zarur bo'lgan artikulyatsiya nutq a'zolarini to'liq, aniq keltirish va oddiy harakatlarni murakkab harakatlarga turli xil fonemalarning artikulyatsiya tartibiga birlashtirishdan iboratdir.

Barcha artikulyatsion mashqlari tizimini ikki turga bo'lish mumkin: statik va dinamik. Statik mashqlarda artikulyatsiya a'zolari turli holatlarga keltiriladi, lekin xarakat bo'lmaydi. Dinamik mashqlarda artikulyatsiya a'zolari turli holatlarga va shu bilan birga harakatga keltiriladi.

Har bir mashqlar o'z nomiga ega. Mashqlarning nomlari shartli, lekin bolalarning ularni eslab qolishlari juda muhimdir. Chunki, birinchidan, nomlar bolada o'tkaziladigan mashqqa nisbatan qiziqish uyg'otadi, ikkinchidan, vaqtini tejaydi, ya'ni bunda logopedga har safar mashqlarni bajarish usulini takror tushuntirishga hojat qolmaydi, bolaga bajarilishi kerak bo'lgan mashqning nomini aytish kifoY.

### Statik mashqlar

1.«Taroqcha» mashqi, bunda til keng yoyilgan holda og'iz bo'shilig'idan tashqariga chiqariladi va yuqori va pastki tishlar bilan ushlab turiladi, til shu holatda 10 soniya ushlab turiladi ( 6 rasm).

2.«Yelkan» mashqi, bunda til uchi yuqori tishlarning orqa tomoniga ko'tariladi. Til shu holatda 8-10 soniya ushlab turiladi ( 9 rasm).

3. «Belkurakcha» mashqi, bunda til keng holda chiqarilib, bo'shashtiriladi va pastki lab ustiga qo'yiladi. Bunda til titramasligi kerak. Til shu holda 10-15 soniya ushlab turiladi

4.«Kosacha» mashqi, bunda og'iz keng ochiladi, til keng chiqarilib yuqoriga ko'tariladi. Til yuqori tishlar tomon olib boriladi, lekin ularga tekkizilmaydi. Shu holda til 10 soniya ushlab turiladi (7-rasm)

5. «Ninacha» mashqi, bunda og'iz ochiladi. Til oldinga tomon ingichka qilib chiqariladi. Shu holatda 10 soniya ushlab turiladi

6.«Tepacha». Og'iz yarim ochiladi. Tilning orqa yonlari yuqori jag' tishlar bilan qisiladi. Tilning uchi pastki oldingi tishlarga tiraladi. Bu holat 15 daqiqa ushlab turiladi

7.«Naycha». Til keng holda chiqariladi. Tilning ikki yon tomoni yuqori tomon buklanadi. Hosil qilingan naychadan puflanadi.

Mashq sekin sur'atda 8-10 marta bajariladi.

Aytib o'tilgan mashqlarning har biri aniq, sekin 8-10 marta bajariladi.

### Dinamik mashqlar

1.«Futbol» mashqi, bunda og'iz yopiq holda bo'lib, til og'iz bo'shilig'ida chapga va o'ng lunjlariga harakat qiladi. Shu holatda 3 marta takrorlanadi ( 1- rasm).

2.«Soatcha». Til uzun-ingichka qilib chiqariladi. So'ng shu holda til og'izning o'ng burchagidan chap burchagi tomonga qarab xarakta keltiriladi. Mashq 15-20 marta bajariladi (3-rasm)

3.«Ot». Til tanglay tomon so'rilib, so'ng qo'yib yuboriladi. Shunda til taqillagan ovoz chiqaradi. Tilni taqillatish sekin va kuchli bo'lishi kerak. Bu mashq 10-15 marta bajariladi.

4.«Qo'ziqorin». Og'iz ochiladi. Til tanglay tomon so'rilib, shunda til tanglayga qattiq jipslashadi. Bu holda til ushlab turiladi, shu vaqtning o'zida pastki jag' pastga tomon tushiriladi. Bu mashq 10-15 marta bajariladi. Bu mashqning «Ot» mashqidan farqi shuki, til tanglayga jipslashgach, qo'yib yuborilmaydi. ( 2- rasm)

5.«Arg'imchoq». Til uzun-ingichka qilib chiqariladi, so'ng navbatma-navbat goh burun, goh iyak tomon olib boriladi. Bu vaqtida og'iz bekitilmaydi. Mashq logoped sanog'i ostida 8-10 marta bajariladi (8-rasm)

6.«Mazali murabbo». Til keng holda chiqariladi, so'ng yuqori lab-

lar yalanadi va til og'iz ichiga olinadi. Bu mashq 10-15 marta qaytariladi (5-rasm)


7.«Bo'yoqchi». Til chiqariladi, og'iz yarim ochiq holda bo'ladi. Til bilan avval yuqori lab, so'ng pastki lab aylana bo'ylab yalanadi. Bu mashq yo'nalishni o'zgartirgan holda 10 marta bajariladi (4-rasm)

8.«G'altak». Til uchi oldingi pastki tishlar orqasiga tiraladi. Tilning orqa yon tomoni yuqoridagi jag' tishlar bilan qisiladi. Keng til oldinga chiqariladi, so'ng yana og'iz ichiga olinadi. Bu mashq 15 marta bajariladi.

Har bir tovushlarni to'g'ri talaffuzga qo'yishda logoped aytib o'tilgan mashqlardan faqat zarur deb hisoblanganlarini tanlab oladi. Tanlab olingen mashqlar quyilishi lozim bo'lgan tovush artikulyatsiyasiga mos kelmog'i lozim.

1- rasm

### *"Futbol" mashqi*




2- rasm

### *"Qo'ziqorin" mashqi*




3- rasm

### *"Soatcha" mashqi*




4-rasm

### *"Bo'yoqchi" mashqi*



### 5- rasm

*"Mazali murabbo "mashqi*



### 6-rasm

*"Taroqcha "mashqi*




### 7- rasm

*"Kosacha "mashqi*



### 8- rasm

*"Arg'ümchoq "mashqi*



### 9- rasm

*"Yelkan "mashqi*



### Dislaliya nutq kamchligida fonematik idrokni rivojlantirish

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni fonematik idrokni rivojlantirish orqali bolaning tovushlar talaffuzini hamda nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlarni to'g'ri idrok qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish uchun bolaning fonematik idroki yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim.

Fonematik idrokdagagi buzulishlar natijasida bolalar tovushlarni noto'g'ri talaffuz qiladi, shuningdek tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish orqali bolalarda maktab ta'limgiga to'sqinlik qiladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda fonematik idrokni rivojlantirish maqsadida guruhli va yakka mashg'ulotlarda korreksion logopedik ishlar olib boriladi.

Frontal mashg'ulotlarda logoped tomonidan bolaning fonematik idrokini rivojlantirishga oid ko'rgamali jihozlardan foydalangan holda rivojlantirib boriladi.

Yakka mashg'ulotlarda logoped bolaning fonematik idrokni rivojlantirish uchun turli nutqiy va nutqiy bo'lmagan ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda logopedik ishlar olib boriladi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni fonematik idrokni rivojlantirishda bolalarning yosh xususiyatlarni hisobga olingan holda mashg'ulotlar o'yin asosida olib boriladi.

Bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tovushlarni to'g'ri nutqga qo'yish va ularda fonematik idrokni ham rivojlantirishdan iboratdir. Chunki fonemalarni to'liq idrok etmasdan turib, ularni aniq farqlamasdan tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish mumkin emas.

Fonematik idrokni rivojlantirish logopedik ishning dastlabki davrlaridanoq olib boriladi hamda yakka, guruhli mashg'ulotlarda o'yin ko'rinishda o'tkaziladi.

Korreksion - logopedik ish avval nutqsiz tovush materiallaridan boshlanadi va sekin asta nutqdagi hamma tovushlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi mashg'ulotlardanoq fonematik idrokni rivojlantirish bilan parallel ravishda eshitish diqqati va eshitish xotiralari ustida ish olib boriladi. Bu esa fonematik idrokni rivojlantirishda eng samarali va jadallashtirilgan natjalarga erishishga imkon beradi. Bu juda muhimdir, chunki atrofdagilar nutqini eshita bilmaslik tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaslik sabablaridan biridir.

Logopedik mashg'ulotlar jarayonida bola o'z talaffuzini nazorat qila olishi va o'z nutqini atrofdagilar nutqiga taqqoslash asosida talaffuzidagi kamchiliklarni to'g'rilay olish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Bolalarda fonemalarni farqlay olish qobiliyatini rivojlantirish

yuzasidan olib boriladigan hamma logopedik ishlar tizimini shartli ravishda olti davrga bo'lish mumkin:

1. davr-nutqsiz tovushlarni bilish.
2. davr-bir xil tovush, so'z birikmasi va iboralarda ovozning balandligi, kuchi, tembrini ajratish.
3. davr-tovush tarkibi bo'yicha o'xhash so'zlarni ajratish.
4. davr-bo'g'inalnari farqlash.
5. davr-fonemalarni farqlash.
6. davr-tovushlarni oddiy tahlil qilish malakalarini rivojlantirish.

Dislaliya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda fonematik idroknii rivojlantirish ishlari yakka va guruhli mashg'ulotlar o'rtasida doimiy ravishda ham logoped va tarbiyachi tomonidan olib borish mumkin. tashkil qilinayotgan mashg'ulotlarda bolalarning nutqiy va nutqiy bo'lmagan tovushlarni farqlashga ham e'tibor beriladi.

#### Savol va topshiriqlar:

1. Artikulyatsion mashqlar nimalardan iborat?
2. Xitzim nima?
3. Yotatsizmni nima?
4. Fonematik idrok nima?

#### Tayanch tushunchalar:

Sigmatizm (grekcha «sigma» «**s**» harfining nomini bildiradi).

Rotatsizm (grekcha ro harfi nomidan olingan bo'lib, «**r**» tovushni bildiradi)

Lambdatsizm-(grekcha lambda harfini nomidan olingan bo'lib, **l** tovushini bildiradi).

## 4§. TURLI XIL SIGMATIZMLARNI BARTARAF QILISH

#### Reja:

1. Sigmatizm turlari.
2. Turli xil sigmatizmlarni bartaraf etishda logopedik ish.
3. Shovqinli tovushlarning hosil qilinishda logopedik ish.
4. Rotatsizm va uni bartaraf etishda logopedik ish.
5. Lambdatsizm va uni bartaraf etishda logopedik ish.


#### Sigmatizm turlari

##### S, Z tovushlari

Bu tovushlar sirg'aluvchi tovushlar guruhiba kiradi. Ularning talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, yuqorida qayd etilganidek, bolada bu tovushlarni eshitib, ularni bir-biridan farqlash malakalarini rivojlantirishdan boshlanadi. So'ngra artikulyatsion mashqlar o'tkaziladi. Keyin esa shu tovushlarning to'g'ri artikulyatsiyasi o'rgatiladi. S tovushining talaffuzida artikulyatsion apparat quyidagi holatda bo'ladi (1-rasm)

- talaffuz vaqtida lablar iljaygansimon ochiq;
- pastki va ustki tishlar esa bir-biriga tegar-tegmas darajada yaqin holatda bo'ladi;
- tilning uchi yoyilib, yuqori milkka tegar-tegmas holatda bo'ladi, ya'ni tilning sathi bilan qattiq tanglay orasidagi masofa torayib bora-di, yumshoq tanglay esa bir oz ko'tariladi.

#### 1- rasm



Havo oqimi til va yuqori milkdan sirg‘alib chiqadi.


Z tovushining talaffuzi S tovushi artikulyatsion holatiga o‘xshashdir, faqat unga ovoz qo‘shiladi.

### Sh va J tovushlar


Sh-shovqinli, sirg‘aluvchi til oldi tovush. (2-rasm) bu tovushni talaffuz etayotganda lablar bir oz cho‘chchayadi, yuqori va pastki tishlar bir-biriga yaqinlashadi, til uchi muallaq holatda bo‘lib, salgina qisqaradi va yozilib tepe tishlarga tomon ko‘ratiladi. Pastki jag‘ esa jipslashadi. Til uchi va tishlar oralig‘idan sirg‘alib chiqqan havo to‘lqini SH tovushini vujudga keltiradi ( 2 rasm).

J-tovushini talaffuz etayotganda pastki tishlar qatori bir oz pastga tushiriladi, til uchi tanglay tomon ko‘tariladi, ovoz paychalari esa jipslashgan holatda bo‘lib yengil titraydi (3 rasm).

2-rasm




3- rasm



### Ch-tovushi

Ch-tovushi talaffuz etilayotganda lablar bir oz cho‘chchayadi, tilning oldingi qismi milkka tegadi, og‘iz bo‘shlig‘iga kelgan havo sirg‘alib chiqib ketadi. To‘la bo‘limgan ana shu portlash va havoning sirg‘alib chiqishi natijasida qorishiq t+shqch, d+jqch undoshlari hosil bo‘ladi. Ovoz paychalari jipslashib, havo oqimi kuchli bo‘ladi (4-rasm)

4- rasm



### Sigmatizm turlari

Sirg‘aluvchi va shovqinli tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar *sigmatizm*, sirg‘aluvchi tovushlarni shovqinli yoki boshqa tovushlarga almashtirilishi *parasigmatizm* deb yuritiladi.

Sigmatizmning quyidagi turlari mayjud:

1)*Tish aro sigmatizm*. Bunda sirg‘aluvchi va shovqinli tovushlarni talaffuz etishda tilning uchi yuqori va pastki tishlarning orasida bo‘ladi.

2)*Lab-tish sigmatizmi*. Sirg‘aluvchi va shovqinli tovushlar F va V tovushlariga o‘xshab talaffuz qilinadi. Bunda nutq a’zolari quyidagi holatda bo‘ladi: pastki lab yuqori tishlarga tomon ko‘tarilib, havo oqimi yo‘lini toraytiradi, tilning uchi esa yoyilib, yuqori milkka tegar-tegmas holatga keladi. Bunday artikulyatsion holatda F ya S, V va Z tovush elementlariga ega bo‘lgan tovush hosil bo‘lib, natijada noaniq, tushunarsiz, qulorra yoqimsiz tovush talaffuz etiladi.

3)*Til oldi sigmatizmi*. Sirg‘aluvchi tovushlar quyidagi holatda talaffuz etiladi. Tilning uchi yuqori va pastki tishlarga taqalib turadi va

havo oqimining tishlar orasidan o'tishiga to'sqinlik qiladi, natijada S, Z tovushlari o'rniga T, D tovushlari eshitiladi. Masalan, soat-toat, zina-dina. Bu nuqsonni parasigmatizm deb atasa ham bo'ladi, chunki bunda bir tovush ikkinchi tovush bilan almashinadi.

4) *Shovqinli sigmatizm*. Bunda tilning uchi tishlarga tegib turmasdan og'iz ichiga tortiladi, tilning orqa qismi esa ko'tariladi, natijada portlash o'rniga yumshoq SH, J tovushi eshitiladi. Masalan: soat-shoat, zanjir-janjir.

5) *Yon sigmatizm*. Sirg'aluvchi yoki shovqinli tovushlar ikki xil ohangda talaffuz etiladi: tilning uchi alveolalarga taqalib turadi, tilning qolgan qismi esa qirra bo'lib og'iz bo'shlig'ida yotadi va bir tomoni bilan orqa jag' tishlari tomon ko'tariladi, havo oqimi tilning yonidan o'tadi, natijada yoqimsiz tovush paydo bo'lib, havo oqimi yon tomondan chiqadi. Bu I tovushi talaffuziga o'xshaydi. Yon sigmatizm bir tomonli yoki ikki tomonli bo'lishi mumkin.

6) *Burun sigmatizmi*. Nutqning bunday nuqsonida sirg'aluvchi va shovqinli tovushlar talaffuzi paytida tilning orqa qismi yumshoq tanlay pastga tushishi natjasida havo oqimi burun orqali chiqadi va X tovushiga o'xhash, beo'xshov tovush paydo bo'ladi.

### Turli xil sigmatizmlarni bartaraf etishda logopedk ish

Sigmatizmlarni bartaraf etish uchun kamchilik xarakteriga qarab, turli metodlarni qo'llash mumkin.

1) Tish aro sigmatizmini bartaraf etishda logoped bolaga yuqori va pastki tishlarni bir-biriga yaqinlashtirib, tilning uchini pastki tishlar orqasiga qo'yib S tovushini talaffuz etishni buyuradi va S tovushi aniq eshitilmasa unga yordam beradi. Bunda logoped zond yoki gugurt cho'pi bilan tilning uchini pastki tishlar orqasiga bosib turib, S tovushini ayttirib ko'radi. Shunda S tovushi aniq hosil bo'ladi. Keyinchalik s tovushi unli tovushlarga qo'shib talaffuz etiladi.

S tovushi aniq, to'g'ri hosil bo'lgandan so'ng Z tovushini talaffuz etishga o'tiladi. Bunda S tovushiga ovoz qo'shib talaffuz etilsa Z tovushi hosil bo'ladi.

2) Lab va tish sigmatizmini bartaraf etishda logoped bolaga (S tovushining talaffuzida) lablarni yuqori va pastki tomonga (bunda milklar ko'rinishi kerak) yo'naltirishngi taklif etadi. Agar bola bu

vazifani bajara olmasa, logoped yordam beradi. Buning uchun u bolaning pastki labini barmog'i bilan pastga tortadi va iljayishni buyurib turib, S tovushini talaffuz qildiradi. So'ngra hosil qilingan S tovushi ochiq va yopiq bo'g'inlarda mustahkamlanadi. Keyinchalik esa bu tovush mexanik suratda talaffuz etiladigan bo'ladi.

3) Til oldi sigmatizmini bartaraf qilishda logoped ikki usuldan foydalanishi mumkin:

a) havo oqimini yuqori va pastki tishlar orasidan chiqarish; bunda logopedik maxsus zond yoki gugurt cho'pi yordamida tilning uchini pastki tishning orqasida yengilgina bosib turiladi va havo chiqariladi;

b) tilning uchini keng yoyib yuqori va pastki tishlar orsiga olish va havo oqimini chiqarish. Bunda havo oqimi tilning uchiga tegib s tovushiga o'xhash «shovqinli» tovush hosil bo'ladi. So'ngra logoped maxsus logopedik zond bilan tilning uchini yengilgina bosib, pastki tishning orqasiga o'tkazadi va bolaga havo oqimini chiqarishni buyuradi, shunda S tovushi aniq hosil bo'ladi. Tovush hosil qilinanch, u avval bo'g'inlarda, so'ng so'zlarda, she'rlarda mustahkamlanadi.

4) Shovqinli sigmatizmni bartaraf etish uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan til oldi sigmatizmini bartaraf etishning «b» punktidagi usuldan foydalanish mumkin.

5) Yon sigmatizmni bartaraf etish uchun esa bir necha usullar tavsuya etiladi:

a) logoped oyna oldida taqlid qilish usuli bilan bolaga to'g'ri tovush talaffuzini o'rgatadi. Bunda asosan taqlid qilish usulidan foydalilanadi;

b) logoped mexanik usulda foydalangan holda to'g'ri tovush talaffuzini hosil qiladi. Buning uchun logoped maxsus zond yoki gugurt cho'pi yordamida tilning oldingi qismini pastga bosib turib, havo oqimini chiqarishni buyuradi, shunda S tovushi hosil bo'ladi;

v) tovushning to'g'ri artikulyatsiyasini hosil qilish uchun tish aro sigmatizm hosil qilinadi. Buning uchun havo oqimini til o'rtasidagi ariqchadan chiqarishga urinib ko'rilib, shunda S tovushiga o'xhash tovush hosil bo'ladi. So'ng til uchi pastki tishlar orqasiga fushiriladi, shunda aniq S tovushi hosil bo'ladi. Hosil qilingan tovush nutqda mustahkamlangach, so'ng bo'g'inlarda, so'zlarda, she'rlarda mustahkamlanadi.

6)Burun sigmatizmini bartaraf qilishda havo oqimi og‘iz bo‘shlig‘idan o‘tkaziladi. Buning uchun turli o‘yin mashqlaridan foydalaniladi. Masalan, burundan nafas olib, og‘izdan chiqarish; og‘iz bilan nafas olib, nafas chiqarishda yonib turgan shamni puflab o‘chirish, paxta bo‘lakchalariga qarab puflash, qog‘oz parchalariga puflash, qog‘oz parchalariga puflash. Havo oqimini og‘iz bo‘shlig‘idan chiqarishga erishilgandan so‘ng yuqorida qayd etilgan usullar yordamida S tovushi hosil qilinadi.

### **Shovqinli tovushlarning hosil qilinishda logopedik ish**

Sirg‘aluvchi tovushlarda bo‘lgan kamchiliklar shovqinli (sh, j, ch) tovushlarda ham uchraydi. Bundan tashqari, shovqinli tovushlar sirg‘aluvchi tovushlar bilan almashtiriladi. Masalan, SH tovushi S tovushi bilan, J tovushi Z tovushi bilan almashtirilishi mumkin. Bunday almashtirish *sirg‘aluvchi sigmatizm* deb nomlanadi. Shovqinli tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar quyidagi usullar yordamida bartaraf etiladi.

*Sh* tovushini hosil qilish uchun taqlid usulidan foydalanish mumkin. Bu usul natija bermasa, mexanik usuldan foydalaniladi. Bunda bolaga s tovushini ayttirib, shu vaqtning o‘zida maxsus zond yordamida til bir oz yuqoriga ko‘tarilib, orqaga bir oz itariladi. Shu vaqtida s tovushi o‘rniga sh tovushi, z tovushi o‘rniga j tovushi hosil bo‘ladi. Logoped sekin-asta bolaga tilni shu holda ushlab turishga o‘rgatadi. Keyinchalik logoped aniq hosil qilingan sh va j tovushlarini bo‘g‘inlarda, so‘zlarda, jumlalarda mustahkamlaydi. Bularidan tashqari sh, j va sirg‘aluvchi s, z tovushlarini bir-biridan farqlash uchun og‘zaki va yozma mashqlar olib boradi.

*J* tovushi talaffuzi j tovushi talaffuzidan farq qiladi. Shuning uchun j tovushi talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish o‘ziga xos xususiyatlardan iborat bo‘lib, quyidagi usul yordamida bartaraf etiladi. Logoped bolaga ch tovushni aniq talaffuz etishni taklif etadi va ch tovushini talaffuz etish vaqtida ovoz qo‘sib talaffuz etish buyuriladi, bunda ch tovushi o‘rniga j tovushi hosil bo‘ladi. Hosil qilingan j tovushi avval bo‘g‘inlarda, so‘ng so‘zlarda, gaplarda, she’rlarda mustahkamlanadi(1- rasm).

Qorishiq ch tovushini hosil qilish uchun logoped bolaga j tovush-

ini talaffuz etishni taklif qiladi. Bola j-j-j-tovushlarini bir necha marta talaffuz etish vaqtida logoped maxsus zond yordamida til uchini orqaga bir oz itaradi, shunda j tovushi o‘rniga qorishiq ch tovushi hosil bo‘ladi. CH tovushini bola mustaqil talaffuz qilgach, ch tovushi avval yopiq bo‘g‘inlarda (ach-och-uch-ich-uch), so‘ng ochiq bo‘qinlarda (cha-cho-chu-chi) mustahkamlanadi.

CH tovushi bo‘g‘inlarda mustahkamlangach, uni so‘zlarda, jum'lalarda, she’r va hikochlarda mustahkamlash tavsiya etiladi. Bularidan tashqari s va s, s va sh tovushlarini bir-biridan farqlash bo‘yicha og‘zaki va yozma mashqlar o‘tkaziladi.

Sirg‘aluvchi va shovqinli tovushlarni bir-biridan farqlash bo‘yicha olib boriladigan ishlar taxminan quyidagi izchillikda olib borilishi tavsiya etiladi: s-z, sh-j, s-sh, z-j, s-ch.

### **Rotatsizm va uni bartaraf etishda logopedik ish**

R tovushini nutqda qo‘llay olmaslik yoki noto‘g‘ri talaffuz etilishi *rotatsizm*, r tovushini nutqda boshqa tovushlarga almashtirilishi parorotatsizm deb ataladi.

*R* tovushining artikulyatsiyatsion holati quyidagicha bo‘ladi (5-rasm). Lab undosh tovushdan so‘ng keladigan unli tovushlar holatini oladi, til uchi alveolalar tomon ko‘tariladi, buning natijasida bir oz chuqurcha paydo bo‘ladi, shu chuqurchadan chiqqan havo oqimi til uchini titratib o‘tadi va titroq tovush hosil bo‘ladi. Ovoz psychalari jipslashib titraydi va chiqayotgan havo oqimi kuchli bo‘ladi.

Rotatsizmnning quyidagi turlari mavjud:

1.Velyar rotatsizm (grekcha velum-yumshoq tanglayning pastki chetiga yaqinlashadi va u yerda oraliq (tirqish) hosil bo‘ladi. Shu oraliqdan o‘tayotgan havo oqimi yumshoq tanglayda tartibsiz titrash (vibratsiya) hosil qiladi. Natijada ovozga qo‘silib shovqin chiqadi<sup>1</sup>.

“R” tovushining artikulyatsion ko‘rinishdagi holati ( 5- rasm).

5-rasm



2. Uvilyar rotatsizmada (grekcha uvula-tilcha), til uchi tebranishi o‘rniga, faqat tilcha tebranadi.

3. Yon rotatsizmada, til uchi tebranishi o‘rniga, tilning yon tomoni tebranadi, natijada noaniq R tovushi paydo bo‘ladi.

4. Kucherskiy ratatsizmada, til uchi tebranmay, lablar jipslashib tebranadi.

Amaliyotda pararotatsizmni quyidagi turlari uchraydi, ya’ni r tovushi quyidagicha tovushlar bilan almashtiriladi r®

### Kappatsizmni bartaraf etishda logopedik ish

K tovushini hosil qilishda bolaga ta-ta-ta bo‘g‘inini aytish taklif etiladi, shu vaqtning o‘zida maxsus zond yordamida tilning uchi bosilib, orqaga bir oz itariladi. Bunda til orqa tomon surilgan sari ka-ka-ka bo‘g‘ini eshitiladi. K tovushi artikulyatsiyasi aniq hosil bo‘lgandan so‘ng mexanik vositalar yordamisiz k tovushini talaffuz etish tavsiya qilinadi va u bo‘g‘in, so‘z, gaplar, she’rlarni ayttirish yordamida mustahkamlanib boriladi ( 3-rasm).

Q tovushini hosil qilishda asosan taqlid qilish usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Buning uchun bola qarg‘anining qag‘illashiga (qa-qa-qa), tomoqning qattiq qirishga taqlid qilishi lozim. Bu jarayonni logoped avval bolaga ko‘rsatib beradi, so‘ng bola logopedga taqlid qilib, uni qaytaradi. Bu usul orgali hosil qilingan q tovushi avval bo‘g‘inlarda, so‘ng so‘zlarda, gaplarda, she’rlarda mustahkamlanadi( 4 rasm).

Parakappatsizmda k, q tovushlari t va x tovushlariga almashtirilishini nazarda tutilib, yuqorida bayon etilganlardan tashqari x va t, x va k tovushlari bir-biridan farqlash bo‘yicha og‘zaki va yozma mashqlar o‘tkaziladi.

3-rasm



4-rasm




### Xitizmni bartaraf etishda logopedik ish

“X” tovushini hosil qilishda bolaga sa-sa-sa bo‘g‘inini aytish taklif etiladi, shu vaqtning o‘zida maxsus zond yordamida tilning uchi bosilib, orqaga bir oz itariladi. Bunda avvalo sya, so‘ngra til bir oz ichkariroq itarilganda, xa bo‘g‘ini eshitiladi. X tovushining artikulyatsiyasi aniq hosil bo‘lgandan so‘ng mexanik vositalar yordamisiz x tovushini talaffuz etish tavsiya qilinadi va u bo‘g‘in, so‘z, gaplarda va she’rlarda mustahkamlanadi (5- rasm).

Paraxitizmda x tovushi t va k tovushlariga almashtirilishi nazarda tutilib, yuqorida bayon etilganlardan tashqari x va t, x va k tovushlari bir-biridan farqlash bo‘yicha og‘zaki va yozma mashqlar o‘tkaziladi.


## 5- rasm



### Gammatsizmni bartaraf etishda logopedik ish

**G** tovushini hosil qilishda bolaga da-da-da bo‘g‘inini aytish taklif etiladi, shu vaqtning o‘zida maxsus zond yordamida tilning uchi bosilib, orqaga bir oz itariladi. **G** tovushi artikulyatsiyasi aniq hosil bo‘lgandan so‘ng mexanik vositalar yordamisiz **g** tovushini talaffuz etish tavsiya qilinadi va u bo‘g‘inlarda, so‘zlarda, gaplarda, she’rlarda mustahkamlanadi( 6-rasm).


## 6-rasm



**g‘** tovushini hosil qilishda avval taqlid qilish usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda bola «tomoq chayish», «mashinaning g‘irillashi» (**g‘-g‘-g‘**) va **g‘**ozlarning «**g‘ag‘illashiga**» taqlid qiladi. Bu jarayon avval logoped tomonidan ko‘rsatilib beriladi, so‘ng bola logopedga taqlid qilib, uni qaytaradi. Agarda taqlid qilish usuli orqali **g‘** tovushi hosil bo‘lmasa, unda **g‘** tovushi quyidagi usul bilan ho-

sil qilish tavsiya etiladi. Logoped boladan **x** tovushini aniq talaffuz etishni so‘raydi (**x** tovushi bola nutqida bo‘lsa) va **x** tovushini talaffuz qilish vaqtida ovoz qo‘shib talaffuz qilish buyuriladi, bunda **x** tovushi o‘rniga **g‘** tovushi hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan **g‘** tovushi bo‘g‘inlarda, so‘zlarda, gaplarda va she’rlarda mustahkamlanadi( 7-rasm).

## 7-rasm



Paragammatsizmda **g** tovushi **d** va **t** tovushlariga, **g‘** tovushi **q** tovushlariga almashtirilishini nazarda tutib, yuqorida bayon etilganlar dan tashqari **g** va **d**, **g** va **t**, **g‘** va **q** tovushlarini bir-biridan farqlash bo‘yicha og‘zaki va yozma mashqlar o‘tkaziladi.

### Savol va topshiriqlar:

1. Kappatsizmni bartaraf etishda olib boriladigan logopedik ish nimalardan iborat?
2. Xitizmni bartaraf etishda qanday korreksion logopedik ishlar tashkil qilinadi?
3. Gammatsizmda olib boriladigan logopedik ishning mohiyati nimadan iborat?

### Tayanch tushunchalar:

Kappatsizm – **K** tovushini nutqda yo‘qligi  
Xitizm – **X** tovushini nutqda yo‘qligi  
Gammatsizm – **G** tovushini nutqda yo‘qligi

## 6§. DISLALIYA NUTQ KAMCHILIGINI BARTARAF ETISH BO'YICHA REJA MATN TUZISH

**Reja:**

1. Bolani nutq xaritasi asosida tekshirish.
2. Nutq kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha reja matn tuzish ( S tovushini nutga qo'yish ).
3. Nutq kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha reja matn tuzish ( S tovushini nutqda mustahkamlash ).
4. Nutq kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha reja matn tuzish ( S va SH tovushlarin nutqda farqlash ).

Dislaliya nutq kamchiliginibar taraf etishda logoped tomonidan nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rgangandan so'ng, nutqida uchraydigan kamchiliklarni nutq xaritasiga qayd etib boriladi:

### NUTQ XARITASI

O'quvchi haqidagi umumiy ma'lumotlar:	
Familiyasi, ismi, otasining ismi	
Tug'ilgan sanasi	
Yashash manzili	
O'qish joyi, sinfi	
Logopediya shoxobchasiga qabul qilingan vaqt	
O'qituvchi va ota-onaning shikoyati	
Psixonevrolog xulosasi	
2. O'quvchining nutqiga umumiy tavsif:	
nutqning sur'ati va ravonligi	

	Ovoz										
3.	<b>Artikulyatsion apparatning anatomik tuzilishi va harakatchanligini tekshirish:</b>										
	lablar										
	til										
	jag'lar										
	tishlar										
	qattiq tanglay										
	yumshoq tanglay										
4.	<b>Tovushlar talaffuzini tekshirish:</b>										
	so'z boshida	<input checked="" type="checkbox"/>									
	so'z o'rtasida	<input checked="" type="checkbox"/>									
	so'z oxirida	<input checked="" type="checkbox"/>									
5.	<b>Fonematisk o'quvi, tovushlar differensiasiyasi:</b>										
	B-P	D-T	S-3	Z-J	S-SH	R-L	M-N	G-K	G-G'	K-Q	X-H
6.	<b>Murakkab bo'g'inli so'zlarni talaffuz qilish:</b>										
7.	<b>Umumiy motorika holatini tekshirish:</b>										
	harakat koordinatsiyasi										
	mayda qo'l muskullari harakati										
8.	<b>Lug'at boyligi:</b>										
	predmetlarni nomlash										
9.	<b>O'qish texnikasini egallash darajasi:</b>										
	harflab, bo'g'inlab, sidirg'asiga o'qish										
10.	<b>Duduqlanishning namoyon bo'lishi:</b>										
	sabablari										
	turi										
11.	<b>O'qituvchi-logopedning xulosasi:</b>										


20\_\_ yil «\_\_\_» O'qituvchi-logoped  
(imzo)

(F.I.O.)

Nutq xaritasiga barcha nutq kamchiliklarni logoped qayd etib borgach, bolaning nutqida uchraydigan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarga mashg'ulot uchun reja matn tuziladi.

### Nutq kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha reja matn tuzish

#### S tovushini nutqga qo'yish (postanovka)



#### "S" tovushini nutqga qo'yish (postanovka)

*Ta'limi maqsad:* S tovushini to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish.

*Tarbiyaviy maqsad:* Gavdani to'g'ri tutishga va diqqat bilan tlashsha o'rgatish.

*Korreksion maqsad:* Artikulyatsion nutq apparati harakatchanligini oshirish, fonematik idrokini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish.

*Jihozlar:* kuz fasli tasvirlangan rasm, "S" tovushiga oid rasmilar, logopedik zondlar, gugurt cho'pi, spirt, paxta, ovoz chiqaruvchi o'ynchoqlar hamda rahbatlantirish uchun yulduzchalar.

*Vaqt:* 15-20 daqiqa.

#### Tashkiliy qism

Salomlashish, bola diqqatini jamlash.

#### Artikulyatsion mashqlar

- Oynaga qarab to'g'ri o'tirib ol va men bajarga mashqni diqqat bilan kuzatib so'ng ortimdan takrorla.

#### Lab mashqlari:

Lablarni kulgi holatiga keltirish

Lablarni cho'chaytirish

#### Til mashqlari:

"Soatcha" mashqi

"Shirin murabbo" mashqi

"Futbol" mashqi

#### Nafas mashqlari:

Burundan anafas olib, burundan chiqarish, og'izdan nafas olib, burundan nafas chiqqarish.

Asosiy qism

#### S tovushini nutqga qo'yish

-Bugun sen bilan sayrga chiqamiz.

-Bolaga velosiped tasvirlangan rasm ko'rsatiladi va uni nomlab berish so'raladi.

-Sen bilan sayrga velosipedda hayvonot bog'iga boramiz. Kel bir galikda tasavvur qilib ko'raylik. Hayvonot bog'ida biz qanday hayvonlarni uchratamiz?

-Hayvonot bog'i senga yoqdimi?

-Hayvonot bog'idan qaytayotgan vaqtimizda birdan velosiped baloni yorilib ketdi.

-Boladan qanday ovoz chiqadi deb so'raladi. Ps- s- s- s- s- s-

-Yaxshiyamki biz o'zimiz bilan nasos olib olgan ekanmiz. Velosiped baloniga havo to'lib, biz uyimizga qaytib oldik.

-Bunugi sayr senga yoqdimi?

-Kel endi "S" tovushini talaffuzi aytib ko'ramiz. Lablarimiz kulgi holatida, tishlar bir biriga tegar tegmas, tilmiz uchi pastki tishlar orqasida, og'zimizdan chiqayotgan sovuq havo oqimi tilmizni yorib o'tadi.

Agar bola "S" tovushini taqlid usulida talaffuz qila olmasa, bunda logoped mehanik usuldan foydalilanadi.

#### Jismoniya daqiqa

-Kel birgalikda o'rtinmizdan turib, qo'llarmizni tepaga ko'taramiz, endi tushuramiz. Endi ikkila oyoqlarimiz bilan birgalikda ikki marta sakraymiz.

-Barakalla, endi joyimizga o'tirib olamiz.

#### Fonematik idrokni rivojlantirish.

Logoped bolaga bir qator tovushlar qatorini aytadi. Bola esa diqqat bilan tinglab shu tovushlar qatori orasidan "S" tovushini eshitsa bir marta qarsak chalishini so'raydi (logoped artikulyatsiyasi maxsus ekran bilan yopib qo'yiladi).

- SH, -Z, -S, -R, -CH, -S, -T, - S.

## Lug‘at ustida ishlash.

Logoped bolaga “S” tovushi ishtirok etgan rasmlarli kartochkalar ko‘rsatadi va ularni nomlab berishni so‘raydi. 6 – 7 ta rasm olinadi: so‘z boshida, bso‘z o‘rtasida, so‘z ozirida. Masalan, soat, asal, gilos.

## Mashg‘ulotni mustahkamlash.

-Qani aytichi bugun sen bilan qanday tovushni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgandik?

-S tovushini to‘g‘rimi?

-Sen bilan sayrga qayerga bordi?

-Yo‘limizda qanday voqeа sodir bo‘ldi?

-“S” tovushini talaffuz qlganimizda, lablarimiz qanday holatda bo‘lar ekan?

## Mashg‘ulotni yakunlash.

Bolani mashg‘ulotdagi ishtirokiga qarab baholanadi.

## Uyga vazifa:

Artikulyatsion mashqlarni takrorlash va “S” tovushini to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rganish.

## **“S” tovushini nutqda mustahkamlash (avtomatizatsiya)**

*Ta‘limiy maqsad:* “S” tovushini bo‘g‘in va so‘zlarda mustahkamlash.

*Tarbiviyl maqsad:* Gavdani to‘g‘ri tutushga hamda mashg‘ulotni diqqat bilan tinglashga o‘rgatish.

*Korreksion maqsad:* Artikulyatsion nutq apparatini harakatchanligi oshirish, fonematik idrokni rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish.

*Jihoz:* rasmi li kortochkalar, shiqildoq.

*Vaqt:* 15- 20 daqiqa

## Tashkiliy qism

Salomlashish bola diqqatini mashg‘ulotga qaratish

## Artikulyatsion mashqlar

### Lab mashqlari

Lablarni cho‘chaytirish.

Pastki lab bilan yuqori lablarni qoplash.

Lablarni kulgi holatiga keltirish.

### Til mashqlari

Tilni chap va o‘ng tomonga qaratish.

## Tilni tashqariga chiqarish

### Nafas mashqlari

Burundan nafas olib burundan chiqarish.

Burundan nafas olib og‘izdan chiqarish.

### Asosiy qism

“S” tovushini nutqda mustahkamlash.

-Qani eslab ko‘rchi o‘tgan mashg‘ulotda san bilan qaysi tovushni to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgangan edik?

-Barakalla, “S” tovushini talaffuz qilganimizda lablarimiz, tilimiz qanday holatda bo‘lar ekan?

-Kel birgalikda takrorlaymiz.

-Sen velosiped uchishni yoqtirasanmi?

-Kel birgilikda velosiped o‘ynini o‘ynaymiz.

-Velosiped baloni puchaysa qanday ovoz chiqaradi?

-Ps s s s s s

-To‘g‘ri barakalla.

-Hozir sen bilan “Zinacha” o‘ynini o‘ynaymiz. Sen meni diqqat bilan tinglab, ketimdan takrorlaysan.

-“S” tovushini ochiq va yopiq bo‘g‘inlarda mustahkamlanadi.

-Hozir men senga bir qator bo‘g‘in va so‘zlar aytaman sen esa takrorlaysan.

Sa sa sa savat	as as as asal
----------------	---------------

Sos so so soat	os os os osmon
----------------	----------------

Si si si sigir	us us us tovus
----------------	----------------

### Jismoniy daqiga

-Sen charchadingmi? Kel birgalikda o‘yin o‘ynaymiz.

Hoy olma, olma, olma

Meni ovoza qilma

Bir oz egilib bo‘y cho‘zay

Olmalarindan uzay.

### Fonematik idrokni rivojlantirish

-Endi sen bilan yana bir o‘yin o‘ynaymiz. Men hozir bo‘g‘inlarni aytaman, sen shu bo‘g‘inilar orasidan “S” tovushi shitirok etgan bo‘g‘inni eshitsang, shiqildoqni chalasan (logoped artikulyatsiyani maxsus ekran bilan yopib qo‘yildi).

-TA, -DA, -SA, - RA, -SA, -SHA, -SA.

## Lug‘at ustida ishlash.

Bolaga bir qator rasmlar to‘plami beriladi va shu rasmlarni orasidan “S” tovushi ishtirok etgan rasmlarni aniqlab ajratish, mazkur rasmlarni nomlash, bo‘g‘inlarga ajratish, bo‘g‘in va so‘zdagi o‘rnini aniqlab berish so‘raladi.

### Mashg‘ulotni mustahkamlash.

-Bugungi mashg‘ulotimizda sen bilan qanday o‘yinlarni o‘ynadik?

-Kel sen bilan “S” tovushi ishtirok etgan bo‘g‘inlarni takrorlaymiz.

Sa sa sa savat	as as as asal
Sos so so soat	os os os osmon

-Barakalla.

### Uyga vazifa

Uyda 6 ta “S” tovushi ishtirok etgan so‘zlar topib kel.

### Mashg‘ulotni yakunlash

-Senga bugungi mashg‘ulot yoqdimi?

-Sen bugun mashg‘ulotda yaxshi ishtirok etding.

-Barakalla.

## S, va SH tovushlarni nutqda farqlash (differensiatsiya)

*Ta‘limiy maqsad:* “S” va “SH” tovushlarni nutqda farqlashga o‘rgatish.

*Tarbiviy maqsad:* Gavdani to‘g‘ri tutushga hamda mashg‘ulotni diqqat bilan tinglashga o‘rgatish.

*Korreksion maqsad:* Bolada analiz va sintez qobilyatlarni, fonematik idrokni rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish.

*Jihoz:* rasmlli kortochkalar, shiqildoq o‘yinchog‘i, “S” va “SH” harflar.

*Vaqt:* 15- 20 daqiqa

### Tashkiliy qism

Bola bilan mavzu va falsga qarab suhbat qurish.

### Artikulyatsion mashqlar:

#### Lab mashqlari

Lablarni cho‘chaytirish.

Pastki lab bilan yuqori lablarni qoplash.

Lablarni kulgi holatiga keltirish.

### Til mashqlari

Tilni chap va o‘ng tomonga qaratish.

Tilni tashqariga chiqarish

### Nafas mashqlari

Burundan nafas olib burundan chiqarish.

Burundan nafas olib og‘izdan chiqarish.

### “S” va “SH” tovushlarni nutqda farqlash

-Kel, sen bilan hozir “Nasos” o‘yini eslab olamiz?

-Nasos urganda qanday ovoz chiqaradi?

Bolaga talaffuz ettiriladi

“SH” tovushini artikulyatsiyasi o‘rgatiladi.

-SH tovushini talaffuz qilganimizda lablar bir oz cho‘chaygan, tishlarimiz bir biriga juda yaqin, tilimiz tepe tishlar tomon ko‘tarilgan bo‘ladi.

-Kel birgalikda “SH” tovushini talaffuz qilamiz.

-Endi ikkala tovushni birgalikda talaffuz qilamiz.

S, SH, S, SH. SH, S, SH, S.

“SH” va “S” tovushlarni so‘zlarda farqlanishni tushuntirib talaffuz ettiriladi. Masalan, kasb – kashf, tush – tus, shim – sim, soli – sholi.

### Jismoniy daqiqa

-Kel birgalikda qo‘llarimizni tepaga ko‘tarimiz, shamol bo‘lib esamiz.

SH, SH, SH, SH, SH.

### Fonematik idrokni rivojlantirish.

-Hozir men senga bir qator rasmlarni ko‘rsataman, sen ularni nomlaysan. S tovushi ishtirok etgan rasmlarni “S” tovushi tomonga “SH” tovushi ishtirok etgan rasmlarni “SH” tovushi tomonga qo‘ysan.

### Tahlil qilish

-Hozir senga bir qator rasmlarni ko‘rsataman. “S” tovushi ishtirok etgan va “SH” tovushi ishtirok etgan so‘zlarni qayerda “S” va “SH” tovushlarni kelayotganini aytasan (Bekinmachoq o‘yini).

### Mashg‘ulotni yakunlash.

Bolaning javobiga qarab baholanadi rag‘batlantiriladi.

### Uyga vazifa.

“S” va “SH” tovushi ish ishtirok etgan ismlarni topib kel.

## **Savol va topshiriqlar:**

1. Nutq xaritasi nima?
2. Dislaliya nutq kamchiliginibartaraf etishda tovushlarni nutqga qo'yishda logopedik ish?
3. Dislaliya nutq kamchiliginibartaraf etishda tovushlarni nutqda mustahkamlashda logopedik ish?
4. Dislaliya nutq kamchiliginibartaraf etishda tovushlarni nutqda farqlashda logopedik ish?

### **Tayanch tushunchalar:**

Postanovka - tovushlarni nutqga qo'yish.

Avtomatizatsiya - tovushlarni nutqda mustahkamlash.

Defferensiatsiya - tovushlarni nutqda farqlash.

## **II BOB. DIZARTRIYA**

### **1§. Dizartriya nutq kamchiligining ilmiy-nazariy asoslari**

#### **Reja:**

1. Dizartriya nutq kamchiliginini o'rganishda rus olimlarning fikri.
2. Dizartriya nutq kamchiliginini o'rganishda chet - el olimlarning fikri.

Dizartriya – nutq apparati innervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir.

Dizartriya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis-bo'lak, arthon-biriktirish degan ma'noni bildiradi.

Dizartriya-bu markaziy xarakterdagи organik nutq buzilishi hisoblanadi.

Dizartriya nutq kamchiligidagi nutq a'zolarining (yumshoq tanglay, til, lablar) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi, shu bilan birgalikda ovoz, nafas buzilishlari hamda nutqning sur'ati, ritmi va ifodaliligidagi o'zgarishlar kuzatiladi.

Dizartriya nutq kamchiliginining og'ir darajasida nutq butunlay tus-hunarsiz bo'ladi. Bunday hol anartriya deb ataladi. Anartriya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, a-yo'q, arthon-biriktirish degan ma'noni bildiradi.

Dizartriya nutq kamchiligidagi miyaning turli joylarida jarohatlanishlarni aniqlash mumkin. Masalan, miya yarim sharining chap va o'ng tomonida, yetti tuxumsimon markazdan o'tuvchi sistemada, asab tugunchalari qobig'ida, diensefal doirada, to'rt tepaligida, ko'prik, cho'zinchoq va orqa miyada kuzatilishi mumkin. Ammoliklinikada ishlovchi tadqiqotchilar bu amsalaga kam e'tibor beradilar. Nozologik va topik tomonidan dizartriyaning begilash diagnostikasi odatda nevrologik alomatlarni barcha shart sharoitlarini inobatga olgan holda olib boriladi.

Nutq patologiyasining eng dastlabki tasnifiida artikulyatsiyani har qanday buzilishi alohida guruhlarga ajratilgan va «dizartriya» termini bilan belgilangan edi. 1888 yili Gowers nutqining bunday dizartriya nutq kamchiligi buzilishini serebral va bulbar shakllariga ajratdi. Keyinchalik bir necha marotaba dizartriyanı neyroanatomik turkum-larga bo‘lish uchun harakatlar qilindi. Masalan Froeschels tasnifi tuzilib, u dizartriyanı to‘rtta shaklga ajratdi: piramidalı, ekstrapiramidalı, peshona-pontionli va serebellyar.

Biroq muammoning kam o‘rganilganligi sababli dizartriyanı tasniflashda neyroanatomik tamoyilga amal qilish doimo saqlanmadı. Brain(1948) dizartriyanı koordinator va miopatik shakllarini ajratdi.

Dizartriya nutq kamchiliginin neyroanatomik tamoyiliga amal qilgan holdagi eng mukammal tasnif Peucher tomonidan ishlab chiqilgan, u dizartriyanı quyidagi shakllarini ko‘rsatadi.

- po‘stloqli;
- po‘stloqosti xoréya, atetoz, rangsiz sharning shikastlanishi, dumli tana boshchasining shikastlanishi, postensefalistik parkinsonizm, Parkinson kasalligidagi;
- pedenkulyar;
- supranuklear psevdo bulbar;
- bulbar nuklear;
- serebellyar;
- dierisefal;
- mezeyensefal;
- miya nervlari shikastlanishi bilan bog‘liq periferik dizartriya;
- chuqur sezuvchanlikning buzilishi bilan bog‘liq dizartriya;
- miyaning aralash shikastlanishlaridagi toksikoz, postkontuzion xolatlar dizartriya;
- epilepsiya paytidagi dizartriya;
- miasteniya paytidagi dizartriya;
- po‘stloq osti ekspressiv afaziyadagi dizartriya.

Muallilifning dizartriyaga ushbu tasnifini mukammal deb bo‘lmaydi. Chunki muallif tomonidan sanab o‘tilgan shakllarining hammasi artikulyatsiya buzilishlariga xos emas. Ularning ba’zilari ovoz, nafas, nutqning prosodik tomonining buzilishlari bilan bog‘liq. Tor ma’noda bu nutq buzilishlarini disfoniya, dispnevmiya, disprozodiya deb nomlash mumkin. Biroq klinika oid adabiyotlarda

kam ishlatiladi, shuning uchun shifokorlar umumlashtirib aniq bo‘imasada «dizartriya» terminidan foydalanadilar<sup>1</sup>.

Hazard-hugat «dizartriya» tushunchasi mazmunini yanada qisqartirdi ya’ni u dizartriyaga piramidalı, ekstrapiramidalı yoki serebellyar xarakterdagı umumiylar motorikaning buzilishi bilan bog‘liq artikulyatsiya nuqsonlarini kiritdi.

MDH mamlakatlarda ham dizartriya nutq kamchiligi muammosi kam o‘rganildi. M.S. Margulis dizartriya nutq kamchiligiga barcha nutqiy harakat buzilishlarini kiritadi. Bugungi kunda ning ishlari muhim o‘rin tutadi. Chunki u birinchi bo‘lib, M.S. Margulisning ishlari muhim o‘rin tutadi. Chunki u birinchi bo‘lib, dizartriyani motor afaziyadan aniq ajratib o‘rgandi va uning bulbar hamda serebral shakllarini ajratib berdi.

L.B. Litvak dizartriya nutq buzilishlarini lokal-diagnostik ahamiyati-ga o‘z e’tiborini qaratdi. Dizartriya deganda muallif faqat artikulyatsiya buzilishlarini tushundi, ammo o‘z fikriga qarshi ular qatoriga nutqning temp, ritm, ravonligining buzilishi kabi turli xil nuqsonlarni kiritdi.

Dizartriya nutq nuqsoni muammosiga bo‘lgan qiziqishning uyg‘onishi XX asr o‘rtalarida sezildi, biroq 1982 yilda qina ilk bor dizartriya muammolariga bag‘ishlangan ilmiy konferensiya o‘tkazildi. (Berry, 1983). Aynan shu konferensiya materiallaridan foydalanib, dizartriya muammosi, uning klinik belgilari, shakllari bo‘yicha ilmiy ishlar paydo bo‘ldi. (Darley Aronsoh va Brown 1969, 1975; Aronsoh 1981).

G‘arbda dizartriya muammolari bo‘yicha izlanishlar, ilmiy ishlarning ko‘payishi, umuman dizartriya nutq kamchiligi nutqni fonetik tomonidan keng o‘rganish, keyinchalik esa bemorlarga maxsus tibbiy-pedagogik yordam berish usullarini ishlab chiqish mavzulariga bag‘ishlangan ko‘pgina ilmiy ishlar qilindi (Rose, Espir, 1970; Netsell, 1973; Kent, Netsell, 1975; Rosenbek, Lapointe, 1978; Darby, 1981; Jorkstone, Beukelman, 1981; Berry, 1983 va boshqalar).

Dizartriya nutq nuqsoni tabiatini o‘rganish logopediya amaliyoti-da o‘z aksini topdi. O.V. Pravdina darsliklarida dizartriya tushunchasi nevrologik tomonidan yondoshib o‘rganildi. I.I. Panchenko ishlarida serebral falaj bilan kasallangan bolalarda dizartriyaning patogenizi, o‘ziga xos klinik belgilarining namoyon bo‘lishi, shu bilan birga pa-

<sup>1</sup> M.Y.Ayupova “Logopediya” darsligi. Toshkent 2007 y, 146b.

togenitik tomonidan asoslangan logopedik ish metodikasini yaratishga harakat qilganini ko'rishimiz mumkin.

R.A. Belova-David, M. Palmer, X.Rif harakat buzilishlari orasiда, tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etish uchun zarur bo‘lgan til, lablarning aniq holatini aytib o‘tdilar.

Bunday nutq kamchiliklarining tabiatini to‘liq ochib berilmaganligi sababli, ularni turli xil terminlar bilan nomlash taklif etiladi: artikulyator dispraksiya (M. Morley, 1957), markaziy, organik yoki murakkab dislaliya (M. Zeyeman, 1961; L.V. Melexova, 1967). M. Morley va X.Rif artikulyatsion harakatlarning buzilishi va buning natijasida talaffuz kamchiliklarining kelib chiqishini motor alaliyadan farqli apraktik dizartriya deb nrmlashni taklif etdilar.

Bolalar cerebral falajida dizartriyanı to‘liq va aniq tasnifini M.B. Eydinova va E.N. Pravdinalar taklif etadilar. Ularning fikriga dizartriya bolalar cerebral falaji bilan kasallangan bolalarning 65-85%ida kuzatiladi. Bolalar cerebral falajining og‘ir shaklida bola umuman harakatsizlanib qoladi va bunday bolalarning deyarli hammasida dizartriya (anartriya) kuzatiladi (E.M. Mastukova, 1971).

Dizartriya nutq nuqsonini diagnostik o‘rganish dizartriya muammosini rivojlanishida muhim bosqich bo‘ldi (L.B. Litvak, 1959, E.N. Vinarskaya 1973). E.N. Vinarskaya tomonidan birinchi marta bosh miyasi jarohatlangan katta yoshdagisi kishilarda dizartriya kompleks neyrolingvistik tomonidan o‘rganildi.

Bugungi kunda bolalarda dizartriyanı namoyon bo‘lishi klinik, neyrolingvistik, psixolo-pedagogik yo‘nalishlarda o‘rganilmoqda.

#### Savol va topshiriqlar:

1. Dizartriya qanday nutq kamchiligi?
2. Dizartriya nutq kamchiligi bo‘yicha qaysi rus olimlar o‘rgangan?
3. Dizartriya nutq kamchiligini o‘rganishda qaysi chet el olimlalari ish olib borgan?

#### Tayanch tushunchalar:

Dizartriya termini grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, dis-bo‘lak, arthon-biriktirish degan ma’noni bildiradi.

Anartriya termini grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, a-yo‘q, arthon-biriktirish degan ma’noni bildiradi.

## 2§. DIZARTRIYA TASNIFI VA UNING SHAKLLARI

### Reja:

1. Dizartriya tasnifi.
2. Dizartriya va uning shakllari.

Dizartriya nutq nuqsonini tasniflashda mutaxassislar turli xil yondoshadilar: jarohatlanish o‘chog‘iga qarab, nevrologik simptomning ustunligi yoki neyrolingvistik qarashlar bo‘yicha E.N. Vinarskaya, K.N. Vittorf, K. Vovat, L.A. Danilova, M.Zeyeman, M.V.Ippolitova, S.S. Lyapidevskiy, E.M. Mastukova, I.I. Panchenko, K.A. Semyonova, M.B. Eydinova.

Ammo ko‘pchilik mutaxassislar dizartriyanı tasniflashda jarohatlanish o‘chog‘ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizartriyanı quyidagi turlarga ajratadilar: bulbar, psedobulbar, qobiqli dizartriya, qobiq osti va miyachali dizartriY.

Bulbar dizartriya. Uzunchoq miya-medullaoblongata - yana ikkinchi ancha eski nomga ham ega – bulbus cerebri – qaysiki miya o‘qining bir qismi piyoz boshchasi bo‘laklariga bulbus, piyoz boshchasi tashqi yuzasi bilan o‘xshashdir. Miyaning bulbar kismiga tegishli IX, X va XI, XII bosh –miya nervlarining pereferik o‘qlari, po‘stloq yoki yadroning shikastlanishi oqibatida yuzaga keluvchi simptokompleksning harakat buzilishlari bulbar falaj deb ataladi.

Periferik harakatlantiruvchi neyronlarning xujayralari erqa miyaning oldingi shoxlarida yoki miya o‘qining mos yadrolarida yotadi. Ularning aksonlari u yoki bu periferik xarakatlantiruvchi nervlarni shakllantiradi. Periferik harakatlantiruvchi neyronning uning istalgan satxidagi shikastlanishi periferik falaj g‘parezg‘ning klinik ko‘rinishini beradi. Bunda nerv impulslari mushaklarga kelmasligi, shuning uchun undagi almashinish jarayonlarining buzilishini hisobga olsak, mushaklar atrofiysi, tovushining pasayishining yuzaga kelishi sabablari ma’lum buladi. Muskullar mo‘rt, bo‘sh bo‘lib koladi, shuning uchun bu ko‘pincha atrofik falaj deb ataladi. Periferik harakatlantiruvchi neyronning shikastlanishi birlamchi reflektor yoqlarining uzulishiga sabab bo‘ladi. Bunda teri va pay reflekslari yo‘qolib, arefleksiya namoyon buladi. Periferik harakatlantiruvchi neyronlardagi patologik jarayon natijasida xam saqlanib kolgan

hatlanish o'chog'ini hisobga olish tamoyiliga amal qilib, dizartriyani quyidagi turlarga ajratadilar: bulbar, psedobulbar, qobiqli dizartriya, qobiq osti va miyachali dizartriY.

Bulbar dizartriya. Uzunchoq miya-medullaoblongata - yana ikkinchi ancha eski nomga ham ega – bulbus cerebri – qaysiki miya o'qining bir qismi piyoz boshchasi bo'laklariga bulbus, piyoz boshchasi tashqi yuzasi bilan o'xshashdir. Miyaning bulbar kismiga tegishli IX, X va XI, XII bosh –miya nervlarining pereferik o'qlari, po'stloq yoki yadroning shikastlanishi oqibatida yuzaga keluvchi simptokompleksning harakat buzilishlari bulbar falaj deb ataladi.

Periferik harakatlantiruvchi neyronlarning xujayralari erqa miyaning oldingi shoxlarida yoki miya o'qining mos yadrolarida yotadi. Ularning aksonlari u yoki bu periferik xarakatlantiruvchi nervlarni shakllantiradi. Periferik harakatlantiruvchi neyronning uning istalgan satxidagi shikastlanishi periferik falaj g'parezg'ning klinik ko'rinishini beradi. Bunda nerv impulslari mushaklarga kelmasligi, shuning uchun undagi almashinish jarayonlarining buzilishini hisobga olsak, mushaklar atrofiyasi, tovushining pasayishining yuzaga kelishi sabablari ma'lum buladi. Muskullar mo'rt, bo'sh bo'lib koladi, shuning uchun bu ko'pincha atrofik falaj deb ataladi. Periferik harakatlantiruvchi neyronning shikastlanishi birlamchi reflektor yoqlarining uzulishiga sabab bo'ladi. Bunda teri va pay reflekslari yo'qolib, arefleksiya namoyon buladi. Periferik harakatlantiruvchi neyronlardagi patologik jarayon natijasida xam saqlanib kolgan

qo'zg'aluvchanligi shu narsaga olib keladiki, atrofiyaga uchrayotgan muskullarda ba'zida alohida muskul to'plamlari va tolalarning teztez qisqarishi kuzatiladi.

Periferik paralichning ko'rsatilgan klinik ko'rinishlari atrofiya, atoniya va arefleksiya – bulbar falaj holatida IX, X, va XII bosh miya nervlari g'til-xiqildoq, adashgan va tilosti g'bilan innervatsiya qilinuvchi muskullarda, ya'ni yutkin, xiqildoq, tanglay, til muskullaritda kuzatiladi. Bu muskullarning funksional bo'shashgan falaji yutishning buzilishlari (disfagiya va afagiya)da yeyish va ichish paytidagi yo'talish bilan birga, ovoz buzilishlari (disfoniya va afoniya)da yoki bug'iq ovozda, «*yopishib ketgan*» va tushunarsiz nutqda namoyon buladi. Bunday belgilarga *bulbar dizartriya* deyiladi. Bu tushunchaga odatda pastki jag', yonoqlar, lablarning muskullarining bo'shashgan falaji sabab bo'luchchi tovush artikulyatsiyasi nuqsonlarini ham o'z ichiga oladi, ammo shuni aytish kerakki, bu muskullarni innervatsiya qilinuvchi yuz va uch tarmoqli nervlar bulbar nervlarga kirmaydi (yuz va uchtalik nervlarning yadrolari varolit ko'prigida joylashadi). Chaynov va mimika muskullarining bo'shashgan falaji dizartriya belgilaridan boshka chaynashning buzilishi, og'izni yopa olmaslik, gipo yoki amimiya kabi belgilarni ham yuzaga chiqaradi.

Uzunchoq miyaning bir tomonlama (o'ng yoki chap bo'limining farqi yo'q) shikastlanishlari yoki shu yerdan chiquvchi bulbar nervlar IX, X, XI, XIIning shikastlanishlari ikki tomonlama shikastlanishlarga nisbatan uncha og'ir bo'limgan bulbar dizartriya belgilarining rivojlanishiga olib keladi.

Kelib chiqishi yadroli bo'lgan bulbar dizartriya bilan kasallangan bemorlarni nevrologik kuzatishlarda bushashgan bulbar falajlardan tashqari tananing qarama-qarshi tomonida harakatlanish va sezishning buzilishlari, shuningdek, harakatlangan tarafda ataksiya belgilarining paydo bo'lishi aniklangan Masalan, Djekson, Avellis, Vallenberg, Shmedt sindromlarig'.

Litvak L.B. (1959), Gutsmonn (1924) va boshqalar tomonidan biror bir bulbar nervning shikastlanishiga sabab bo'luchchi bulbar dizartriyaning ayrim shakllari haqida bayon etishgan. Yaqindagina til yutqin nervlarning difteriya toksinlari bilan shikastlanishiga, natijasida bemor nutqida ovozning yo'g'on tembrining yuzaga

kelishi ko'p uchrar edi. Yuz nervining virusli kasalliklar yoki o'rtal qulinqing yiringli-yallig'li jarohatlari paytidagi shikastlanishlari yanada ko'proq uchraydi, bu narsa yuzning bir tarafdagagi yonoq va lab muskullarining bo'shashgan falaji bilan bog'liq, bu esa nutqda lab tovushlari (B, M, P, V, F)ning noaniq artikulyatsiyasini rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Shikastlanishlar qanchalik miya o'qiga yaqin bo'lsa, bo'shashgan falajlar shunchalik keng tarqalgan bo'ladi. Uzunchoq miya moddasi o'zining shikastlanishlarida (Masalan, ensefelit, glial shish) jarangsiz bo'g'iq ovoz va so'zlarni «yutib» talaffuz qilish, tushunarsiz artikulyatsiya bilan bog'liq bulbar dizartriyaning birmuncha og'ir formalari namoyon qiladi. Bunday holatlarda bulbar dizartriyaning belgilari odatda psevdobulbar dizartriyaning belgilari bilan kombinatsiyalashgan bo'ladi.

Bulbar dizartriya bilan kasallangan bamorlarni kompleks nevrologik va fonetik tekshirish, ularning klinik namoyon bo'lish patogenizini yaxshiroq tushinishga imkon beradi. Bunday tekshirish miya qismlarining ayrim shikastlanishlarida bemorning nutq apparati faoliyatida ro'y beruvchi eng qiyin funksional samoregulyator o'z-o'zini boshqarishga qayta qurilishlarini tushinishiga yordam beradi.

Kasallarning neyrofonetik tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, alohida guruhi muskullarining bo'shashgan falaji tovushlarni talaffuz qilishdagi ayrim buzilishlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun bemor nutqidagi tovushlar boyligi va xilma-xilligini yo'qtadi. Atrofdagilar esa bemor talaffuz qilayotgan so'zlarning ma'nosini tushunmay qoladi.

Shunday qilib, ovoz boylamlari muskullarining parezi shu narsaga olib keladiki, ovoz boylamlari to'liq va bir xilda harakatlanmaydi, ularning tebranish esa kam, aritimik va yetarli amplitudaga ega bo'lmay koladi. Shuning uchun ovoz ohangdorligi yetarsiz, kuchsiz bo'lib qoladi. Jarangli undoshlarni talaffuz qilish paytida ovoz boylamlarining yetarli harakatlanmasligida xiqildoq agrodinamik sharoitlarga yaqinlashadi, bunda jarangsiz undoshlarni talaffuz qilishda jarangli undoshlar ham jarangsizlashib ketadi.

Bemor ovozini qayta chikarishga urinib tovush paylarining ayrim agonistik va alkergist muskullarini, shu jumladan yutqin va til ildizi muskullarini qo'zg'atadi. Bu shunga olib keladiki, unli tovushlar

o'zlariga xos bo'lmagan shovqinli tovushlarga aylanadi. Shuning uchun bemor nutqidagi unli va undosh tovushlarning farki sezilarsiz bo'lib qoladi, bu esa atrofdagilarning bemor nutqini tushinishlarini qiyinlashtirib yuboradi: Bayon etilgan artikulyatsiya o'zgarishining umumiyl tendensiyasi, tabiiy ravishda ovoz bog'lamlari, yumshoq tanglay, til va lab muskullaridagi paretik holatlarning taqsimlanishiga hamda u yoki bu tovushlar fizikaviy murakkabligiga ko'ra turlicha variantlarga ega bo'lishi mumkin. Barcha muskullarning bir tekis shikastlanishida eng differensiyalashgan til oldi tovushlari buziladi. Ammo til ildizi muskuli parezi ustunlik qilganda ko'proq til orqasi tovushlari artikulyatsiyasi buzilishining kuzatish mumkin.

Chunki qattiq talaffuz qilinadigan tovushlarga nisbatan yumshoq qilinadigan tovushlar artikulyatsiyasi til muskullarining kamroq differensiyalashgan innervatsiyasini talab etadi. Lekin bulbar dizartriyada ular qattiq talaffuz qilinadigan tovushlarga nisbatan kamroq va kechikib buziladi. Til usti muskullari shikastlangan holatda bir navbatda yumshoq tovushlar talaffuzi, artikulyatsiyasi va til o'rta talaffuzining buzilishi ro'y beradi.

Nutq apparati muskulining paralichi qanchalik diffuz va buzilish darajasi qanchalik chuqur bo'lsa nutq tovushlari shunchalik qo'pol buziladi. Bulbar dizartriyaning og'ir hollarida eng sodda burun tovushlarini talaffuz eta olish qobiliyati sustlashib ketadi.

Shunday qilib, nutq apparati sust parizi tufayli ro'y bergan turli klinik holatlardagi bulbar dizartriyaning to'g'ridan-to'g'ri birlamchi klinik simptomlari past, kuchsiz ovoz, portlovchi tovushlar artikulyatsiyasidagi buzilish, jarangli tovushlarda jaranglilik shaklining soddalashuvi, ovozning burunli, dimog'li tembri, nutq ohangdorligining buzilish kabilardan iborat.

Pseudobulbar dizartriya. Periferik harakatlantiruvchi neyronlarning yadrosining o'zi nerv impulslarini miya po'stlog'idan markaziy harakatlantiruvchi neyronlir, boshqacha kilib aytganda piramida yo'li bilan qabul qiladi.

Hozirga qadar markaziy harakatlantiruvchi neyronlarning tanasini oldingi ildizi markaziy egatlarning g'o'ng va chapg' po'stlog'ida ma'lum ketma-ketlikda joylashgan deb hisoblanib kelinar edi. Til, lab, yutqin, tomoq harakatini innervatsiya qilishga tegishli xujayralar oldingi markaziy egatlarning pastki qismida joylashgan. Barcha

piramida yo'li tolalari birga qo'shilib miya po'stlog'i osti yadrolari orasidan yarimsharning oq muddasi buylab miya stvolining badal qismiga o'tadi. Uzunchoq va orqa miya chegarasida piramida yo'li o'ng va chap tomonlari tolalarining katta qismi bir-birini kesib o'tadi va orqa miyaning periferik harakatlantiruvchi neyronlar xujayralirida tugaydi.

Agar periferik paralichda barcha ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar buzilsa, markaziy spastik paralichda avvalo ixtiyoriy harakatlar zararlanadi, ixtiyorsiz harakatlar esa saqlanishi mumkin. Piramida yo'llari tolalari kontakt yo'lini hosil qiladi. Shuning uchun ularning shikastlanishida asosan bitta ko'p hollarda ikkita qo'l-oyoq qismi harakati eng nozik va differensialangan qo'l barmoqlarining harakati buziladi.

Piramida yo'lining bosh miya nervlarining harakatlantiruvchi yadrolariga po'stloq impulslarini tashuvchi tomonlariga kartikonuklear yoki kartiko – bulbar deyiladi. Ularning shikastlanishida yuzaga keluvchi muskullar paralichi markaziy spastik paralich xususiyatiga ega. Sust bulbar paralichlardan farq qilib bu paralichlar pseudobulbar deyiladi.

Bosh miya nervining ko'pchilik harakatlantiruvchi yadrolarining ikki yoqlama po'stloq innervatsiyasi shuni aniqlab beradiki, kortikonuklear yo'llarning bir yoqlama zararlanishi chaynash, yutish, tovush hosil bo'lishida jiddiy funksional chetga chikishini keltirib chiqarmaydi. Bunday buzilish kortikonuklear yo'llarning ikki yoqlama shikastlanishda sodir buladi. Bunda til muskuli va yuzning pastki qismi muskulining markaziy spastik paralachi e'tiborga olinmaydi, bu muskullar miyaning qarama qarshi yarim sharidan keluvchi kirtikonukleor tolalar bilan innervatsiya kilinadi. Ammo pseudobulbar dizartriya simptomlari, shuningdek, chaynash, yutish va tovush hosil bo'lishining buzilishi odatda til osti va yuz nervlarining ikki yoqlama paralichi mavjudligi natijasida rivojlanadi.

Shuninig uchun bir yoqlama miya markazining zararlanishi pseudobulbar dizartriyani chakirishi mumkinmi degan savolga ko'pmualliflar yo'q deb javob beradilar.

Pseudobulbar paralichning klinik ko'rinishining muskullar tonusi va tilning faol harakatini tekshirib borish misolida kuzatishimiz mumkin. Agar bemorning og'zi ochib ko'rilmaga til muskullar atro-

fiyasi yo'qligini ko'rish mumkin. Til odatda orqaga tortilgan, o'rtal qismi ko'tarilgan va yutqingga kirish yo'lini berkitib turgan bo'ladi. Odatda bermorlar tilini og'iz bo'shlig'idan chiqara olmaydilar.

Tilni oldinga chiqarib qilinadigan harakatdan til uchini burunga qarata chiqarilgandagi harakat kuchliroq buziladi. Bemor talab qilinayotgan harakatni tilning oldingi qismini pastki lab va pastki jag' bilan passiv ko'tarishi hisobiga bajarish mumkin. Bunda til taranglashgan bo'lib, til uchi yuqoriga qayrilmaydi va yuqorigi lab terisiga tegmaydi, tez holdan toyish sodir bo'ladi va til sekin-asta yoki silkinishga o'xshab og'iz bo'shlig'iga «kirib ketadi».

Bermorlar uchun boshqa harakatlarga nisbatan til uchining iyakka qarata qiladigan pastga harakati bir muncha osonroqdir. Biroq tilning eng pastki uchi pastga egilmaydi va iyak terisiga tegmaydi. Tilning yon tomonga qiladigan harakati ayniqsa og'iz bo'shlig'idan chiqarilganda ham kichik amplituda bilan harakterlanadi, buning ustiga til butun massasi bo'ylab joylashadi, bunda taranglashgan til uchi yon tomonga harakat qilmaydi.

Tilning paretik muskullari va shu bilan bir qatorda boshka nutq apparatinining muskulli organlarining harakatining hajmi va kuchining bunday kamayishi albatta nutq jarayonida namoyon bo'ladi. Kasallar ovozi kuchsiz, eshitilmas bo'ladi va so'nib boradi. Bunda har doim birinchi bo'lib nozik va murakkab artikulyatsion tovushlar zarar ko'radi.

Karlep yutkin muskullarining spastik qisqarishlarida nutqiy paylarning chetlari bilan bir-biriga zich taqalishi va juda kuchli harakatlangan bo'lishiga, nutqiy bo'shliqdan yuqorida qo'shimcha shovqin paydo bo'lishiga e'tibor beradi. Shuning uchun tovush faqtina kuchsiz bo'lmay, bo'g'iq va xiralangan bo'ladi degan fikrga keladi.

Til-yutqin, adashgan va til osti nervlarining paralichi yoki markaziy parezlarida odamda asosiy rezoratorlar – yutqin va og'iz bo'shlig'inining rezonatorik hususiyatlari tez-qattiq o'zgarib qoladi. Bo'yin, yutqin, tomoq, yumshoq tanglay va til muskullarining spastik holati yutqinning rezonatorlik faoliyatiga yo'l bermaydi. Spastik taranglashgan til og'iz bo'shlig'iga – tomoqning orqa devoriga suruladi, bu esa ma'lum yomon holatlarga olib keladi. Birinchidan-til o'zagining orqaga joylashishi yutqin yo'lini bekitib, tomoq – yutqin

bo'limining hosil bo'lishiga imkoniyat bermaydi. Ikkinchidan – yutqinning ovoz to'lqinlarini toplash va og'iz bo'shlig'iga berish xossasini kamaytiradi va ovoz to'lqinlarini burindor modikulyatsiya-si uchun sharoit yaratiladi.

Manqalikning kelib chiqishida yutqinning yuqori qismidagi muskullar spastikiliga va yutqin – og'iz va yutqin – burun bo'shliqlari razmerining kattaliklari o'zgarishlarining ahamiyatini Cereene (1957) ko'rsatib o'tadi. Muallifning nuqtai nazaridan bu faktorlar havoning burun orqali to'g'ri chiqib ketishiga qaraganda ahamiyatliroqdir. Bu fikrni Berry va Eisensein (1956) xam tasdiqlashadi.

Psevdobulbar dizartriya shartli ravishda 3 darajaga ajratiladi: yengil, o'rtal, og'ir.

1. Psevdobulbar dizartriyaning yengil darajasi artikulyatsion nutq apparat harakatlarida qo'pol buzilishlarning yo'qligi bilan xarakterlanadi. Bunda asosiy artikulyatsion qiyinchilik til, lablarda harakatni tez va aniq bajara olmasliklarida seziladi. Bunday bolalarda talaffuz kamchiliklari asosida artikulyatsion harakatlarini aniq tez bajara olmasliklari natijasida yuzaga keladi. Nutq bir muncha sekinlashgan bo'ladi. Artikulyatsion jihatdan qiyin bo'lgan tovushlar: *j, sh, r, ch* talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Jarangli tovushlar talaffuzida ovoz yetarli darajada ishtirok etmaydi.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar fonematik rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dizartriyaning yengil darajasida ko'pchilik bolalar tovushlar analizida bir qator qiyinchilikka uchraydi. Bunday bolalar yozuvda o'ziga xos xatoliklarga yo'l qo'yadilar, ya'ni harflarni almashtirib yozadilar. Nutqning leksik gramatik tomonlarida kamchiliklar deyarli kuzatilmaydi.

2. Psevdobulbar dizartriyaning o'rtal og'ir darajada bolada yuz muskullar harakati yo'qolgan bo'ladi. Bu holat dizartriyaning o'rtal og'ir darajasi uchun xarakterlidir. Lab va til harakatlari chegaralangan bo'ladi. Bola lablari va tillarini kerakli holatlarda harakatlantira olmaydi.

Asosiy qiyinchiliklar bir harakatdan ikkinchi harakatga o'tishda yaqqol namoyon bo'ladi. Yumshoq tanglay kam harakatchan bo'ladi. Bolada so'lak oqishlari hamda chaynash va yutish aktlarida qiyinchiliklar kuzatiladi.

Artikulyatsion apparat funksiyasidagi kamchiliklar og'ir talaffuz

kamchiliklariga olib keladi. Bunday bolalar nutqi tushunarsiz bo‘ladi va kechikib rivojlanadi.

3. Psevdobulbar dizartriyaning og‘ir darajasi bu – anartriyadir. Bunda asosiy kamchilik muskullari og‘ir buzilishi va nutq appertaining to‘liq faoliyatsizligi bilan xarakterlanadi. Anartirk bolalar ma’nosiz, o‘zgacha ko‘rinishda bo‘ladi, pastki jag‘ tushgan, og‘izlari doimo ochiq holda bo‘ladi. Til og‘iz bo‘shlig‘ida harakatsiz yotadi, lab harakati o‘ta chegaralangan bo‘ladi. Chaynash va yutish aktlarida qiyinchilik kuzatiladi. Nutq to‘liq bo‘lmaydi.

*Qobiqli dizartriyada* bosh miya qobig‘ining o‘choqli jarohatlanishi bilan bog‘liq patogenezga ega nutqning motor kamchiliklar guruhi namoyon bo‘ladi.

Qobiqli dizartriyaning birinchi shakli bosh miyaning oldingi markaziy egatchasining pastki bo‘limining bir tomonlama yoki ko‘p xollarda ikki tomonlama jarohatlanishi bilan bog‘liq. Bunday xolatlarda artikulyatsiya -mushaklarining markaziy parezi yuzaga keladi. Tilning ayrim mushaklarini qobiqli parezi juda nozik alohida xarakatlarni xajmini cheklanishiga olib keladi. Qobiqli dizartriyaning bu shaklida til oldi tovushlari talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Qobiqli dizartriyani tashxisi uchun har bir aniq holatda til oldi tovushlarining zararlanishi va bu kamchiliklarning mexanizmlarini aniqlashga yordam beruvchi nozik neyrolingvistik tahlilni amalga oshirish zarur.

Qobiqli dizartriya ning birinchi shaklida til oldi tovushlaridan birinchi navbtda kakuminal undoshlar, ya’ni til uchini yuqori tishlar tomon ko‘tarib va bir oz egilgan xolda talaffuz qilinadigan undoshlar (sh, j, r) talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Dizartriyaning og‘ir ko‘rinishlarida bu tovushlar mutlaqo yo‘q bo‘lsa, yengil ko‘rinishida talaffuz jarayonida tilni o‘rtal qismi yumshoq tanglay tomon ko‘tariladigan tovushlar (s, z, t, d, n) bilan almashtiriladi.

Qobiqli dizartriyada apikal undoshlar, ya’ni talaffuz jarayonida til uchini yuqori tishlar va alveolalarga yaqinlashishi va tegib turishi bilan izohlanadigan tovushlar (l) talaffuzida ham qiyinchiliklar kuzatiladi.

Shuningdek, qobiqli dizartriyada undosh tovushlarni hosil bo‘lishi kamchiliklar kuzatilishi mumkin.

Qobiqli dizartriyada mushak tunusining ortishi xarakterli, ayniq-

sa, til uchi mushaklarining tonusini ortishi kuzatiladi. Bu esa nozik differensial harakatlarni cheklaydi.

Qobiqli dizartriyaning ikkinchi shakli kinestetik praksisni yetarli emasligi bilan bog‘liq. Bu esa bosh miyaning dominant yarim shari (odatda chap yarim sharlar) qobig‘ining pastki markaziy bo‘limlarini bir tomonlama jaro-hatlanishida kuzatiladi.

Bunday hollarda shovqinli va affrikat undosh tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Artikulyatsiya kamchiliklari turli xil va turg‘in emasligi bilan xarakterlanadi. Nutq jarayonida zarur artikulyatsiya holatini izlash nutq tempini sekinashtiradi va uyg‘unligida kamchiliklar keltirib chiqaradi.

Ayrim artikulyatsiya holatlarini his etish va talaffuz etishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Yuz gnozisini yetarli emasligi kuzatiladi.

Qobiqli dizartriyaning *uchinchishi shakli* dinamik kinestetik praksisning yetarli emasligi bilan bog‘liq. Bu bosh miyaning dominant yarim sharları qobi-g‘ining motor sohasining pastki bo‘limlarini jarohatlanishida kuzatiladi. Kinestetik praksis kamchiliklarda murakkab affrikat tovushlarining talaffuzi qiyinlashadi.

Topshiriq bo‘yicha harakatlarni ketma-ketlikda bajarishda qiyinchiliklar namoyon bo‘ladi.

Qobiqli dizartriyaning ikkinchi va uchinchi shakllarida tovushlarni mustahkamlashda qiyinchiliklar kuzatiladi.

#### *Qobiq osti dizartriyasi*

Qobiq osti dizartriya tizim tez, aniq va differensial harakatlarni bajarish imkonini beruvchi tayyorgarlik fonini avtomatik tarzda yaratadi. U mushaklarni tonusini, mushaklarni qisqarishini ketma-ketligi, kuchi va harakatchanligi boshqarishda alohida o‘rin tutadi va harakat aktlarini emotsiyal ifodali, avtomatik tarzda bajarishni ta’minlaydi.

Qobiq osti dizartriyada tovushlar talaffuzida kamchiliklar aniqlanadi:

- nutqiy mushaklarda mushak tonusini o‘zgarish;
- zo‘riqishni harakatlarni mavjudligi (giperkinezlar);
- nutqiy mushaklardan proprioseptiv afferentatsiya kamchiliklari;
- emotsiyal – harakat innervatsiya kamchiliklari;

Qobiq osti dizartriyada artikulyatsiya apparati mushaklarining harakatlari hajmi psevdobulbar dizartriyadan farqli ravishda yetar-

licha rivojlangan bo'ladi. Bola doimo o'zgaruvchi mushaklar tonusi va zo'riqishli harakatlar ta'sirida artikulyatsiya holatini xis etishga va bajarishga qiy-naladi. Shuning uchun, ekstrapiramidalı dizartriyada ko'p hollarda kinestetik dispraksiya kuzatiladi. Nutq mushaklarini tinch turgan holatida mushaklarni yengil tebranishi (dispgoniya) yoki uni ma'lum ma'noda pasayishi (gipotoniya) kuzatilishi mumkin. His-hayajonli, ta'sirchan holatlarda nutqiy bayonni amalga oshirishda urinishlarda mushaklar tonusini va zo'riqishli harakatlarni ortishi kuzatiladi. Til tugunga bo'lib, ildizi tomon tortiladi, juda tez zo'riqadi, tortiladi. Ovoz apparati va nafas mushaklari tonusining ortishi tovushni ixtiyoriy tarzda chiqishini yo'qotadi va bola bittagina tovushni ham talaffuz eta olmaydi. Mushak tonusining yaqqol namoyon bo'lgan kamchiliklarida nutq noaniq, tushunarsiz, ovoz manqalarining ega bo'lib, nutqning ma'no tomonida, uning intonatsiyail-ohangli tuzilishida, tempida kamchiliklar kuzatiladi. Nutqning emotsiyal beliglari namoyon bo'lmaydi, nutq monoton, bir xil bo'ladi. Ovozni «o'chib qolib», tushunarsiz ming'illashga o'tishini kuzatish mumkin.

Qobiq osti dizartriyaning xususiyatlari-bu tovush talaffuzini turg'un va bir xil ko'rinishdagi kamchiliklarini kuzatilmasligi, shuningdek, tovushlarni mustahkamlash jarayonini qiyinchilik bilan amalga oshirilishidir.

Qobiq osti dizartriyaya ayrim hollarda neyrosensor karlik kabi eshitish kamchiliklari bilan birgalikda keladi. Bunda avvalo, balanda tonlarni eshitish zararlanadi.

Miyachali dizartriyasi. Dizartriyaning bu shaklida miyacha va uning markaziy asab tizimining turli bo'limlari bilan aloqalari jarohatlanadi. Miyachali dizartriyada nutq sekinlashgan, jumla oxiriga kelib ovozni «o'chib qolishi» bilan tavsiflanadi. Til va lab mushaklarini tonusini pasayishi ular uchun xos bo'lib til ingichka holda og'iz bo'shilg'ida beharakat yotadi, harakatlar tempi sekinlashgan, artikulyatsiya holatlari his etish va amalga oshirishda qiyinchiliklar, yumshoq tanglay osilib turishi, chaynash harakatlarining sustligi, mimikaning cheklanganligi kuzatiladi. Til harakatlari noaniq bo'lib, unda giper yoki gipometriyalar (harakatlar hajmini ortishi va kamayishi) kuzatiladi. Nozik maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni bajarishda tilni bilinar-bilinmas titrashi, tovushlarni burunli talaffuz etish kuzatiladi.

1

Dizartriyaning yengil darajasi (stvortaya dizartiva). tovushlarni almashtirish, tovushlarning buzilishi, dixsiyani yomonligi, nutq ifodaliligining yaxshi rivojlanmaganligi asosiy simptomlari hisoblanadi.

Dizartriyaning diffensial diagnostikasi ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: dislaliyadan va alaliyadan farqlash.

Dislaliyadan farqlash 3 ta asosiy sindromlar (artikulyatsiya, ovoz va nafas kamchiliklari sindromlari) asosida amalga oshiriladi. Bunda tovush talaffuzi buzilishi, nutqning ma'no tomonidagi kamchiliklar, tovushlar talaffuzining o'ziga xos nuqsonliklarida tovushni nutqda mustahkamlashdagi qiyinchilik, shuningdek, nevrologik tekshiruv ma'lumotlari (markaziy asab tizimida organik jarohatlar belgilarini mavjudligi) va analiz xususiyatlari (perinatal nuqsonliklar, baqirish, ovoz reaksiyalari, emish, yutish, va chaynash kabi nutqgacha bo'lgan davr xususiyatlari alohida o'rin tutadi) katta ahamiyatga ega.

### Savol va topshiriqlar:

- 1.Dizartriyasi tasnifini yoritib bering.
- 2.Dizartriyasi va uning shakllari haqida ma'lumot bering.
- 3.Dizartriyaning diffensial diagnostikasi necha yo'nalishda amalga oshiriladi?

### Tayanch tushunchalar:

Bulbar dizartriyasi. Uzunchoq miya-medullaoblongata- yana ikkinchi ancha eski nomga ham ega – bulbus cerebri – miya o'qining bir qismi piyoz boshchasi bo'laklariga bulbus, piyoz boshchasi tashki yuzasi bilan o'xshash sanaladi.

Psevdobulbar dizartriyasi. Periferik harakatlantiruvchi neyronlarning yadrosining o'zi nerv impulslarini miya po'stlog'idan markaziy harakatlantiruvchi neyronlir, boshqacha kilib aytganda piramida yo'li bilan qabul qiladi.

Qobiqli dizartriyada bosh miya qobig'inining o'chogli jarohatlanishi bilan bog'liq patogenezga ega nutqning motor kamchiliklar guruhi namoyon bo'ladi.

Ekstrapiramidalı dizartriyasi (qobiq osti dizartriyasi). Ekstrapiramidalı tizim tez, aniq va differensial harakatlarni bajarish imkonini beruvchi

tayyorgarlik foniniavtomatik tarzda yaratadi

Miyachali dizartriya. Dizartrianing bu shaklida miyacha va uning markaziy asab tizimining turli bo'limlari bilan aloqalari jarohatlanadi.

Dizartrianing yengil darjasи (styortaya dizartiya). tovushlarni almashtirish, tovushlarning buzilishi, diksiyani yomonligi, nutq ifodaliligining yaxshi rivojlanmaganligi asosiy simptomlari hisoblanadi.

### 3§. DIZARTRIYA BELGILARI

**Reja:**

- 1.Dizartriya belgilari.
2. Dizartriya belgilarini o'rganishda rus olim A.R.Luriya ishi.

Dizartrianing asosiy belgilari bular nutqiy artikulyatsiya motorikasi va nutqiy nafas bilan bog'liq bo'lgan tovushlar talaffuzi va ovoz nuqsonlaridir. Dizartriyada dislaliyadan farqli ravishda ham unli, ham undosh tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi.

Dizartriyada buzilishlarning turlariga ko'ra barcha nuqsonlar quydagilarga bo'linadi:

- a) antropofonik (tovushni buzilib talaffuz kilish)
- b)fonologik (tovushni yo'qligi, tovushni almashtirish, differensi-allanmagan talaffuz).

Fonologik nuqsonlarda tovushlarni akustik va artikulyatsion xarakteristikasini noaniqligi kuzatiladi. Shuning uchun ko'p hollarda yozma nutqda ham kamchiliklar kuzatiladi.

Dizartrianing barcha shakllarida artikulyatsiya motorikasi buzilishlar kuzatilib, ular bir qator belgilarga ega. Bu xolning artikulyatsiya muskulaturasida quydagi shakllari farqlanadi: artikulyatsiya muskullarining spastikligi - til, lab, yuz va bo'yin muskullari tonusining doimiy ravishda ortib borishi.

Yaqqol namoyon bo'lgan muskullar tonusining ortishi natijasida til tarang xolda, orqa tomon tortilgan, til uchini tepaga ko'tarishga, noaniq holda bo'ladi.

Lab aylana mushaklarining tonusining ortishi natijasida lablarning spastik birikuvi, taranglashuvi kelib chikadi. Bunda faol harakatlar cheklangan bo'ladi. Tilning oldinga harakatlar hajmi cheklanadi yoki umuman yo'qoladi.

Yuz va bo'yin mushaklari tonusining ortishi artikulyatsiya apparatining ihtiiyoriy harakatlarini yana qiyinlashtiradi.

Mushaklar tonusi buzilishining yana bir ko'rinishi gipotoniya. Gipotoniya til ingichka, lablar bo'shashgan, ularning birlashish imkoniyati bo'lmaydi. Bunda, odatda og'iz ochiq bo'ladi.

Dizartriya nutq kamchiligida artikulyatsiya motorikasining buzilishlari artikulyatsiya mushaklarining harakatchanligining chek-

langanligi natijasida kelib chiqadi va bu hol mushaklar tonusining ortishi, ihtiyyorsiz harakatlar va diskoordinatsion buzilishlar hisobiga yanada og'irlashadi.

Artikulyatsiya mushaklarining harakatchanligini yetarli emasligi natijasida tovushlar talaffuzida kamchiliklar kelib chiqadi. Lab mushaklarining jarohatlanishi natijasida ham unli xam undosh tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Ayniqsa lab undoshlari *p*, *m*, *b* to-vushlarida buzilishlar kuzatiladi. Bola lablarini cho'chaytirishga, doira holiga keltirishga, tepe labini tepaga ko'tarishga, pastki labini pastka tushirishga va boshka bir qator harakatlarni bajaringa qiynaladi. Lablar harakatini cheklanganligi butun artikulyatsiyani buzilishiga olib keladi.

Shuningdek, yumshoq tanglay mushaklarining harakatchanligini cheklanganligi ham tovushlar talaffuzini qiyinlashtiradi.

Dizartriya nutq-kamchiligidagi kuzatiladigan yuz mushaklarining parezi ham tovushlar talaffuziga tasir etadi.

Dizartriya nutq kamchiligining asosiy belgilardan yana biri artikulyatsiya praksisining yetarli emasligi (dispraksiya). A.R.Luriya o'z ishlari asosida dispraksik buzilishlarni 2 turini farqlaydi:

- a) kinestetik
- b) kinetik

Kinestetik dispraksik buzilishlarda umumlashtirilgan artikulyatsiya urunmalarining rivojlanishida qiyinchiliklar va nomukammalliklar kuzatiladi. Bunda ko'pincha undosh tovushlar buzilishi kuzatiladi. Buzilishlar turg'un bo'lmay tovushlarni almashtirish hollari har xil bo'ladi.

Dispraksik buzilishlarning kinestetik kurinishlarida xam unli xam undosh tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Unlilar kup hollarda, cho'zilib, ularning artikulyatsiyasi neytral holga tenglashadi. Tovushlarning almashtirish holi o'ziga xoslikni aks ettiradi.

Masalan sirg'alivchi til oldi «Z» tovushi, portlovchi til oldi «D» tovushiga almashtiriladi. Dizartriyada artikulyatsiya motorikasining buzilishi asosiy sindrom hisoblanib – artikulyatsiya buzilishlari sindromi deyiladi. Miya jarohatlanishining og'irligi va joylashuviga ko'ra bu sindrom dizarriyaning turli ko'rinishlari o'ziga xos hususiyatlariiga ega bo'ladi.

Dizartriya nutq kamchiligidagi nafas muskulaturasining innervatsi-

yasining buzilishi natijasida nutqiy nafas buzilishlari kelib chikadi. Bunda nafas olish ritmi nutqni manoli tuzilishini boshqarmaydi, nutq akti jarayonida nafas olish tezlashadi, nafas chiqarish qisqa va asosan burun orqali buladi.

Dizartriya nutq kamchiligining ikkinchi sindromi – nutqiy nafasni buzilishidir.

Dizartriya nutq kamchiligi uchun xarakterli xususiyatlardan biri – intonatsiya va ovoz buzilishlaridir. Ovoz kamchiliklari til, lab, yumshoq tanglay, ovoz boyamlari, bo'g'iz mushaklari parezi va ularning mushak tonusining ortishi, haraktchanglikning cheklanganligi bilan bog'liq.

Demak, dizarriyaning asosiy belgilari – artikulyatsiya, nafas va ovoz buzilishlarining namoyon bo'lismi darajasi va xarakteridan kelib chiqadigan tovushlar talaffuzi va nutqning prosodik buzilishilaridir.

Dizartriya nutq kamchiligidagi kuzatiladigan yuz mushaklar bilan birgalikda, nutqiy bo'limgan kamchiliklar ham uchraydi. Bu bulbar va psevdobulbor dizartriyada umumiy motorika va barmoqlar harakatchanligining buzilishlari namoyon bo'ladi. Dizartriya nutq kamchiligidagi o'ziga xos nutqiy va nutqiy bo'limgan buzilishlar asosida tashxis qo'yiladi.

#### Savol va topshiriqlar:

1. Dizartriya belgilari nimadan iborat?
2. Kinestetik dispraksiya nima?
3. Nutqiy va nutqiy bo'limgan buzilishlar nima?

#### Tayanch tushunchalar:

Antropofonik – tovushni buzilib talaffuz kilish.

Fonologik – tovushni yo'qligi, tovushni almashtirish, differensial-namagan talaffuz.

## **48. KORREKSION - PEDOGOGIK ISHLAR TIZIMI. ARTIKULYATSION MASHQLAR**

**Reja:**

1. Dizartriya nutq kamchiligidagi korreksion - pedagogik ishlar tizimi.

2. Artikulyatsion mashqlar.

Dizartriya nutq kamchiligidagi korreksion - pedagogik ishlar tizimi kompleks ravishda amalga oshiriladi, ya'ni artikulyatsion apparat massaji va artikulyatsion gimnastik mashqlar, ovoz va nutqiy nafas ustida ishslash, umumiy davolash, davolovchi jismoniy - arbiya, fizioterapiya va dori -darmonlar bilan davolash ishlari tashkil qilinadi.

Asosiy e'tibor bolada nutqning rivojlanishi holatiga, nutqning leksik-grammatik tomoniga hamda nutqning aloqa funksiyasi xususiyatlarga qaratiladi. Maktab yoshidagi bolalarda yozma nutq holati ham hisobga olinadi.

Uzoq vaqt davomida muntazam ravishda olib borilgan mashg'ulotlar sekin-asta artikulyatsion apparat, apparat harakatchanligini normallashiradi, artikulyatsion nutq apparati harakatlarni rivojlantiradi, artikulyatsiya a'zolarida ihtiyyoriy harakatlarni bir harakatdan boshqa bir harakatga o'tish qobiliyatini shakllantiradi, hamda fonimatisk eshituvni to'la qonli ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

Dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning usullari AG.Ippalitova, O.V.Pravdina, V.V.Ippalitova, E.M.Mastyukova, G.V.Chirkina, I.I.Panchenko, va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan.

Dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari kuyidagilardan iborat:

1 - Tovushlarning to'g'ri talaffuzini o'rgatish, ya'ni artikulyatsion motorikani, nutqiy nafasni rivojlantirish va tovushni nutqga qo'yish va mustahkamlash.

2 - Fonematisk idrokni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish.

ituvni rivojlantirish, tovush analiz malakasini shakllantirish.

3- Nutqning ritm, ozangdorligi va ifodaliligi tomonidagi kam-

chiliklarni bartaraf etish.

4 - Paydo bo'lgan nutqning umumiy rivojlanmaganligini to'g'rilash.

Dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish, tuzatish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarining asosiy sababi nutq apparati a'zolarining harakatchanligida kuzatiladigan kamchiliklardir. Shuning uchun logoped asosiy diqqatni artikulyusion apparat harakatchanligini rivojlantirishga qaratishi lozim.

Tovushlar talaffuzi ustida ishslash quyidagi holatni hisobga olib tashkil etiladi:

1- Dizartriya shakli, bolaning nutqini rivojlanish holati va bola yoshi-ni hisobga olish.

2-Nutq kommunikatsiyasining rivojlanishi. Tovushlar talaffuzining shakllanishi komunikatsiyaning rivojlanishiga yo'naltirilgan bushi lozim.

3 - Motivatsiyaning rivojlanishi, bor bo'lgan buzilishlarining bartaraf etishga intilish, o'z - o'zini anglashni, uziga ishonch, o'zini boshqarish va nazorat qilish, o'z qadrini bilish hamda o'z kuchiga ishonish.

4- Differensial eshitish idroki va tovush analizi qobiliyatini rivojlantirish.

5- Ko'rvu-kinestetik tuyg'uni rivojlantirish yo'li bilan artikulyatsion tartib va artikulyatsion harakatni kuchaytirish.

6- Ishni bosqichma-bosqich tashkil etish. Korreksion ish bolada talaffuzi saqlanib qolgan tovushlardan boshlanadi. Ba'zan tovushlar ancha sodda motor koordinatsiyalari tamoyiliga ko'ra tanlab olinadi, ammo artikulyatsiyaon buzilishni hisobga olingan holda birinchi navbatda ilk ontogenez tovushlari ustida ish olib boriladi.

7- Eng og'ir buzilishlarda ya'ni bola nutqi atrofdagilar uchun umuman tushunarsiz bo'lganda korreksion ish alohida ajratilgan tovushlar va bo'g'indan boshlanadi. Agarda bola nutqi atrofdagilar uchun nisbatan tushunarli bo'lsa va u ayrim so'zlarda nuqsonli tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olsa unda ish «tayanch», so'zlardan boshlanadi. Har qanday hollarda va turli nutqiy holatlarda tovushlar nutqda mustahkamlanishi zarur.

8- Markaziy asab tizimi shikastlangan bolalarda nutqdan oldingi

davrda logopedik ishlarni muntazam olib borish yo'li bilan tovushlar talaffuzidagi murakkab buzilishlarni oldini olish muhim ahamiyatga ega.

Dizartriya nutq kamchiligidagi olib boriladigan logopedik ishlarni bosqichma - bosqich olib boriladi.

Birinchi bosqich tayyorlov bosqichi-bu bosqichning asosiy maqsadi:

- artikulyatsion apparatni, artikulyatsion tartibni shakllantirishga tayyorlash;
- bolaning ilk yoshida-nutqiy muloqot ehtiyojini tarbiyalash;
- passiv lug'atni aniqlash va rivojlantirish
- nafas va ovozdagi kamchiliklarni korreksiylash.

Bu bosqichning eng ahamiyatli vazifalari bu-sensor funksiyani ayniqsa eshitish idroki va tovushlar analizini rivojlantirishdir.

Korreksion-logopedik ish metodlari va usullarini qo'llash nutq, rivojlanishi darajasiga bog'liq. Bolada muloqot nutq vositalarining bo'lmasligi boshlang'ich ovoz reaksiyasini tezlashtiriladi va tovushlarga taqlid qilishga olib keladi, hamda unga kommunikativ ahamiyat tusini beradi.

Korreksion-logopedik ishlarni dori darmonlar bilan ta'sir etish, fizioterapevtik davolash, davolov jismoniy tarbiyasi va massaj bilan qo'shib olib boriladi.

Ikkinci bosqich boshlang'ich kommunikativ talaffuz qobiliyatini shakllanti-rish bosqichi.

Bu bosqichning asosiy maksadi:

- nutqiy muloqot va tovushlar analizi malakasini rivojlantirish;
- artikulyatsion apparat muskullarini bo'shashtirish;
- og'iz holatini nazorat qilish;
- artikulyatsion harakatlarni rivojlantirish;
- ovozni rivojlantirish;
- nutqiy nafasni to'g'rilash;
- artikulyatsion harakatlarni sezish va maqsadga yo'naltirilgan artikulyatsion harakatni rivojlantirish.

Artikulyatsion apparat muskullarini bo'shashtiruvchi mashqlar umumiyligi muskullarni bo'shashtiruvchi mashqlardan boshlanadi (bo'yin, ko'krak qafasi, qo'l muskullari). So'ng yuz muskullarini bo'shashtiruvchi massaj ishlari olib boriladi.

Harakatlar peshonaning o'rtaidan chekkaga qarab boshlanadi. Ular barmoq uchlarining yengil silashdagi sekin sur'atdagi harakatlar yordamida bajariladi.

Bo'shashtiruvchi massaj meyoriy ravishda faqat yuzning tonusi oshgan muskullariga qaratiladi, bo'shashgan muskullar guruhiqa qaratilgan massaj esa mustahkamlovchi bo'lishi lozim.

Yuz muskullarini bo'shashtiruvchi massajning ikkinchi yo'naliishi qoshlar-dan boshning sochlari boshlanuvchi qismigacha qaratiladi. Harakatlar bir xilda ikkala qo'l bilan ikki tomonidan qilinadi.

Uchinchi yo'naliishda harakatlar peshona yo'lidan pastga, lunjlar-dan bo'yin va yelka muskullariga qaratiladi.

So'ngra lab muskullarini bo'shashtirishga o'tiladi. Logoped o'zining ko'rsatkich barmoqlarini yuqori labning o'rtasi va og'izning ikkala tomonidan burchagiga qo'yadi va harakatlar o'cta chiziqqa qarata qilinadi. Bunday harakat pastki lablar bilan ham qilinadi, so'ngra ish ikkala labda o'tkaziladi.

Keyingi mashqda lagopedning ko'rsatkich barmoqlari xuddi yuqoridagidek xolatda bo'ladi, faqat harakatlar yuqori lab bo'yicha yuqoriga qarab qilinadi, bunda milklar ko'rinadi, pastga qarab qilin-gan harakatlarda pastki milklar ochiladi.

So'ngra logopedning ko'rsatkich barmoqlari og'izning burchaklariga qo'yiladi va lablar tortiladi(iljayish). Qayta harakat yordamida lablar o'z holatiga qaytadi.

Bunday mashqlar og'izning turli holatlarda: og'iz yopiq, yarim ochiq, katta ochiq holatlarida qilinadi.

Bo'shashtiruvchi mashqlardan so'ng past tonusdagi mustahkamlovchi massajdan so'ng labning passiv faol harakatlari mashq qildiriladi. Bu massaj va mashqlar natijasida bola lablari bilan turli diametriddagi yog'och buyumlarni, konfetlarini ushlab tura olishiga erishadi, naycha orqali suvni ichishni o'rganadi.

Yuqorida qayd etilgan muskullarni umumiy bo'shashtiruvchi mashqlaridan so'ng til muskullarini mashq qilishga o'tiladi. Ular ni bo'shashtirishda til pastki jag' muskullari bilan o'zaro bog'liq ekanini yoddan chiqarmaslik kerak. Shuning uchun spastik ko'tarilgan tilning og'iz bo'shilig'ida pastga harakati pastki jag'ning pastga qarab harakati bilan birga qilinsa mashqni bajarish bola uchun oson kechadi. Maktab yoshidagi bolalarga bunday mashqlar autotrenning

ko'rinishida beriladi, «men tinchman, juda bo'shashganman, tilim og'zimda tinch-holatda. Pastki jag' pastga tushayotganda tilni ham sekin pastga tushuraman».

Agar bu usullar yetaricha yordam bermasa tilning uchiga bir bo'lak toza doka yoki toza, yengil biror buyum qo'yiladi. Hosil bo'lgan taktil sezgilar bolaga tilning erkin harakatiga nimadir xalaqit berayotganini tushuntirishga, ya'ni spastik holatni sezishga yordam beradi. Shundan so'ng logoped logopedik zond bilan tilni yengil bosish harakatlarini qiladi.

Keyingi harakat tilni yengil holda tomonlarga harakat qilishidir. Logoped ehtiyyotkorlik bilan tilni toza doka bilan ushlab, ritmik ravishda tomonlarga tortadi. Asta-sekin logopedning yordami kamayib, bola mashqni o'zi bajara boshlaydi. Massaj, davolovchi jismoniy tarbiya mutaxassis tomonidan o'tkaziladi. Logoped va ota-onalar shifokor nazorati ostida, gigiyenik talablarga amal qilgan holda uning elementlaridan foydalanishlari mumkin.

### Og'iz holatini nazorat qilish

Dizartriya nutq nuqsonida og'izning holatini nazorat qilmashlik ihtiyyoriy artikulyator harakatlarni rivojlantishini qiyinlashtiradi. Dizartriya nutq nuqsonida, odatda bolaning og'zi ochiq, sulak oqish holati ko'zga tashlanadi.

Olib boriladigan ishlar 3 bosqichga bo'linadi.

Birinchi bosqich-lablar uchun mashqlarda taktil sezgilarini bolaning og'zini passiv yopishi bilan birgalikda rivojlantirish. Asosiy diqqat bolaning og'zini yopish sezgilariga qaratiladi, bola bu holatlarni oyna orqali ko'rib turadi.

Ikkinci bosqich-passiv faol yo'llar orqali og'izni yopish. Og'izni yopish avval boshni pastga egish va og'izni ochish, boshni orqaga tashlash holatida oson bajariladi. Ishning boshlang'ich bosqichlarida ushbu osonlashtirilgan usullardan foydalangan holda amalgya oshirish mumkin.

Uchinchi bosqich-og'izni faol ochish va yopish mashqlari so'z ko'rsatmasi bo'yicha o'tkaziladi. Masalan «Og'izni katta och», «Lablarni cho'chchaytirish», «Lablarni naycha shakliga keltirish va avvalgi holatiga qaytarish».

Og'izning turli harakati tasvirlangan rasmlarga qarab mashqlarni bajarish. Mashqlar asta-sekin murakkablashib boradi: boladan bo'shashtirilgan lablar orqali puflash, tebranish harakatlarini bajarish so'raladi.

### Artikulyatsion mashqlar

Artikulyatsion mashqlarni o'tkazishda taktil-proprietiv stimulyatsiya, statik-dinamik sezgilarni rivojlantirish, aniq artikulyatsion kinesteziyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishning dastlabki bosqichlarida saqlangan analizatorlardan (eshitish, ko'rish, taktil) mukammal ravishda foydalanish orqali amalgya oshiriladi. Mashqlar ko'zlarni yopiq holda bolaning diqqatini proprietiv sezishlarga qaratish orqali bajariladi. Artikulyatsion gimnastika dizartrianing shakli va artikulyatsion apparatning jarrohatlanish darajasiga qarab differensiyalashtiriladi.

Nutq muskullari harakatini rivojlantirishdan avval yuzning mimik muskullari mashqlaridan foydalaniladi. Maktabgacha yoshdan boshlab bolada mimikaning ihtiyyoriy va differensirlashgan harakatlari va o'z mimikasi ustidan nazorat qilish rivojlantiriladi. Bolaning so'zli ko'rsatma bo'yicha ko'zini ochish va yopishga, qoshlarini chimirish, lunjini shishirish, so'lagini yutish, og'zini ochish va yopishga o'rgatiladi.

Yuz va lab muskullarini yetaricha kuchini rivojlantirish uchun toza ro'molcha, naychadan foydalanib maxsus qarshilik mashqlaridan foydalaniladi. Bola naychani lablari bilan ushlab, katta odam uni tortib olishga harakat qilsa ham ushlab turishi lozim.

Tilning artikulyatsion mashqlarida tilning uchini pastki tishlarning chetlariga faol tegishini tarbiyalashdan boshlanadi. So'ngra tilning umumiyligi, kam differensirlangan harakatlari avval passiv keyin passiv-faol va faol harakatlari rivojlantiriladi.

Tilning ildizi muskullarini rivojlantirish ularni maxsus logopedik zond orqali til ildizini ta'sirlash yo'li bilan reflektor ravishda qisqartirishdan boshlanadi. Mustahkamlash ihtiyyoriy yo'talishdan foydalanib o'tkaziladi.

Artikulyatsion nutq apparatini rivojlantirish uzviy ravishda umumiyligi va maxsus mashqlardan foydalangan holda olib boriladi.

tanjim sinishtisi, so tagini yutish, ug zini oshish va jopishga tiladi.

Yuz va lab muskullarini yetaricha kuchini rivojlantirish uchun toza ro'molcha, naychadan foydalanib maxsus qarshilik mashqlaridan foydalaniladi. Bola naychani lablari bilan ushlab, katta odam uni tortib olishga harakat qilsa ham ushlab turishi lozim.

Tilning artikulyatsion mashqlarida tilning uchini pastki tishlarning chetlariga faol tegishini tarbiyalashdan boshlanadi. So'ngra tilning umumiy, kam differensirlangan harakatlari avval passiv keyin passiv-faol va faol harakatlari rivojlantiriladi.

Tilning ildizi muskullarini rivojlantirish ularni maxsus logopedik zond orqali til ildizini ta'sirlash yo'li bilan reflektor ravishda qisqartishdan boshlanadi. Mustahkamlash ihtiyoriy yo'talishdan foydalanib o'tkaziladi.

Artikulyatsion nutq apparatini rivojlantirish uzviy ravishda umumiy va maxsus mashqlardan foydalanilgan holda olib boriladi.

O‘yinlar artikulyatsion motorikani xarakteri va nuqsonning darajasi, bolaning yoshini e’tiborga olgan holda tanlaniladi. Hamda guruhli va yakka mashg‘ulotlarda tashkil qilinadi.

#### Savol va topshiriqlar:

- 1.Dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlardan nimalardan iborat?
- 2.Dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlarning vazifalari nirdan iborat?
- 3.Dizartriya nutq kamchiligidagi yuz muskullarini bo‘sashtiruvchi massajlarning ahamiyati?

#### Tayanch tushunchalar:

Fizioterapiya – yun. physis tabiat va therapy – davolamoq klinik tibbiyotning bir sohasi.

Motivatsiya – xatti harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiyadir.

#### 5§. Korreksion - pedagogik ishlar tizimi. Ovozni rivojlantirish

##### Reja:

- 1.Dizartriya nutq kamchiligidagi korreksion - pedagogik ishlar tizimi.
2. Dizartriya nutq kamchiligidagi ovozni rivojlantirish.

Ovoz va nutq vaqtida kechadigan jarayonlarni bosh miya bo’shqaradi. Undan kelgan signalga muvofiq ovoz va muayyan nutq tovushlari paydo bo‘ladi. Energetik tizim yordamida paydo qilingan ovoz “haydab” chiqariladi va rezonator tizimi yordamida kuchaytiriladi.

Ovoz psychalari hiqildoq ichiga joylashgan bo‘ladi. Ular uchburchak shaklida tuzilgan hiqildoqning orqa qismida ikkinta tasma shaklida boshlanib, bo‘rtib turgan oldingi burchakka kelganda uchlarri birlashadi. Ovoz psychalari oralig‘ida uzunasiga paydo bo‘lgan yoriq ovoz darchasi deyiladi.

Ovoz psychalari kishi gapirayotgan paytda, gapiruvchining ehtiyojiga ko‘ra tez tez cho‘zilib qisqarib turadi. Psychalar qanchalik tortilsa, ovoz shu qadar ingichka va baland chiqadi, ya’ni ovoz psychalari shu qadar qisqarib boradi. Bu vaqtida ikki yondan o‘rab olgan tog‘aylar va hiqildoqning tebranib turishi tashqi tomondan ham sezi larli darajada ko‘zga tashlanadi. Psychalarda hosil bo‘lgan tovushlar qaytargich (rezonator) larga urilib, qaytgandan keyingina ovoz tarzida eshitiladi. Qaytrgichlarsiz tovush kuchsiz va ifodasiz bo‘ladi<sup>1</sup>.

Inson tanasidagi qaytragichlar jumlasiga qattiq to‘qimalardan iborat bo‘lgan qismlar ko‘krak qafasi, bosh suyagi, bugurn tog‘aylari, burun bo‘shlig‘i, tishlar, jag‘ suyaklar kiradi.

Maktabgacha yoshdagi dizartriya nutq kamchigiga ega bolalarda nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish bo‘yicha bir qancha olimlar, amaliy defektologlar o‘z kitoblari hamda maqolalarida yoritganlar (S.L. Taptapova, I.I. Yermakova, L.V. Lopatina, E.F. Arkipova, E.S. Almazova). Ular turli yoshdagi dizartriya nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish uchun ~~bir~~ necha xil

<sup>1</sup> R.Shomaxmudova, L.SH.Nurmuhamedova, D.R.Tolaganova. Logopediya kompleks mashqlar metodikasi. Toshkent 2015 y, 57 b.

metodikalar yaratgan bo'lib, bugungi kunda bu metodikalar amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Ko'p hollarda maktabgacha yoshdagagi dizartriya nutq kamchiliga bolalarda nutqiy nafas va ovozdan to'g'ri o'z o'rniда qo'llay olmaslik hollari kuzatiladi. Buning natijasida bola o'z nutqi jarayonida bir qancha qo'pol xatoliklarga duch keladi. Muallif nafas va ovozdagi kamchiliklarni bartaraf etib ularni rivojlantirish uchun logopedik ritmik mashg'ulotlarni ovoz va nutqiy nafas bilan kompleks ravishda ish olib borishni tavsija etadi. Shu bilan birga muallif yana bir samarali usullardan biri, bu musiqa ostida nafas va ovozni to'g'ri yo'lga qo'yishni aytib o'tadi. Maktabgacha yoshdagagi dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar qo'shiq aytish jarayonida ularning ovozi va nutqiy nafas olishi musiqa o'qituvchisi va guruh logopedi boshchiligidagi boshqarilib, to'g'rilab boriladi. Qo'shiq tanlash vaqtida uning bir qancha tomonlariga e'tibor berish lozim:

- qo'shiq bolaning nutq kamchiligidan kelib chiqqan holda tanlash;
- so'z va iboralarning bolaga murakkab bo'lmashligi;
- nutqiy nafas va ovozdan to'g'ri foydalanish uchun qo'shiq matni, tempi, diapazoni hamda jumlalar hajmini hisobga olish.

Bolani sekin-astalik bilan qo'shiq jarayonida to'g'ri ishtirok etishi uchun, qo'shiqlar boshida sodda so'z va iborlalardan tashkil topadi. Keyinchalik bolaning holatiga qarab murakkablashib boradi. Qo'shiq aytish jarayoni orqali nafaqat nafas va ovoz rivojlanadi, balki bola xor bilan yoki yakka qo'shiq aytish orqali o'zini bemalol his qila oladi, jamoada o'z o'rniiga ega bo'ladi, degan fikrlarni muallif ta'kidlab o'tadi.

S.L.Taptanova, I.I.Yermakova ovoz apparatidagi kasalliklar, ularni bartaraf etish, rivojlantirish ishlari bo'yicha aytib o'tganlar. Mualliflar ovozdagi kekirdak falajlanishi, parezlarni tiklash bo'yicha amaliy ishlarni to'rtta bosqichga bo'lganlar:

- I – Ratsional psixoterapiya;
  - II – Fiziologik va fonatsion nafasni korreksiyalash;
  - III – Fonopedik mashqlar yordamida ovoz apparati kinesteziyasi va koordinatsiyasini mashq qildirish;
  - IV – Fonatsion vokal mashqlarni to'g'ri mustahkamlash.
- F.X. Davletkulova bolalar serebral fallajida erta reabilitatsiya

ishlarni yuritish haqida aytib o'tadi. Shulardan mediko-pedagogik reabilitatsiya ishlari kuzatiladi. Mediko-pedagogik ishlari o'z navbatida korreksion-pedagogik ishlariga bo'linib olib borilgan. Muallif korreksion-pedagogik ishlar o'z ichiga quyidagilarni kiritgan:

- logopedik massaj;
- yuz muskullari va artikulyatsion apparatining passiv hamda faol gimnastikalari;
- nafas mashqlari;
- ko'ruv va eshituv idrokini rivojlantiruvchi mashqlar;
- ovoz mashqlari.

Barcha logopedik ishlarni kompleks ravishda tashkil etilishi maqsadga muvofiq ekanligini muallif ta'kidlab o'tadi: nevrapotolog, logoped, LFK, ota-onalar.

F.I.Ivanovskaya maktabgacha yoshdagagi bolalar va maktab yoshidagi bolalar ovozini rivojlantirish, chuqur nafas olish, uzoq nafas olish, qisqa nafas olish, ovoz kuchi, undan to'g'ri foydalanish, rivojlantirilgan nafas va ovozni so'z va iboralarda mustahkamlash ishlari yoritiladi. Muallif shunday xulosaga keladiki:

1. Ma'lum bir ovoz turlarining buzilishini bartaraf etish uchun davolash ishlari bilan birga logopedik mashg'ulotlarni olib borish;
2. Artikulyatsion organ va nafas ustida to'g'ri va aniq ish olib borish, ovoz un paychalarining rivojlanishiga zamin hisoblanadi;
3. Butun nutq apparatini mashq qilib bo'lgach, ehtiyyotkorlik bilan ovoz fonatsiyasiga o'tiladi;
4. Ovoz gigiyenasi haqida to'g'ri targ'ibot ishlarini olib borish lozim;
5. Mutaxassislar prafilaktika qilish jarayonida bolalar ovozini saqlashni ham inobatga olish lozim.

M.Y. Ayupova va M. Jo'rayevalar bolalar serebral falajida kuzatiladigan nutq nuqsonlari, ularning ko'rinishlari haqida gap boradi. Mualliflar logopedik ta'sirining asosiy vazifalari quyidagilarda o'z aksini topadi, deb aytib o'tadilar:

- artikulyatsion motorika;
- nutqiy nafas;
- ovoz;
- nutqning tempi;
- ritmni normalashtirish va rivojlantirish;

- tovushlar talaffuzini korreksiyalash;
- fonetik idrok va tovushlar tahlilini shakllantrish;
- nutqning leksik-grammatik qurilishini mukamallashtirish.

Barcha logopedik tadbirilar yagona tibbiy-pedagogik korreksion-logopedik ta'sir jarayonida amalga oshiriladi.

E.F.Arkipova maktabgacha yoshdagagi dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda nutqiy nafas va ovozni rivojlantirish uchun bir necha metodikalar tavsiya etadi. Bu metodikalar nutqiy nafas va ovoznining barcha turlarini hisobga olgan holda tuzilgan. Muallif maktabgacha yoshdagagi dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalarda nutqiy nafas va ovozini rivojlantirish uchun ishlab chiqqan metodikasi nafaqat dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga, balki barcha nutq-nuqsoniga ega bo'lgan bolalar uchun ham tavsiya etiladi. Metodikalar quyidagilardan iborat:

- Ovoz modulyatsiyasini baland-pastligi bo'yicha tadqiq etish;
- Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo'yicha tadqiq etish
- Ovozning dimog' (burun) tembrini aniqlash;
- Ovoz tembrni idrok etishni tadqiq etish;
- Ovoz tembrini qaytarishni tadqiq etish;
- Nutqiy nafasni tadqiq etish.

Ovoz – bu insonning ovoz apparati hosil qiluvchi turli tovushlar yig'indisidir. Ovoz nutqiy, kuylovchi va shivirlovchi bo'ladi. Inson baqirishi, ingrashi, turli tovushlarda taqlid qilishi mumkin.

Ovoz nutqning ifodaliligi, emotsiyanalligi va mazmuni ahamiyatini ta'minlovchi vositalardan biri bo'lib, u nutqning eshitilishini ta'minlaydi. Shu sababli, ovoz buzilishlari natijasida bolaning nutqida kamchilik kuzatiladi va atrofdagilarga o'z fikrini to'liq bayon etishga to'sqinlik qiladi.

Dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar so'zlash vaqtida ovoz va nafasdan to'g'ri foydalana olmasliklari bilan ajralib turdilar.

Dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalarda ovozni rivojlantirish va korreksiyalash uchun turli xil ortofonik mashqlardan foydalaniladi, bu mashqlar nafas faoliyati, fonotsiya va artikulyatsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ovoz ustida ishslash artikulyatsion mashqlar va massajdan so'ng olib boriladi. Bular bilan birga yana bo'yin muskullarini bo'shashtiruvchi, boshni xar tomonlama harakatini bajarish bo'yicha maxsus

mashqlar, shu mashq bilan bir vakjni, o'zida *i-e-o-u-a* unli tovushlarni talaffuz etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ovoz kamchiliklarini bartaraf etish uchun yumshoq tanglay harakatini faollashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun suv tomchilarini yutish, yo'talish, esnash imitatsiyalarini bajarish, qattiq atakada «a» unlisini talaffuz etish mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Ushbu mashqlar oyna oldida hisob ostida o'tkaziladi. Qo'yidagi usullardan foydalaniladi: tilni orqa qismini qo'zg'atish va til yordamida tanglayni taqillatish harakatini bajarish; ixtiyoriy yutish harakatini bajarish; bunda logoped tomizg'ich bilan halqumning qarshi devoriga suv tomizadi, bu vaqtida bolaning boshi bir oz orqaga egilgan bo'ladi.

Ovoz hosil qilishda jar harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun og'izning ochish va yopish, chaynash imitatsiyasi mashqlaridan foydalaniladi.

Shuningdek pastki jag'ni tushirish bo'yicha maxsus mashqlardan foydala-niladi. Logoped muskullar bo'shashganidan so'ng pastki jag'ni 1-1,5sm pastga tushirishga yordam beradi.

Harakatlar hajmi va suratini ixtiyoriy nazorat kilish turli ko'rgazmaли usullardan foydalanib amalga oshiriladi (quduqqa chelakni tushayotgani, arqonga borlangan sharcha tasvirlangan rasmlar va hokazo). So'ngra bu mashqar so'z ko'rsatmasi bo'yicha bir vaqtning o'zida turli tovushlar birikmasini (don-don, pap-pap, kar-kar) talaffuz qilish bilan birgalikda bajariladi. Tanglay muskullarini mustahkamlash uchun uni bo'shashtirish va tarang-lashishni navbatli bilan almashtirish mashqlaridan foydalaniladi. Bolaga esnash harakatini tugashida «a» tovushi talaffuz etish, og'izning katta ochiq holatida «a» tovushini talaffuzidan «p» tovushiga nafasni bosim ostida ushlab turib o'tiladi. Bolaning diqqati tanglay holatini sezishga qaratiladi. Shuningdek ovoz kuchi tembri va balandligini rivojlantirish mashqlaridan foydalaniladi. Masalan, o'nliklar bo'yicha ovozni kuchaytirib turri sanash va ovozni asta-sekin pasaytirib teskariga sanash mashqlaridan foylaniladi. Ovoz tembri, balandligi va ovoz intonatsiyasini rivojlantir-ishda turli o'yinlar, ertaklarni rollarga bo'lib o'qish, inssenirovkalar katta ahamiyatiga ega.

Dizartriya nutq kamchiligidagi ega bo'lgan bolalarning ovozni rivojlantirish bo'yicha quyida keltirilgan logopedik mashg'ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

## A) Ovoz modulyatsiyasini baland-pastligi bo'yicha logopedik mashg'ulot turi

Mashg'ulotning maqsadi – musiqani asta-sekinlik bilan pastdan balandlashayotgan, balanddan pastlashayotgan harakatini aniqlay olishi va uni qaytara olish ko'nikmasini aniqlashdir. Ovoz tebranishini baland-pastligi bo'yicha tadqiq etish dizartriyaning yengil darajasiga ega bo'lgan (styortaya forması) bola o'z ovozini qanchalar boshqara olishini, uni baland-pastligi bo'yicha o'zgartira olishni, ovoz diapazoni qanchalik keng ekanligini aniqlash uchun muhimdir.

Mashg'ulot uchun jihozlar: tovushlar, taqlid so'zlar, hayvon va ularning bolalari tasvirlangan predmetli rasmlar.

1. Turli xil balandlikdagi ovoz bilan talaffuz qilingan ayrim tovush va taqlid so'zlarni idrok etilishini tadqiq etish.

Mashg'ulotning borishi: Bolaga turli xil balandlikdagi tovush yoki taqlid so'zlarni eshitish va eshitilganlarni hayvon, ularning bolasi tasvirlangan rasm yoki turli xil kattalikdagi predmet bilan bog'lash, moslash tavsiya etiladi. Bolaga oldindan qonun-qoidalari tushuntiriladi. Masalan, itning ovozi "yo'g'on", ya'ni past, kuchuk bolasining ovozi esa "ingichka", ya'ni jarangdordir.

Ko'rsatma: "Eshit va qaysi hayvon qanday ovoz chiqarishini ko'rsat (ayt).

VOV - it	VOV - kuchuk bolasi
MU - sigir	MU - buzoqcha
MYAU - mushuk	MYAU - mushuk bolasi
DUD - katta kema	DUD - kichik kema
A - ayiq	A - ayiq bolasi

## B) Ovoz modulyatsiyasi va kuchi bo'yicha logopedik mashg'ulot turi

Mashg'ulot maqsadi – bola ovoz balandligi kuchini o'zgartira olish ko'nikmasini aniqlash hisoblanadi. Ovoz modulyatsiyasini ovoz kuchi bo'yicha tadqiq qilish, dizartriyani styortaya formasiga ega bo'lgan bola ovoz kuchini, balandligini qanday o'zgartira olishini aniqlash uchun muhimdir.

Mashg'ulot uchun jihozlar: tovushlar, taqlid so'zlar, yaqin va uzoqda joylashgan transport vositalari tasvirlangan predmetli va syujetli rasmlar.

2. Turli ovoz kuchi bilan talaffuz qilingan ayrim tovush va taqlid so'zlarni idrok etish.

Mashg'ulotning borishi: Bolaga logoped talaffuz qilayotgan turli ayrim tovushlari eshitish va past ovozni eshitganda uzoqda tasvirlangan predmet rasmini yoki baland ovozni eshitganda yaqinda tasvirlangan predmet rasmini ko'rsatish taklif etiladi.

1-ko'rsatma: "Diqqat bilan tingla. Kema suzyapti, u DUUUUUD deb signal beradi. Agar kema yaqinda bo'lsa – u baland signal beradi, agar uzoqda bo'lsa – past signal beradi. Baland signalni eshitsang, kema yaqinda turgan rasmni ko'rsat, past signalni eshitsang, kema uzoqda turgan rasmni ko'rsat".

Baland	Past
L - samalyot yaqinda	L- samalyot uzoqda
A -	A-
O -	O-
I -	I-

## V) Ovoz tembrini qaytarish bo'yicha logopedik mashg'ulot turi

Ovozning hissiy xarakteristikasi aniqlanadi. Chunki, ovoz ifodalilagini o'zgaruvchanligi hissiy nutqning ma'lum turlari uchungina xarakterlidir, uning o'ziga xos xususiyatlarini bolalarda o'rGANISH undov so'zlarda amalga oshiriladi.

Bola o'zining ovoz imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olishi, qo'yilgan talablar va vaziyatga mos holatda ovoz ifodasini o'zgartirishi, ertak qahramonlarining hissiyotlari va kechinmalarini ovozi orqali yetkazib bera oladimi, birdaniga bir nechta hayvonlar ovoziga taqlid qila oladimi, shular aniqlanadi.

Topshiriqni bajarishdan oldin bolalar bilan ovozni o'zgartira olish imkoniyatlari haqida suhbat olib boriladi. Bolalarga ovoz vaziyatdan kelib chiqib o'zgarishi mumkinligi: ovoz mayin yoki chiyilagan, qo'pol yoki xirillagan, quvnoq yoki mayus, shikoyatomus yoki qo'rquvli va h.k. bo'lishi mumkinligi haqida gapirib beriladi.

3. Ovozning turli tulslari yordamida undov so'zlar orqali hissiy holatni yetkazib berish.

Mashg'ulot uchun jihozlar: Ishtirok etuvchi shaxslarda turli xil kayfiyatlarini ko'rsatuvchi syujetli rasmlar seriyasi.

Mashg'ulotning borishi: Logoped bolaga syujetli rasmlar seriyas-

ini ko'rib chiqishini va ularda tasvirlangan, ishtirok etuvchi shaxslar da kayfiyati qanday ekanligini aniqlash taklif etiladi. Har bir rasm bo'yicha tushuntirish beriladi. Bolaga undov so'zlarni qo'llab, rasm-dagi vaziyat bo'yicha ovoz ifodasini o'zgartirib ishtirokchi shaxslar holatini aks ettirish taklif qilinadi.

Ko'rsatma: "Rasmga qara, o'ylab ko'r-chi, qanday ovoz chiqarishadi, agar..."

Shapka tushib ketsa – Vay! (qo'rquv bilan)

Darvozaga gol urishdi – Ura! (quvonch bilan)

O'yinchoqlarni yig'ishtirish – E-E (injqlik bilan, norozilik bilan)

Charchashdi va uxlashni xoxlashyapti – Ox (charchoq bilan, past)

O'tin chopishyapti – Ux (og'ir)

Bolalarga gugurt o'ynash va dag'-dag'a qilish mumkin emas – Mumkin emas (qat'iy).

4. Bola ertakdagi qaysi qahramonga taqlid qilishga bog'liq ravishda ovoz tembrini o'zgartirishi.

Mashg'ulot uchun jihozlar: "Bo'g'irsoq ertagi qahramonlari tasvirlangan syujetli rasmlar".

Jarayonning borishi: Tayyorlov suhbatida "Bo'g'irsoq" ertagi mazmuni, uning ishtirokchi shaxslari aniqlashtiriladi. Ular qanday ovoz bilan – bir xil yoki har xil ovozda gapirishlari aniqlashtiriladi. Agar ular har xil ovozda gapirsalar, ularning har biriga nima xosligi aniqlashtiriladi.

Ko'rsatma: "Qani eslab ko'raylikchi, kimlar bo'g'irsoqni qo'rqtib yeb qo'y moychi edilar? Ular qanday ovozda gapirishgandi?

Quyon \_\_\_\_//\_\_\_\_ (jarangdor, sho'x, sof ovozda);

Bo'ri \_\_\_\_//\_\_\_\_ (qo'pol, past ovozda, qo'rqtishi bilan);

Ayiq \_\_\_\_//\_\_\_\_ (baland, past, xotirjam);

Tulki \_\_\_\_//\_\_\_\_ (yumshoq, erkalovchi, ayyor ovozda).

Maktabgacha yoshdagagi dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalar nutqida fonetik kamchiliklar ustida ish olib borish jarayonida ishning bir qismi nutqiy intonatsiyadan to'g'ri foydalana olishga qaratiladi. Ishning bu yo'naliishi ovoz balandligi va kuchini rivojlantirish mashqlariga zamin yaratadi. Hamda ovoz tonini idrok etishga, uzoq nutqiy nafasni rivojlanishiga olib keladi.

Dizartriya nutq kamchiliga ega bolalarda ovozni rivojlantirish va bartaraf etish uchun turli xil ortofonik mashqlardan foydalilanadi, bu

mashqlar nafas faoliyati, fonatsiya va artikulyatsiyani rivojlantirishga yo'naltirgan bo'ladi.

Ovoz ustida ishlash artikulyatsion gimnastika va massajdan so'ng olib boriladi. Bular bilan birga yana bo'yin muskullarini bo'shashtiruvchi, boshning har tomonlama harakatini bajarish bo'yicha tovushlarni talaffuz etish maqsadga muvofiq hisolanadi.

Ovozdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yumshoq tanglay harakatini faollashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun suv tomchilarni yutish, yo'talish, esnash imitatsiyalarini bajarish, qattiq atakada "a" unlisini talaffuz etish mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Ushbu mashqlar oyna oldida hisob ostida o'tkaziladi. Quyidagi usullardan foydalilanadi: tilni orqa qismini qo'zg'atish va til yordamida tanglayni taqillatish harakatini bajarish; ixtiyoriy yutish harakatini bajarish; bunda logoped tomizg'ich bilan halqumning qarshi devoriga suv tomizadi, bu vaqtda bolaning boshi bir oz orqaga egilgan bo'ladi.

Tanglay muskullarini mustahkamlash uchun uni bo'shashtirish va taranglashishni navbatli bilan almashtirish mashqlaridan foydalilanadi. Bolaga esnash harakatining tugashida "a" tovushi talaffuz etish, og'izning katta ochiq holatida "a" tovushini talaffuzidan "p" tovushiga nafasni bosim ostida ushlab turib o'tiladi. Bolaning diqqati tanglay holatini sezishga qaratiladi. Shuningdek, ovoz kuchi tembri va balandligini rivojlantirish mashqlaridan foydalilanadi. Masalan, o'nliklar bo'yicha ovozni kuchaytirib to'g'ri sanash (1 dan 10 gacha) va ovozni asta-sekin pasaytirib teskariga sanash (10 dan 1 gacha) mashqlaridan foydalilanadi. Ovoz tembri, balandligi va ovoz intonatsiyasini rivojlantirishda turli o'yinlar ertaklarni rollarga bo'lib o'qish, inssenirovkalar katta ahamityaga ega.

Quyidagi metodikalar orqali maktabgacha yoshdagagi dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar ovozini rivojlantirishga qaratilgan:

Ochiq va yopiq bo'g'inalarni baland ovozda logoped ketidan qaytarish:

- ash, - osh, - ush, - ish.

- sha, - sho, - shu, - shi.

- am, - om, - um, - im.

- ma, - mo, - mu, - mi.

O'tirgan holda, "u" tovushini baland ovozda talaffuz etish.

O'tirgan holda, "m" tovushini o'rtal ovozda talaffuz etish.

O‘tirgan holda “m” tovushini o‘rtta ovozda tlaffuz etish.  
Kichik guruhlarda olib boriladigan logopedik mashg‘ulotlar  
“Quyoncha”

Quyon, quyon, quyoncha,  
Quloqlaring uzun buncha.  
Ushlab olay desam, men,  
Qochib ketasan buncha.

Mashg‘ulot maqsadi: Bolalarda jarangli va qisqa ovoz malakalarini rivojlantirish, ularni farqlay olishni o‘rgatish.

Topshiriq: Bolalar tik turgan holda, oyoqlari jipslashgan, qo‘llarini quyonchani qo‘lidek hosil qilish “-ap, -ap, -ap” bo‘g‘inini sakrab turib, talaffuz qilish.

#### “Shamol esishi”

Men shamol, kuchli shamol,  
Esaman turli tomon.  
Meni ko‘rarsiz, har yerda,  
Meni eshitasiz, har joyda.

Mashg‘ulot maqsadi: Bolalarga uzoq va baland ovoz malakalarini rivojlantirish, ularni bir-biridan farqlay olishga o‘rgatish.

Topshiriq: Bolalar tik turgan holda oyoqlari chetga bir oz yoyilgan, qo‘llari yuqorida bo‘lib, chap va o‘ng tomonga tebratish orqali “u-u-u-u-u-u” tovushini talaffuz qiladilar.

Tayyorlov guruhlarda olib boriladigan mashg‘ulot  
“Turnalar”

Mashg‘ulot maqsadi: Bolalarga she’r orqali o‘rtta ovozda gapirishga o‘rgatish.

Topshiriq: Bolalar bir qator turib oladilar va logoped bilan birgalikda she’rni yoddan aytib beradilar.

Biz turnalar, olisdan,  
Uzoq eldan kelamiz.  
Bulutlarning ustidan,  
Shamolday tez yelamiz.  
Soylardan,  
Ko‘llardan,  
Ellardan  
Oshib, sizga uchamiz,  
Yurtingizni quchamiz.

#### Savol va topshiriqlar:

1.Ovoz modulyatsiyasini baland-pastligi bo‘yicha logopedik ishlar nimalardan iborat?

2.Ovoz modulyatsiyasi va kuchi bo‘yicha logopedik ishlar nimalardan iborat?

3.Ovoz tembrini qaytarish bo‘yicha logopedik ishlar nimalardan iborat?

#### Tayanch tushunchalar:

Ovoz – grekcha so‘z bo‘lib, “tovush”. Bu insonning gaplashish, kuylash, qichqirish, kulish, tovushlar oqomi bo‘lib, balandligi, tembri va kuchi bilan farqlanadi.

## 68. KORREKSION - PEDOGOGIK ISHLAR TIZIMI. NUTQIY NAFASNI RIVOJLANTIRISH

Reja:

1. Korreksion - pedagogik ishlar tizimi.
2. Dizarriya nutq kamchigiga ega bo‘lgan bolalarda nutqiy nafasni rivojlanirish.

Nutqiy nafasni tadqiq etish nafas olish va nafas chiqarishni baholashdan boshlanadi. Bola nafasining xarakteri tinch holatda va nutqiy holatda aniqlanadi. Bola tinch turganda ko‘rish orqali nafas xarakteri aniqlanadi: bola burun bilan nafas olyaptimi yoki og‘iz bilanmi.

Uch turdag‘i nafas ajratiladi:

- yuzaki nafas;
- ko‘krak bilan nafas olish;
- qovurg‘alardan pastda nafas olish (qorin bilan nafas olishi).

Yuzaki (o‘mrovli) nafasda nafas olganda qorin ichga tortiladi, yelkalar esa yuqoriga ko‘tariladi. Ko‘krak nafasida – nafas olish chog‘ida ko‘krak kengayadi. Qovurg‘alararo (diafragmal), nafasda – nafas olish chiqarish chog‘ida esa qorin torayib, ichkariga kiradi. Qovurg‘alar osti nafasi – diafragmal nafas nisbatan fiziologik hisoblanadi.

1. Nafas turini aniqlash.
2. Burun va og‘izdan nafas olishni ajrata olish malakasini tadqiq etish.
3. Havo oqimining yo‘naltira olinishini tadqiq etish.
4. Hova oqimi kuchini tadqiq etish.
5. Talaffuz nafasi xususiyatlarini tadqiq etish.

Nafas gimnastikasi umumiy nafas mashqlaridan boshlanadi. Uning asosiy maqsadi nafas hajmini oshirish va uning ritmini normallashtirishdar.

Bolaning og‘zi yopiq holda burun teshiklarini navbatma-navbat yopib na-fas olishga o‘rgatiladi. Nafas olishni chuqurlashtirish uchun bolaning burun teshigi yonida «nafas yelpig‘ichi» hosil qilinadi.

Burundan nafas chiqarishni o‘rganish bo‘yicha mashqlar o‘tkaziladi. Bolaga og‘zini ochmasdan «chuqur nafas ol va cho‘zib burun orkali chiqar» deb ko‘rsatma beriladi.

Keyingi mashqlar og‘izdan nafas olishni rivojlanirishga qaratiladi. Logoped bolaning burnini yopib alohida unli tovush yoki bo‘g‘inlarni talaffuz qilishni so‘rashga qadar og‘izdan nafas olish taklif qilinadi.

Nutqiy nafasni korreksiyalashda «qarshilik mashqlaridan» ham foyda-laniladi. Bola og‘izdan nafas oladi. Logoped nafas olishga qarshilik qilgandek 1-2 sekund davomida qo‘lini bolaning ko‘kragiga qo‘yadi. Bu ancha chuqur va tez nafas olishga va uzoq nafas chiqarishga imkon yaratadi.

Nafas mashqlari har kuni 5-10 daqiqa davomida o‘tkaziladi. Ushbu mashq-larni bajarishda nafas chiqarish vaqtida logoped unli tovushlarning turli qatorini talaffuz qiladi va bolani unga taqlid qilishga undaydi va bunda ovozni balandligini o‘zgartirali. So‘ngra bolani undosh tovushlarni alohida va unli tovushlar bilan birgalikda talaffuz qilishga undaydi.

Dinamik va statik nafas mashqlari mavjud.

Nafas mashqlarini o‘tkazishda bolaning toliqib qolmasligiga yelka va bo‘yin muskullarini taranglashtirmasligiga ahamiyat berish lozim. Mashqlar sanoq ostida yoki musiqa jo‘rligida bajarilishi lozim.

Nafas mashqlari ovqatlanishga qadar yaxshi shamollatilgan xonda o‘tka-ziladi.

Artikulyatsion harakat sezgilari va artikulyatsion praksisi rivojlan-tirish.

Harakat-kinestetik bog‘lanishlarni rivojlanirish uchun qo‘yidagi mashqlarni o‘tkazish zarur.

Pastki jag‘ni yuqoriga ko‘tarish va pastga tushirish. Tilni yuqori va pastki milklarga tekkizish. Logoped mashqlarni avval oyna oldida, so‘ngra oynasiz bajaradi, bolaning ko‘zları yumiq, logoped u yoki bu harakatlarni bajaradi, bola esa ularni nomlaydi.

Qo‘yidagi artikulyator - sensor sxemada mashq qilish zarur:

-lablar aro: lablar passiv jipslashadi va shu holatda ushlab tushish. Bolaning diqqati jipslashgan lablarga qaratiladi va undan lablar o‘rtasi-dan ularning jipslovini buzib puflash taklif qilinadi;

-lab-tish aro: chap qo‘lni ko‘rsatgich barmog‘i bilan logoped bolaning yuqori labining tepa tishlarini ko‘rsatib ko‘taradi, unq qo‘linint ko‘rsatgich barmog‘i bilan pastki labni yuqori milklarigacha ko‘taradi va bolaga puflash taklif qilinadi;

-til-tish aro: til tishlar o'rtasiga qo'yiladi va shu holatda ushlab turiladi;

-til-tanglay: bolaning boshi bir muncha orqaga egiladi, tilning orqa qismi qattiq tanglayga ko'tariladi, boladan yo'talish harakatlarini bajarish so'raladi va diqqati til xamda tanglay sezgilariga qaratiladi.

Artikulyatsion praksisni rivojlantirishda erta boshlangan logopedik ish, bolaning nutqiy tajribasini kengaytirish va boyitish, maxsus bo'yin mashqlari katta axamiyat kasb etadi.

Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutqiy nafasni rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan korreksion logopedik ishlarda logoped tomonidan bir nechta logopedik mashg'ulotlar tashkil qilinadi. Logopedik mashg'ulotlarda nafas turini aniqlash bo'yicha, burun va og'izdan nafas olishni ajrata olish malakasini rivojlantirish bo'yicha, havo oqimining yo'naltira olinishni rivojlantirish bo'yicha, hova oqimi kuchini rivojlantirish bo'yicha, talaffuz nafasi xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha ishlar olib boriladi.

#### A) Nafas turini aniqlash bo'yicha logopedik mashg'ulot turi

Mashg'ulot uchun jihozlar: Bola o'tirgan, yotgan, turgan holatda bo'lishi mumkin bo'lgan tinch holati.

Mashg'ulotning borishi: Bolaga kushetkada tinch holatda o'tirish, yotish yoki turish taklif etiladi. Logoped qo'llarining bittasi yelkada, boshqasi esa qorinda turadi. Bolaning tinch holatdagi nafas olishi chog'ida tanasining qaysi qismi ko'tarilayotganligi aniqlanadi. Agar yelkalari ko'tarilayotgan bo'lsa, bu yuzaki o'mrov nafasidir. Agar nafas olish chog'ida qorin ko'tarsa, bu diafragmal nafas olishdir. Agar ko'krak kengaysa, bu nafas olishning ko'krak turidir.

Ko'rsatma: "Kushetkada tinch holatda yotib tur. Logopedning qo'llari sen qanday nafas olayotganini tekshiradi".

#### B) Burun va og'izdan nafas olishni ajrata olish malakasini rivojlantirish bo'yicha logopedik mashg'ulot turi

Ko'rsatma: "Qanday nafas olishni bilishingni: nafas olish va nafas chiqarishni ko'rsat. Diqqat bilan eshit va takrorla".

Burningdan nafas ol (gulni hidla) – burningdan nafas chiqar (2-3 marta). Bu holatda og'iz yopiq turadi.

Burningdan nafas ol, og'zingdan nafas chiqar (qo'llaringni isit) (2-3 marta).

Og'zingdan nafas ol (baliqqa o'xshab) – og'zingdan nafas chiqar

(qo'llaringni isit).

Og'zing bilan nafas ol, burning bilan esa nafas chiqar.

#### V) Havo oqimining yo'naltira olinishni rivojlantirish bo'yicha logopedik mashg'ulot turi

Jihozlar: pufakcha, paxtali kaptokcha, tug'ilgan kunlar uchun mo'ljallangan shamlar.

Ko'rsatma: "Qanday puflay olishingni ko'rsat".

- Mana koptok, mana bu esa darboza. Koptokni puflab darbozaga gol ur.
- Mana pufakcha, unga shunday puflaginki u balandga uchsin.
- Mana sham, uni tug'ilgan kunga yoqishgan. Shamni bir urinishda o'chirchi.

#### G) Hova oqimi kuchini rivojlantirish bo'yicha logopedik mashg'ulot turi

Jihozlar: Qirrali qalam, puflanuvchi garmoshka.

Ko'rsatma: "Qani sen qanchalik kuchli puflay olishingni sinab ko'ramiz".

- Mana qalam (20 sm oraliqda), unga shunday puflaginki, u stolda dumalab ketsin. Buning uchun burning bilan nafas ol va qalamga qarab kuch bilan pufla. Lablaringni karnaycha qilib cho'z.

- Mana puflama garmoshka, unga kuchli shunday kuchli puflaginki, ovoz chiqsin.

#### D) Talaffuz nafasi xususiyatlarini rivojlantirish bo'yicha logopedik mashg'ulot turi

1) Bir nafasda so'zлari ko'payib boruvchi gaplarni qaytarish.

Mashg'ulotning borishi: Bolaga burun orqali nafas olish va nafas chiqarish chog'ida gapni talaffuz qilish taklif etiladi.

Ko'rsatma: "Diqqat bilan gapni eshit va uni takrorla. Gapni bir nafasda to'g'ri aytishga harakat qil".

1. Qiz gul rasmini chizyapti.
2. Qiz qalamlar bilan gul rasmini chizyapti.
3. Qiz qalamlar bilan chirolyi gul rasmini chizyapti.
4. Qiz rangli qalamlar bilan chirolyi gul rasmini chizyapti.
- 2) Bir nafasda takror bo'g'inli iboralarni qaytarish.

Mashg'ulotni borishi: Bolaga burun orqali nafas olish va nafas chiqarish chog'ida takror bo'g'inli iboralarni aytish taklif qilinadi. Ekperiment o'tkazuvchi topshiriqni bajarishning namunasini ko'rsatadi.

Ko'rsatma: "Diqqat bilan takror bo'g'inli iboralarni eshit. Burun orqali nafas ol va nafas chiqarish chog'ida uni mendek takrorla".

sa-sa-sa – mana sizga issiq somsa.

ish-ish-ish – o'lkamizga keldi qish.

za-za-za – suv to'la ko'za.

3) Bir nafasda avtomatlashgan qatorni qaytarish.

Ko'rsatma: "Bir nafasda birdan o'ngacha sana".

4) Qisqa she'rini qaytarish.

Mashg'ulotni borishi: Qisqa she'rni o'qishda, bola nafasning qaysi fazasida nutqni boshlayotgani qayd etiladi. Fonatsiya va nafas koordinatsiyasining mavjudligi belgilanadi. Shuningdek, fonatsiya va nafasning diskoordinatsiyasi ham aniqlanadi.

Ko'rsatma: "She'rni chiroyli, ifodali, to'xtash kerak bo'lgan joylarda to'xtab, huddi bayramdagidek o'qib ber".

Nok-mevalar asli,

Erta pishar hosili.

Shirinligi huddi bol,

Pishganini terib ol.

Ishkomlarga bir qarang,

Husaynilar rang-barang.

Uni suvgaga chayib yeng,

Bog'boniga raxmat deng.

## 7§. KORREKSION - PEDOGOGIK ISHLAR TIZIMI. TOVUSHLAR TALAFFUZINI KORREKSIILASH

Reja:

1. Dizartriya nutq kamchiligidagi korreksion - pedagogik ishlar tizimi.
2. Tovushlar talaffuzini bartaraf etish (R tovushi).
3. Tovushlar talaffuzini bartaraf etish (SH tovushi).

Tovushlar talaffuzini bartaraf etishda yakka yondoshish tamoyilidan foydalilaniladi. Tovushlar talaffuzini bartaraf etishda va nutqqa qo'yish yakka holda tanlanadi. Bir nechta tovushlar ustida ishslash ishda izchillikni talab etadi. Tuzatish ishida birinchi navbatda artikulyatsion jihatdan oson talaffuz etiladigan tovushlar yoki tuzatish oson bo'lgan tovushlar tanlab olinadi. Bu tovushlar; a, p, u, m, k, n, x, b, o, t, s, l. Ushbu tovushlar ustida ishslash jarayonida ularni talaffuz normasigacha keltirish mumkin. Yuqorida ko'rsatilgan tovushlar ustida ishslash bilan bir vaqtida fonematik eshituvni rivojlantirish va tovushlar analizi malakalarini shakllantirish ustida ham ish olib boriladi.

Artikulyatsion buzilishlarning og'ir hollarida tovushlarni nutqqa qo'yish maxsus yordamni talab etadi. Bunda logoped kō'rish, taktil-vibratsion sezishdan foydalangan holda u yoki bu tovushning talaffuzi uchun zarur bo'lgan harakatni bajarishni bolaga tushuntiradi va yordam beradi. Masalan, anartriyada logoped «u» tovushi artikulyatsiyasini hosil kilish uchun bola lablariga qo'lini yaqinlashtiradi.

Tovushlarni nuqtaga qo'yish ustida ishlaganda logoped aniq bo'lmasa ham tovushni to'g'ri talaffuz darajasiga yaqinlashtirishi lozim. Dastlabki vaqtarda normal talaffuzga erishish qiyin. Bu vaqt da bolaning o'xshash tovushlarni uzlashtirishi, ularni farklashi juda muhimdir. Tovushlarni normal talaffuziga yakinlashtirish darajasi artikulyatsion apparatning jarohatlanish dàrajasi bilan ~~an~~ aniqlanadi. Har bir yangi tovush ustida ishslashda, uning artikulyatsion xususiyatlarini o'rganish zarurdir, ya'ni artikulyatsiyaning asosiy xarakterli belgilari, uning boshqa tovushlardan farqli tomoni, artikulyatsiyani boshqalari bilan solishtirish.

Muntazam mashqlar olib borilishi tovushni kerakli artikulyatsion

tartibga yaqinlashtiradi va to‘liq tovush talaffuziga o‘tiladi. Logoped sekin-asta o‘rganilayotgan tovushni aniq va turli talaffuz etishni talab etib boradi.

Artikulyatsion motorika va tovushlarni nutqga qo‘yish ustida ishlashdan tashqari, fonematik eshituvni rivojlantirish uchun xam muntazam ravishda ish olib boriladi. Bunda bolalar unli tovushlar qatoridan kerakli unli tovushlarni, undosh tovushlar qatoridan undosh tovushlarni ajratishga va analiz qilishga o‘rganadilar. Bolalar o‘rganadigan tovushlarni turli bo‘g‘inlar birikmalarida qaytarishga, bo‘g‘in va so‘z hosil qilgan tovushlarni aytish, ularning ketma-ketligini aniqlashga o‘rganib boriladi.

Talaffuz mashg‘ulotlarida artikulyatsion apparat a’zolarini rivojlan-tirishga qaratilgan ishlar frontal tarzda olib boriladi. Foydalaniladigan mashqlar bolalarning individual rivojlanishlarini nutqiy holatlarini hisobga olgan holda tanlab olinadi. Bundan tashqari mashg‘ulotlarda nafas mashqlari ham olib boriladi. Mashg‘ulotlarning asosiy qismi o‘rganilgan tovushni alovida va bo‘g‘inlar birikmasida talaffuz etishga, mustahkamlashga ajratiladi. Logoped o‘tilganlarni bola qanday o‘zlashtirganligini doimo tekshirib bormog‘i lozim. Buning uchun boladan u yoki bu tovush uchun xarakterli bo‘lgan artikulyatsiya a’zolari holatini aytib berish yoki ko‘rsatib berish taklif etiladi, so‘ng tovushni alohida va so‘zlarda talaffuz etish so‘raladi. Tovushlar ustida olib borilayotgan mashqlar ko‘rvu va taktil idrok etish ostida nazorat qilib boriladi.

Bu davrda yana artikulyatsion belgilari bo‘yicha bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan tovushlar differensiysi ustida mashqlar o‘tkaziladi.

- 1) og‘iz va burin tovushlar differensiysi (p-m);
- 2) burunli tovushlar guruhi o‘rtasida tovushlar differensiysi (m va n);

- 3) portlovchi tovushlar guruxida tovushlar differensiysi (k-x)
- 4) unli tovushlar differensiysi (a, u, o, u)
- 5) portlovchi va qorshiq tovushlar differensiysi (t-s)


Bu mashqlar jarayonida boshqa tovushlarning o‘zlashtirish uchun asos yaratiladi.

Endigi davrda artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo‘lgan tovushlar ustida ish olib boriladi. Bu jarangli shovqinli undoshlar,

qorshiq va «r» tovushidir. Bu davrda ishni muvaffaqiyatli olib borilishida fonematik eshituvni yetarli rivojlantirilganligi, tovushlar analiz malakasining birmuncha shakllanganligi asosiy rol o‘ynaydi. Bolalar bu davrga kelib tovushlarni yaxshi ajrata oladilar. Bolalar nutq faolligi, tovushlar analiz malakasi sezilarli darajada oshadi.

«R», «SH», «J» tovushlarni bolalar aniq, yaxshi talaffuz qilishda qiynaladilar. Lekin ularni farqlashda qiyinchiliklar kam kuzatiladi. Bu davrda xam tovushlar differensiysi ustida ishlashga maxsus vaqt ajratiladi. Bu vaqtda s-z, sh-j tovushlar differensiysi ustida ish olib boriladi. Bunda bolalar tovushlarni bir biridan xatosiz ajratishga o‘rganganliklariga logoped ishonch hosil qilgach, tovushlarni burin va so‘zdagi o‘rinlarini aniqlashga qaratilgan mashqlarga o‘tadi. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuzi, fonematik eshituvni rivojlantirish, tovushlar analiz malakasini shakllantirish ustida olib borilgan muvaffaqiyatli ishlar, dizartrik bolalarning yozuvni o‘zlashtirishlari uchun asos bo‘ladi.

### Tovushlar talaffuzini bartaraf etish (R tovushi)



### R tovushini nutqga qo‘yish (postanovka)

*Ta‘limiy maqsad:* R tovushining tugri talaffuzini shakllantirish, mazkur tovushni xosil kilish mexanizmi va uning akustik xususiyatlari Bilan tanishtirish;

*Tarbiyaviy maqsad:* Bolaga mashg‘ulot vaktida intizom saklashni, kursatmalarni tugri bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish va mustaxkamlashni tarbiyalash. O‘z nutkini nazorat kilishni tarbiyalash.

*Korreksion maqsad:* Artikulyatsion apparat va barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish. To‘g‘ri nutqiy nafas va kinestetik sezgilarni shakkantirish. Fonematik idrok, so‘zlarning tovush va xarf analizni rivojlantirish.

*Jihoz:* logopedik zondlar, spirt, paxta, rasmlar to‘plami.

*Vaqt:* 15 20 daqiqa

*Kompetensiya:* hosil kilgan ko‘nikmani mustaqil bajara olishi.

#### Tashkiliy kism

Salomlashish

-ob-havo, yil fasli, oy va kun xakida suhbat;

-bolaning dikkatini mashg‘ulotga karatish

#### Artikulyatsion mashqlar

Logopedik massaj. (agar lozim bo‘lsa)

Muskullar falaji yoki parezi turiga kura differensiyalangan logo-pedik massaj turlaridan biri bajariladi.



“Tabassum” mashqi



“Ninacha” mashqi



“Soatcha” mashqi

lab mashqlari: "to‘sinqcha", "xartumcha", "pufak", "tabassum".

xolatlarini Bir necha bor takrorlang. o, f u, i ye, tovushlarini kuylash

O-----f-----u-----i-----ye-----

til mashklari: "kizikuvchi tilcha", "bo‘yoqchi", "koptakcha", "shirin murabbo", "kosa", "garmoshka", "do‘mbira", "qo‘zikorin". Har bir mashkini 5-6 martatadan bajarish.

ovozi va nafas mashqlari: "pufakcha", "samovar", "charxpakalni xarakatni keltir" bunda bola burindan chuqur nafas olib ogizdan chuzib chikaradi va charxpakal xarakatga keladi.

Asosiy qism

1. “R” tovushining ovozsiz artikulyatsion holatiga keltirish;



Logoped:-bolalar, xozir hammamiz uz shaxsuy kuzgumizga qarab meni kursatmamga kura xarakatlar bajaramiz. Tayormisizlar?, Unda boshladik.

Tilimizning uchini tema tishimiz tomon kutaramiz

Tishlarimizni bir barmoq oralig‘ida yakinlashtiramiz.

Lablarimiz kulgu xolatida.

Til chiqib ketmaydi, uning yon tomonlari tepe tishlarga taqalib turadi.

(Bu xolatni a’lo darajaga yetkazgach keyingi bosqichga o‘tiladi)

2. *Tovushni nutqga qo‘yish jarayoni*

A. Taqlid usuli: R tovushining ovozsiz holatiga erishgach logoped Bolaga: - Endi shu xolatda chuqur nafas olib men bilan birga, menga uxshab tilingni uchiga kattiu uflab r r r r r deb ayt.

R-r-r-r r r r

Ovozni kuchaytirib, tr-r-r r r r r r r r

(Agar taqlid usuli ish bermasa mexanik usuldan foydalaniladi)

B. Mexanik usul: Novikovaning sharikom zondi bilan bolada R tovushining ovozsiz xolatini tutib turib Z-z-z----z yoki tz-z-z-z z z z z z ariga



taqlidan tovushini ataka bilan ayttirib turib tilning ostki tomoni dan uchini tebratamiz.



Undan tashqari til ostini tebratish davomida d-d-d-d-d yeki t-t-t-t-t yoki tzing-tzing-tzing degan holatda til vibratsiyani chaqirish mumkin. Bunda tilni tebratayotib r-r-r, tr-r-r-r, dr-r-r-r yoki tring-tring-tring degan "dutor" ga



taqlidan tovushlar eshitiladi. Shu holatni shakllantirgach keyingi bosqichga o'tish mumkin. Agar til vibrtsiyasiga erishilmasa keyingi bosqichga o'tish qat'yan man etiladi.

### 3. Taqlid orqali tovushining alohida talaffuzini mustahkamlash

- "Mototsikl" mashqini bajarish. Bunda bolaga mototsikl rasmi ko'rsatiladi :

- Kel endi biz sen bilan mototsiklda sayr qilamiz tr-r- r r (logoped va



bola)

- kuchukchaning jaxli chiqqanida qanday ovoz chikaradi, kel bir galikda bajaramiz.

R R R R R R (logoped va bola) .

Mana, hozir talaffuz etganining R tovushi edi. Endi sen xam R tovushini ayta olasan, deb aytamiz.

### 4. Tovush va harfni bog'lash

-R xarfini havoda chizamiz.

- R dan buginlar yozamiz (diktant yoki ko'chirib yozish)  
Jismoniya daqiqa.

Umumiy yoki barmoklar mashqlarining istalagan turini mavzuga oid bajarish mumkin. Logoritmik elementlarini xam o'tkazish mumkin

### 5. Mavzuni mustaxkamlash

#### Fonematik idrokni rivojlantirish:

" R tovushini tutib ol" Mashqi .

-Men hozir senga har xil tovushlar aytaman, sen fakat R tovushini eshitsang chapak chalasan.

Logoped o'z labini ekran bilan yopib turib r, s,m, n,r ,k, i, r, z, l, r, sh, t, d, r. tovushlar qatori talaffuz qilinadi, bola tutib oladi.

" Bo'g'inlarda tovushlarini tutib ol" o'yinini bajarish.

Pa, ra, ta, ga, da, .....kabilar

#### Tovushni bo'g'inlarda mustaxkamlash.

"R ning do'stlar bilan uchrashuv" uyini.

A-----r., O-----r., U-----r, i-----r.....

Yoki turli bo'g'inlarda r----a, o----r kabi...

(R tovushini talaffuz etayotgan bolaning artikulyatsion holati nazoratda tutib turiladi)

### 3. So'zlarda tovush va harf analizni rivojlantirish.

R tovushi ishtirot etgan rasmlarni ajratish.

-Men senga rasmlar kursataman, sen esa ularni nomla

So'ng logoped bolaga rasmlarni beradi va deydi:

- Endi sen shu rasmlar ichidan r ishtirot etgan rasmni topasan va mana bu savatchaga solasan.

Bola bajaradi, logoped nazorat kiladi. Ora-orada logoped savol berib turadi:- sen hozir nima qilding....? kabi.

#### R tovushni ni so'zli kartochkalar yordamida ajratish:

Logoped bolaga so'zli kartochkalar beradi va huddi shunday R tovushi ishtirot etganlarini ajratishni nazorat qiladi.

R tovushining so'zdagi holati ustida ishslash:

**Logoped:-** Men senga hozir so‘zlar aytaman , sen esa R tovushini so‘zning qayerida eshitilayotganini aniqlaysan, so‘z boshidami, o‘rtasidagi, oxiridami...

**Raxmat -** (so‘z boshida)

**Arqon-** ( so‘z o‘rtasida)

**Tomir-** (so‘z oxirida). Deb javob berishdi kerak).

**Mashg‘ulotni yakunlash**

**Mashg‘ulotga xulosa kilish:** mana biz sen bilan kaysi tovushini to‘g‘ri talaffuz etishni o‘rgandik?

**Uyga vazifa berish:**

Barcha o‘rganganlarini kuniga uch marotaba takrorlash.

**Rag‘batlantirish.**

### **“R” tovushini nutqda mustahkamlash (avtomatizatsiya)**

**Ta’limiy maqsad:** R tovushining to‘g‘ri talaffuzini shakllantirish, mazkur tovushni hosil qilish mexanizmi va uning akustik xususiyatlari bilan tanishtirish;

**Tarbiyaviy maqsad:** Bolaga mashg‘ulot vaqtida intizom saqlashni, ko‘rsatmalarni to‘g‘ri bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish va mustahkamlashni tarbiyalash. O‘z nutqini nazorat qilishni tarbiyalash.

**Korreksion maqsad:** Artikulyatsion nutq apparat va barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish. To‘g‘ri nutkiy nafas va kinestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, so‘zlarning tovush va harf analizni rivojlantirish.

**Jihoz:** rasmlı kartochkalar, ovoz chiqaruvchi o‘ynichoqlar.

**Vaqt:** 15 - 20 daqiqa

**Tashkiliy qism**

Salomlashish bola diqqatini mashg‘ulotga qaratish

**Artikulyatsion mashqlar**

**Lab mashqi**

Larlarni cho‘chaytirish

**Til mashqi**

Soatcha mashqi

**Nafas mashqi**

Chuqur nafas olib naafas chiqarish

**R tovushini nutqda mustahkamlash**

-O‘tgan mashg‘ulotda sen bilan qaysi tovushni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgandik?

-Barakalla R tovushini to‘g‘ri talalaffuz etishni o‘rgandik.

-Eslab ko‘rchi R tovushini talaffuz qilganimizda lablarimiz, tilmiz, og‘iz holatini qanday bo‘ladi?

-Otni to‘xtatganda nima qilamiz?

**D r r r r r r**

-Kel birgalikda R tovushini bo‘g‘inlarda hosil qilamiz

Ar ro ir ur or ir

Ra or ri ru ro re

-Endi so‘zlarni hosil qilamiz.

Ra ra ra randa

Ro‘ ro‘ ro‘ ro‘mol

Ru ru ru ruchka

**Jismoniy daqqa**

-Kel endi birgalikda sakraymiz

-Avval o‘ng oyoq bilan ikki marta so‘ng chap oyoq bilan ikki marta sakraymaz.

-Barakalla.

**Fonematik idrokni rivojlantirish.**

-Meni diqqat bilan tingla hozir men senga bir qancha bo‘g‘inlarni talaffuz qilaman sen esa ular orasidan R tovushi ishtirot etgan bo‘g‘inni eshitsang bir marta chapak chalasan.

Ra ro sa ka lu shu ru

**Lug‘at ustida ishlash**

-Endi men senga bir qancha rasmlarni ko‘rsataman sen esa mana shu rasmlar ichidan R tovushi ishtirot etgan rasmlarni o‘ng tomonga R tovushi ishtirot etmagan rasmlarni chap tomonga qo‘ysan.

Masalan, karam, olma, nok, arra, ro‘mol, archa, jiyda, chelak.

**Mashg‘ulotni mustahkamlash**

Bunungi mashg‘ulot senga yoqdimi, bugun qanday rasmlarni ko‘rdik?

Qaysi tovushni mustaqamladik sen bilan?

Barakalla.

**Mashg‘ulotni yakunlash**

-Bugun sen yaxshi qatnashding senga **bitta yulduzcha** beraman

## Uy ga vazifa

-R tovushi ishtirok etgan 3 rasm topib kel.

## **“R” va “L” tovushlarni nutqda farqlash (differensiatsiya)**

*Ta’limiy maqsad:* “R” va “L” tovushlarni nutqda to‘g‘ri farqlashga o‘rgatish.

*Tarbiyaviy maqsad:* Bolani to‘g‘ri o‘tirishga o‘rgatish.

*Korreksion maqsad:* Artikulyatsion apparat va barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish. To‘g‘ri nutqiy nafas va kinestetik sezgilarni shakllantirish. Fonematik idrok, so‘zлarning tovush va harf analizni rivojlantirish.

*Jihoz:* rasmlar to‘plami, ovoz chiqaruvchi buyumlar.

*Vaqt:* 15 - 20 daqiqa

### Tashkiliy qism

Salomlashish bola diqqatini mashg‘ulotga qaratish.

### Artikulyatsion mashqlar

#### *Til mashqi*

Naycha mashqi

Kosacha mashqi

#### *Lab mashqi*

Lablarni cho‘chaytirish

#### *Nafas mashqi*


Og‘izdan nafas olib burundan nafas chiqarish.

### R tovushini bo‘g‘in va so‘zlarda mustahkamlash


O‘tgan mashg‘ulotda biz sen bilan R tovushini chiroyli talaffuz qilishga o‘rgangan edik. Kel birgalikda takrorlaymiz. R R R R R .

#### *Barakalla.*

Kel sen bilan zinacha o‘yinini o‘ynaymiz. R tovushi ishtirok etgan bo‘g‘inlarni asta sekinlik bilan pastdan tepaga talaffuz qilamiz.



Endi R tovushi ishtirok etgan bo‘g‘inlarni tepadan pastga ovoz qo‘shib talaffuz qilamiz.



-Barakalla.

### Jismoniy daqqa

-Bir oz charchagan bo‘lsang, kel o‘rningdan tur. Qani birgalikda R tovushini talaffuz qilib o‘rnimizda uch marta sakraymiz. R- R- R- R- R .

-Barakalla.

### R va L tovushlarni nutqda farqlash

-Hozir sen bilan samolyot o‘yinini o‘ynaymiz. Dastlab sen bilan samolyot motorinini yurgazamiz. R- R- R- R- R .

-Barakalla. Samolyot balandlikga ko‘tarildi qanday ovoz chiqadi? L L L L L .

-To‘g‘ri barakalla. L tovushini talaffuz qilganimizda lablar va til qanday holatda bo‘lar ekan? ( logoped L tovushini to‘g‘ri artikulyasiyasi oyna oldida ko‘rsatib o‘tadi).

Kel birgalikda R va L tovushlar ishtirok etgan bo‘g‘inlarni aytamiz.

ra la

ro lo


ru lu

### Jismoniy daqqa

-Kel endi men senga tovushlar qatori aytaman sen esa mana shu tovushlar qatoridan R tovushini eshitsang o‘ng tomonga sakraysan, L tovushini eshitsang o‘ng tomonga sakraysan.

### Fonematik irokni rivojlantirish.


-Bir qancha rasmlarni ko‘rsataman sen esa meni diqqat bilan tinglab mana shu rasmlardan R tovushini ishtirok etganini stolning yuqori qismiga qo‘ysan, L tovushini eshitsang stolning pastki qismiga qo‘ysan.



Fil




Laylak




Lola



Sigir



Ruchka



Ari

-To‘g‘ri barakalla.

-Tahlil qilish.

-Hozir men senga so‘zlarni aytaman, sen mana shu so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lib berasan. Masalan, arra, ko‘ylak, laylak, ruchka, ari, sigir, lola, asal.


#### Mashg‘ulotni yakunlash.

Bugun sen mashg‘ulotda yaxshi ishtirok etding, barakalla.

#### Uyga vazifa.

-Uyda R va L tovushlarni takrorlab kelgin.

#### SH tovushini nutqga qo‘yish (postanovka)



*Ta‘limiy maqsad:* bolaga SH tovushini to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatish.

*Tarbiyaviy maqsad:* gavdani to‘g‘ri tutishga, diqqat bilan tinglashga o‘rgatish.

*Korreksion maqsad:* fonematik idrokni rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish.

*Jihoz:* logopedik zondlar, spirt, paxta, ovoz chiqaruvchi o‘yincholar, rasmlar to‘plami.

*Vaqt:* 15 20 daqiqa.

*Tashkiliy qism*


Salomlashish, bola diqqatini mashg‘ulotga qaratish.

Artikulyatsion mashqlar.

Til mashqlari.



“Qo‘ziqorin” mashqi



“Iloncha” mashqi

## Lab mashqlari



**“Deraza” mashqi**



**Lablarni kulgi holatiga keltirish**

## Nafas mashqlari

Og‘izdan nafas olib og‘izdan chiqarish  
Burundan nafas olib og‘izdan chiqarish  
Paxtani sekin asta puflash.

### Asosiy qism

-Kel sen bilan bugun sayrga chiqamiz. Sen bilan sayrga til bilan chiqamiz. Sayr hayvonot bog‘iga bo‘ladi. Kel birgalikda tasavvur qilib ko‘ramiz. Hayvonot bog‘ida qanday hayvonlarni uchratamiz?

-Bárakalla. U yerda ibzlar, sher, yo‘lbars, maymun, ilnlarni uchratamiz.

-Ilondan mana bunday tovush chiqadi.

SH SH SH SH.

-Barakalla. Yur men senga shar olib beraman. Senga qanday ranganlar yoqadi?

-Mana senga yashil shar. Shar juda chiroyli ekan.

-Voy sharimizni teshigi bor ekan.

-Shar puchayotganda qanday ovoz chiqaradi?

SH SH SH SH SH

-Qo‘y xafa bo‘lma, men senga yana shar olib kelaman.

-Endi biz uyimizga qaytamiz.

-Kel, birgalikda SH tovushini to‘g‘ri talaffuz etib ko‘ramiz.

-SH tovushini talaffuz qilganimizda, lablarimiz aylana shaklda va bir oz oldinga cho‘ziladi. Tishlarimiz bir ibiriga jipslashgan, bir biringa tegmaydi. Ularni oralig‘i 2 - 3 mm, tishlarimiz ko‘rinib turadi.

Tilning uchi esa, muallaq holda bo‘lib, salgina qisqaradi va yozilib tepe tishlarga tomoni ko‘tariladi. Havo oqimi tilning o‘rtalidan tekis chiqib ketadi, kaftimiz bilan esa iliq havo oqimini sezamiz. Qani endi, birgalikda SH tovushini talaffuz etib ko‘ramiz.

SH SH SH SH SH.

-Agar bola SH tovushini talaffuz qilishga qiyalsa u holda mexanik uusuldan foydalanamiz.

Jismoniy daqiqa.

Shamol bo‘lib esamiz,

Gullar bo‘lib o‘samiz

Quyon bo‘lib sakraymiz.

Fonematik idrokni rivojlantirish

-Hozir men senga bir nechta tovushlarni aytaman, sen esa meni diqqat bilan tingla, shu tovushlar ichidan SH tovushini eshitsang, stolni bir marta urasan.

SH, R, S, SH, L, SH.

-Barakalla.

Lug‘at ustida ishlash.

-Hozir men senga bir qator rasmlarni ko‘rsataman sen esa ulardan SH tovushi qatnashgan rasmlarni ajratib berasan. So‘ng birgalikda shu rasmlarni nomlaymiz. Masalan, shaftoli, sharf, gul, raketa, shaxmat, guldon.

-Barakalla.

Mashg‘ulotni mustahkamlash.

-Qani aytchi bugun sen bilan qanday tovushni to‘g‘ri talaffuz etishni o‘rgandik?

-Barakalla, SH tovushini talaffuz etishga o‘rgandik. SH tovushini talaffuz etganda lablarimiz, tishlarimiz, tilmiz qanday holatda bo‘lar eka?

-To‘g‘ri, barakalla.

Mashg‘ulotni yakunlash.

-Senga buguni mashg‘ulotmiz yoqdimi? Sen bugun yaxshi ishtirok etding senga 2 ta yulduzcha beraman.

Uyga vazifa.

-Uyda SH tovushini talaffuzni qaytarasan.

## SH tovushini nutqda mustahkamlash (avtomatizatsiya)

*Ta'limiyl maqsad:* SH tovushini bo'g'in va so'zlarda mustahkamlash.

*Tarbiyaviy maqsad:* gavdani to'g'ri tutishga va mashg'ulotni diqqat bilan tinglashga o'rgatish.

*Korreksion maqsad:* fonematik idrokni va barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish.

*Jihoz:* Rasmlar to'lpami, kichik varrak, ovoz chiqaruvchi o'yinchoqlar.

*Vaqt:* 15 20 daqiqa

### Tashkiliy qism

Salomlashish, bola diqqatini mashg'ulotga qaratish.

Artikulyatsion mashqlar.

### Til mashqlari

"Naycha" mashqi

"Saot" mashqi

### Lab mashqlari

Lablarni cho'chaytirish

Lablarni kulgi holatiga keltirish.

### Nafas mashqlari

Kiçhik varrakni puflash.

### Asosiy qism


#### SH tovushini nutqda mustahkamlash

-Qani eslab ko'ramiz o'tgan mashg'ulotda sen bilan qanday tovushni to'g'ri talaffuz etishga o'rgandik?

-To'g'ri, barakalla SH tovushini. SH tovushini talaffuz qilganimizda tilimiz, lablarimiz, tishlarmiz qanday holatda bo'lar ekan, ko'rsatib berchi.

-To'g'ri, barkalla.

-Kel endi birgalikda "O'rtoqlar" o'ynini o'ynaymiz. Sen SH tovushiga unli tovushlarni o'rtoq qilib ko'rasan.



-Endi esa SH tovushi ishtirok etgan bo'g'irlarni bir necha bor aniq va to'g'ri talaffuz qilamiz va bo'g'irlardan so'zlarni hosil qilamiz.

Sha sha sha shamol osh osh osh oshpaz

Sho sho sho sholg'om shi shi shi qish

Shi shi shi shirin ush ush ush qush

Jismoniy daqqaq

-Hozir sen bilan o'yin o'ynaymiz. O'ynimiz "Shamol o'yini" deb nomlanadi. Shamol qanday ovoz chiqaradi? SH SH SH SH SH .

Fonematik idrokni rivojlantirish

-Hozir men senga bir qator bo'g'irlarni aytman, sen esa shu bo'g'irlar ichidan SH tovushini eshitsang bir marta chapak chalasan. SHA, RU, SO, SHI, SHA, SHO, DA.

Lug'at ustida ishlash

-Hozir men senga bir qator rasmlarni taqdim etaman, sen shu rasmlar ichidan SH tovushi qatnashgan rasmlarni savatga solasan. So'ngra SH tovushi ishtirok etgan so'zlarni bo'g'irlarga birgalikda ajratamiz. Masalan, sholg'om shol - g'om, 2 ta bo'g'in 2 ta unli 4 undosh.

### Mashg'ulotni mustahkamlash

-Bugun sen bilan qaysi tovushni nutqimizda mustahkamladik?

-To'g'ri, barakalla.

### Mashg'ulotni yakunlash

-Sen bilan bugun nima ishlar qildik?

-To'g'ri barakalla.

### Uyga vazifa

-SH tovushiga oid rasmlar topib kel.

## **“SH” va “S” tovushlarni nutqda farqlash ( differensiatsiya)**

*Ta’limiy maqsad:* “SH” va “S” tovushlarni nutqda farqlashga o’rgatish.

*Tarbiyaviy maqsad:* bola diqqatini mashg’ulotga qaratish, gavdani to‘g’ri tutishga o’rgatish.

*Korreksion maqsad:* fonematik idrokni, barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish.

*Jihoz:* SH va S tovushlar tasvirlangan harfli kartochkalar, rasmlar to‘plami.

*Vaqt:* 15-20 daqiqa

### **Tashkiliy qism**

Salomlashish, bola diqqatini mashg’ulotga qaratish.

Artikulyatsion mashqlar.

### ***Til mashqlari***

Naycha mashqi

Saot mashqi

### ***Lab mashqlari***

Lablarni cho‘chaytirish

Lablarni kulgi holatiga keltirish.

### ***Nafas mashqlari***

Kichik varrakni puflash.

### **Afsosiy qism**

#### **SH va S tovushlarni nutqda farqlash**

-Bolaga sharni rasmi ko‘rsatiladi va uni nomlash so‘raladi. Shar puchayib ketsa qanday ovoz chiqaradi?

SH SH SH SH SH

-Qani aytchi velosiped baloni puchaysa qanay ovoz chiqaradi?

S S S S S.

-Boladan SH tovushini artikulyatsiyasi so‘raladi. So‘ngra SH va S hamda S va SH tovushlarni birgalikda talaffuz qildiriladi.

S - SH, SH - S.

-SH va S tovushlarni so‘zlarda farqlashga o’rgatiladi.

Kasb- kashf tush - tus

Sim -shim soli- sholi

Jismoniy daqiqa

-Harakatli o‘yinlar bajariladi.

## **Fonematik idrokni rivojlantirish**

-Senga hozir bir qancha so‘zlarni talaffuz qilaman sen esa ular ichidan SH tovushini eshitsang o‘ng tomondagi qutiga, S tovushini eshitsang chap qutiga solasan. Masalan: sham, sholg‘om, sim, ruchka, arra, sharf, archa, uzuk, sigir.

Tovushlarni tahlil qilish

-Hozir men senga bir qator so‘zlarni aytaman. Sen menga so‘zlarni qaysi bo‘g‘inlarda SH va S tovushlarni qatnashganini aytсан.

SH: sham, qoshiq, mosh, shar.

S: soat, gilos, savat, sabzi.

Mashg’ulotni mustahkamlash

-Qani aytchi sen bilan bugun qaysi tovushlarni farqlashni o‘rgan-dik? SH va S tovushlari.

-To‘g’ri barakalla.

Mashg’ulotni yakunlash

-Bugun sen mashg’ulotda yaxshi ishtirok etdik sen bitti yulduzcha beraman

Uyga vazifa

-SH va S tovushlarni takrorlab kel va rasmlar topib kelgin.

## **Savol va topshiriqlar:**

1.Dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishda tovushlarni nutqga qo‘yishda korreksion logopedik ishlar o‘rnii?

2.Dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishda tovushlarni nutqga mustahkamlashda korreksion logopedik ishlar?

3.Dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishda tovushlarni nutqda farqlash korreksion logopedik ishlar?

## **Tayanch tushunchalar:**

Artikulyatsion motorika – bu nutq a’zolarining harakatchanligi hisoblanadi (til, lablar, yumshoq tanglay, pastki jag‘, lunjlar).

Differensiatsiya – frans, differentiation, lot, differentia – farqlanish, farqlash.

## 8§. KORREKSION - PEDOGOGIK ISHLAR

### TIZIMI. UMUMIY MOTORIKA VA BARMOQLAR HARAKATCHANLIGINI RIVOJLANTIRISH

**Reja:**

1. Umumiylar harakatchanligini rivojlantirish bo'yicha logopedik ish.
2. Barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish bo'yicha logopedik ish.

Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda umumiylar harakatchanligi rivojlantirish lozimdir. Ushbu logopedik ishlarni tashkil qilish vaqtida dizartriya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning yakka xususiyatlari inobatga olinadi. Korreksion - logopedik ishlarni tashkil qilish orqali bolalarning umumiylar harakatchanligini rivojlantirish bo'yicha ishlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda umumiylar harakatchanligini rivojlantirishda logopedik o'yinga murojaat qiladi. Chunki, logopedik o'zinorqali bolani har tomonlama rivojlantirish mumkin, jumladan bolaning nuiq ham logopedik o'zinorqali rivojlanadi.

O'yinlar maktabgacha yoshidagi bolalar uchun eng yaqin, eng sevimli mashg'ulardan biri sanaladi. O'yin bolalar uchun ermak emas, balki bolalarning kuch va qobiliyatini o'stirishga yordam beradigan muhim vositadir. Bolalar o'yin jarayonida tevarak-atrofdagi hayot va tabiat hodisalari bilan tanishadilar, narsalarning o'ziga xos xususiyatlarini bilib oladilar. Bolalar tevarak-atrofdagi ko'rgan narsalarini o'yinda ifodalab, har xil harakatlarni bajaradilar, ko'rgan bilganlarini o'zlaricha faol talqin qilishga harakat qilib, pirovardida ifodalananayotgan narsalarini yaxshiroq tushunib, bilib oladilar.

O'yin davomida bolalar yuradilar, sakraydilar, yuguradilar, o'rmalaydilar, biron buyumni irg'itadilar, natijada ularning muskullari rivojlanadi va sezgi organlari rivojlanadi, ular organizmining hayet faoliyati yanada o'sadi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar o'yin vaqtida o'rtoqlari bilan, kattalar bilan, o'yinchoqlari bilan gaplashadilar, jamoa bo'lib o'ynaganlarida har bir bolaning nima ish qilishi kerakligini birgalikda muhokama qiladilar. Bular bolalarning nutq va fikrlash qobiliyatini

o'sishga, saviyasi kengayishiga, xotirasini mustahkamlashga yordam beradi. O'yinda bolaning irodasi, o'z harakatlarini o'yin qoidasiga bo'ysundira olish ko'nikmasi o'sadi, u o'zini qo'pol (hatti-harakatlar qilishdan tiyadi, zarur bo'lganda chaqqon harakat qilishga (bekinish, yugurish, tez fikrlar va og'ir ahvoldan qutulib keta olish chorasini topishga) o'rganadi. Umuman, bolalar jamoa holda o'yinlar o'ynar ekanlar, ular bu jarayonda jamoa orasida o'zini qanday tutish qoidalarini o'rganadilar, uyushqoqlik bilan o'yin o'ynash ko'nikmalarini hosil qiladilar. O'z zimmalariga tushgan rollarni bajarishda katta ma'suliyatni his etishga odatlanadilar. O'yinning muhim xususiyati shundaki, bolalar egallab olishlari qiyin bo'lgan bilim va ko'nikmalarini o'yin orqali osongina o'zlashtirib oladilar. Bola faoliyati jarayonida o'ziga zavq uyg'otadigan yorqin, ohangdor narsalar bilan o'ynashga intiladi. Bola sezgi organlari orqali idrok etgan tevarak-atrofdagi narsa va tabiat hodisalari uning xotirasida tasavvur tarzida saqlanib qoladi. O'yinga rahbarlik qilish degani o'yinni shunchaki chetdan kuzatib turish va unga chetdan turib ishtirot etish degani emas, albatta. Logoped o'yin xususiyatlarini hisobga olgan holda o'ziga xos yo'llar bilan rahbarlik qilish kerak.

Logoped o'yinga rahbarlik qilib, o'yin mazmunini boyitadi, bolaning ijodiy qobiliyatini o'stiradi, yaxshi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Shunday qilib, o'yin bolalarni har tomonlama rivojlantirish vositalaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Har xil guruh yoshidagi bolalar bilan o'tkazilgan o'yinlar turli-tuman bo'lib, ularning bir-biridan farqi katta. 5-6 yoshli duduqlanuvchi bolalar bilan o'tkaziladigan harakatlari o'yinlarning ko'pi syujetli o'yinlar bo'lib, unda bolalar muayyan bir qoidaga (masalan: quyon inidan ma'lum signaldan so'nggina chopib chiqishi mumkinligiga) rioya qilgan holda ayiq, quyonning yurishi singari harakatlarini bajardilar. Logoped bolalar bilan ko'pincha birgalikda o'ynab, ularni o'yin qoidasini bajarishga odatlantiradilar. Shu bilan bir qatorda syujetsiz o'yinlar ham o'tkaziladi, bunda chopish, sakrash, muvozanat saqlashni mashq qiladilar. Ular har bir harakatni endi ilgarigiga qaraganda qoidaga rioya qilgan holda bajaradilar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkin, harakatlari o'yin nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning harakat qilishiga bo'lgan zaruriy ehtiyojini qondiruvchi eng sevimli va qiziqarli faoliyatdir.

Dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalar bino ichida ham, ochiq havoda ham sayrga chiqqanlari mumkin. Harakatli o'yinlarni o'tkazishda guruh xonasi yoki zaldan foydalinish mumkin. Buning uchun guruh xonasida ko'proq joy qoldirish: bolalarming erkinroq harakat qila olishga imkon yaratish maqsadida stollarni xonodon tashqariga olib chiqish, qolgan mebellarni iloji boricha chetraqda surib qo'yish lozim. Tez ta'sirlanadigan, haddan tashqari harakatchan bolalar alohida e'tiborni talab qiladi: ular bilan kam harakatlanuvchan organlarni harakatga keltiradigan harakatli o'yinlarni tez-tez o'ynab turish zarur. Quyidagi o'yinlarni umumiy motorikani rivojlantirish uchun tavsiya qilinadi

*Umumiy motorika harakatchanligini rivojlantirish bo'yicha logopedik ish*

### «Arg'imchoq» o'yini.

O'yinning maqsadi: Nutqiy nafasni meyorlashtirish, umumiy va nutqiy motorikasini rivojlantirish, muvozanatni saqlash.

O'yinning borishi: Bolalar juft-juft bo'lib, qo'l ushlashib, navbat bilan o'tirib turadilar. Harakatga muayyan ritm, sur'at qo'shish uchun she'r aytish mumkin.

Arg'imchoq, arg'imchoq,  
Senda uchsam ko'nglim choq!

O'yin ishtirokchilarining o'tirib-turishiga, qaddini to'g'ri tutishga e'tibor berish lozim.

### “Doira” o'yini.

O'yinning maqsadi: Umumiy va mayda qo'l motorikasini rivojlantirish, harakatlarni faollashtirish.

O'yinning borishi: Bolalardan biri qiziqchi etib tayinlanadi. U davra o'rtasida turadi. Qolgan bolalar qo'l ushlashib, doira bo'ylab yuradilar va

*Doira bo'ylab*

*Ketma-ket*

*Boramiz qadam, baqadam,*

*Joyingizda to'xtangiz,*

### *Birgalikda hammamiz, mana bunday qilamiz.*

deyishadi. Bolalar to'xtab, qo'llarini tushiradilar. Qiziqchi biror harakatni qilib ko'rsatadi, qolgan hamma bolalar bu harakatni takrorlaydilar. O'yinni 2-3 marotaba takrorlaydilar, qiziqchi o'z o'mniga o'yinchilardan birini tayinlaydilar, so'ngra o'yin yana davom ettiriladi. O'yin 3-4 marotaba takrorlanadi. Qiziqchilar bir harakatni takroramay, balki xilma-xil harakatlarni takrorlashi kerak.

### «Aks-sado» o'yini

O'yinning maqsadi: Mushaklar tonusini faollashtirish umumiyl va nutqiy motorikani rivojlantirish.

O'yinning borishi: Logoped bolalarni ikki guruhga bo'ladi. Birinchi guruh quyidagi she'rni aytadi:

*Biz o'rmonga boramiz  
Qo'ziqorin teramiz  
Baqirib chaqiramiz AU! AU! AU!  
Hech javob kelmas bizga  
Aks-sado kelar bizga.*

Ikkinci guruh esa past ovozda AU! AU! AU! Deb.javob beradi. Keyin bolalar joylarini almashtirishadi. O'yin davomida bolalar past va baland ovozda gapirishga o'rgatib boriladi<sup>1</sup>.

Quyidagi topshiriqlar orqali dizartriya nutq nuqsoniga ega bolalar umumiy motorikasini rivojlantirish mumkin:

- Topshiriq. Bolaning umumiy tana muvozanatini ushlay olish va oyoq harakatlarini tekshirish.

Polga uzun arqon yotqiziladi, boladan shu arqon ustidan yurish so'raladi (5, 6 qadam).

- Topshiriq. Bolaning bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o'tish holati va tezligini aniqlash.

Boladan avval o'ng oyoqda 2 marta sakrash so'ngra chap oyoqda 2 marta sakrash so'raladi.

- Topshiriq. Bolaning umumiy motorikani rivojlanganlik holati hamda qo'llarning aniq harakatlarni bajarish holatini tekshirish.

<sup>1</sup> Z.M.Ahmedova, M.Y.Ayupova, M.P.Xamidova. "Logopedik o'yin" darsligi. Toshkent 2007 y.

## «Koptok» o'yini.

O'yining maqsadi: Umumiy motorikani rivojlantirish, harakatlarni faollashtirish.

O'yining borishi: Bolalar aylana shaklida turib, koptok o'ynaydilar.

Baland-balad uchgin (to'pni yuqoriga otadilar),  
Yuza bo'ylab sen chopgin (to'pni polga otadilar).

Chaqqon bo'lib sakragin (to'pni polga uradilar),  
Sho'xlik qilib yayragin (to'pni bir-biriga oshiradilar).

O'yin davomida bolalar harakat bilan birga so'zlarni talaffuz etib boradilar. Logoped esa bolalarning nutqi va harakatning to'g'ri bajarilishini kuzatib boriladi, kerak bo'lganda xatolar tuzatiladi.

### Barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish bo'yicha logopedik ish

Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarning umumiy motorikani rivojlantirish bo'yicha bir qancha topshiriqlardan foydalanish samara beradi.

- topshiriq. Bolaning qo'l harakatlarini tekshirish.

"Avval o'ng qo'lingni so'ng chap qo'lingni ko'tar".

- topshiriq. Qo'llarning uloqtirish va ushlab olish tezligini tekshirish.

«Koptokni do'stingga uloqtir va do'sting senga uloqtirgan koptokni ushlab olishga harakat qil 1 marta»

- topshiriq. Bolaning oyoq harakatlarini tekshirish.

"Avval o'ng oyog'ingni so'ng chap oyog'ingni ko'tar".

- topshiriq. Bolaning ikkala oyoq bilan bir vaqtda harakatlanishni tekshirish.

Logoped boladan bir joyda 2 marta o'tirib turishni so'raydi.

- topshiriq. Bolaning ikkila qo'l bir vaqtda harakatlanishni tekshirish.

Logoped boladan ikkala qo'lini tepaga va pastga 2 marta ko'tarib tushurishni so'raydi.

- topshiriq. Bolaning tana muvozanatini ushlay olish va oyoqlar harkatini rivojlanganlik holatini aniqlash.

Polga uzun lenta yotqiziladi, so'ngra boladan shu lenta orqali yurish so'raladi ( 5, 6 qadam).

- topshiriq. Butun tana vazinining yotgan holda harakatlanishi tekshirish.

Boladan gilam ustiga yotib avval o'ng tomonga bir marta so'ng chap tomonga bir marta dumalash so'raladi.

- topshiriq. Bolaning qo'l harakati yordamida aniq geometrik shallarni chiza olishni tekshirish.

Logoped boladan oq qog'izga uch burchak chizish so'raladi.

- topshiriq. Bolaning geometrik shakl chizish orqali barmoqlar uchi va predmetni ushlay olish harakatini tekshirish.

Boladan oq qog'ozga to'rt burchak chizish so'raladi.

- topshiriq. Bolaning qo'l harakatini va barmoq uchlari harakatini aniqligini tekshirish.

"Uchburchak yasash" mashqi. Stol ustiga gugur cho'plari yoyilib qo'yiladi, logoped tomonidan bolaga gugurt cho'pidan foydalangan holda uch burchak yasash so'raladi (avval logoped ko'rsatib beradi).

Maqsad: Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish, nutq kamchiliklarni bartaraf etish va fonetik - fonematik nutqni rivojlantirishdir.

Kutiladigan natija: Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda mayda qo'l motorikasi bilan birgalikda nutqni rivojlantirish, shuningdek fonetik- fonematik nutqni rivojlantirishdan iborat.

Jihozlar: Ayiq va quyon hayvonli yumshoq o'yinchoqlar va ularning tugmalari.

O'yinni qo'llash jarayoni: Bolalar oldiga qo'yilgan ayiq va quyon o'yinchoqlar ustidagi kiyimni tugmasini qadab qo'yish so'raladi. Tugmalarni qardashda ketma-ketlikda riosa etish lozim bo'ladi. So'ngra boladan nimani bajarganini gapirib berishi kerak.

Erishilgan natija: Bolalarda nutq bilan birgalikda mayda qo'l motorikalari va fonetiko - fonematik nutq rivojlanadi.

Maqsad: Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda og'zaki nutqni rivojlantiriladi, barmoqlar harakati va ularning sezgirligi hamda fonetiko -fonematik nutq rivojlantiriladi.

Kutiladigan natija: Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq kamchiliklari bartaraf etiladi. Barmoqlar harakati va sezgirligi shuningdek, fonetiko-fonematik nutqi rivojlanadi.

Jihozlar: Kichik oyoq kiyimlar va ularning bog'ichlari.

O'yinni qo'llash jarayoni: Bolalar stol atrofida o'tirib oladilar. Stolga bir nechta kichik oyoq kiyimlar qo'yilgan bo'lib, logoped ularni bog'ichini to'g'ri bog'lashni so'raydi. Bog'ichni bog'lash logoped bilan birlgilikda bajariladi va bajarayotgan ish vaqtida bolalar nimani qilayotganini gapirib berishi kerak.

Erishilgan natija: Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda nutq kamchiliklari bartaraf etiladi. Barmoqlar harakati va sezgirlingi shuningdek, fonetiko-fonematik nutqi rivojlanadi.

Maqsad: Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda barmoq uchlaringin sezgirlingini, barmoqlar harakatchanligi va fonetiko-fonematik nutqni rivojlantirishga qaratiladi.

Kutiladigan natija: Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda barmoq harakati va sezgirlingini oshirish, fonetiko-fonematik nutqni rivojlantirish.

Jihozlar: Illiq suv, sovuq suv va idishlar.

O'yinni qo'llash jarayoni: Bu pedagogik texnologiyani olib borishda illiq va sovuq suv kerak bo'ladi. Bolaning barmoq uchlari avval illiq suvga so'ng sovuq suvga ketma-ketlikda solish va bolandan nimani sezgani so'raladi (texnologiyani bajarishdan oldin bolaning sog'ligi yaxshi bo'lishi kerak).

Erfshilgan natija: Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda barmoq harakati va sezgirlingini oshadi, fonetiko-fonematik nutqni rivojlanadi.

#### Savol va topshiriqlar:

1.Dizartriya nutq kamchilagini bartaraf etishda umumiylar motorikani rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan logopedik ishlar ahamiyati?

2.Dizartriya nutq kamchilagini bartaraf etishda barmoqlar harakatchanligini rivojlantirishning o'rni?

3.Dizartriya nutq kamchiligida umumiylar motorika va barmoqlar harakatchanligini rivojlantirishning bog'liqligi nimadan iborat?

#### Tayan tushunchalar:

Umumiylar motorika - bu umumiylar tana harakatining rivojlanishi.

## 9 §. KORREKSION - PEDOGOGIK ISHLAR TIZIMI. FONEMATIK IDROKNI RIVOJLANTIRISH

#### Reja:

1. Dizartriya nutq kamchiligidagi korreksion pedagogik ishlar tizimida fonematik idrokni ahamiyati.
2. Dizartriya nutq kamchiligidagi fonematik idrokni rivojlanish.

Fonematik idrok faoliyatini tekshirish bola nutqining barcha tomonlari lug'ati, fonetik idrok, grammatic tuzilishini rivojlanish rejasida olib boriladigan logopedik ish uchun zarurdir.

Dizartriya nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda tovushlarni farqlay olmaslik xarakterlidir. A.E.Jurova va D.B.Elkonin, G.A.Kashe, N.I.Jinkin, T.B.Filicheva va G.V.Chirkina, L.R.Momnova, M.Y.Ayupova ishlariga asoslangan holda fonematik idrokni tekshirish deganda, biz bolalarning nutq tovushlарини yig'indisida (tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar qatori) tanib olish, farqlab olish, tahlil va tarkib qilish qobiliyatini nazarda tutdik. Topshiriqlar tovushlarni, bo'g'inlarni va so'zlarni minimal, o'rtacha hamda va maksimal farq qilish bo'yicha murakkablashib borgan tartibda berildi.

Dizartriya nutq kamchiligiga ega bolalarning fonematik idrokini holatini, uning buzilish sabablarini tekshirishda noto'g'ri talaffuz etiladigan tovushlar bilan bir qatorda, to'g'ri talaffuz qilinadigan tovushlarni farqlash imkoniyatini beradi.

Har bir bola alohida tekshiriladi va tekshirish natijalari nutq kartasiga qayd etib boriladi. Bolalarga topshiriqlar og'zaki usulga beriladi. Fonematik idrokni tekshirishda maxsus logopedik albomdan foydalangan holda, quyidagi topshiriqlarni foydalilanadi:

- Nutqiy bo'Imagan tovushlarni farqlash. Bunda bolalarga turli hayvonlar rasmli berilib, ular orasidan eshitgan tovushga mos rasmni topishi so'raladi.
  - a) mushukning miyovlashi;
  - b) kuchukning vovullashi;
  - v) qo'zichoqning marashi;
  - g) sigirning mo'rashi;
  - d) xo'rozning qichqirishi.
- Bir qator tovushlar ichidan ma'lum tovushni ajratish: "K"

tovushini eshitsang qo'ng'iroqchani chal.

- a) s, d, k, r, j, k, l, z, k
- b) z, k, m, v, k, ch, t, k, g
- v) q, x, k, f, r, k, d, p, k

• Bir qator bo'g'inlar ichidan ma'lum bo'g'inni ajratish: "za" bo'g'innini eshitsang qo'ng'iroqchani chal.

- a) ka, ta, za, ra, ga, za
- b) da, za, la, cha, za, sa
- v) pa, sa, za, ba, ja, za

• Bir qator so'zlar ichidan "sh" tovushi ishtirok etgan so'zlarni eshitsang chapak chal.

- a) bosh, bol, shoh, tor, shar
- b) olma, tesha, dala
- v) shamol, pashsha, kalish

• Logoped ketidan bo'g'inlar qatorini qaytarish: "Eshit, men talaffuz qilaman, sen takrorlaysan". Bunda faqat unli tovushlar o'zgarib boradi.

- a) sa, so, si, su, so'
- b) ka, ko, ki, ku, ko'
- v) ma, mo, mi, mu, mo'

• Logoped ketidan bo'g'inlar qatorini takrorlash. Bunda undosh tovushlar o'zgarib boradi.

- a) ma, ka, sa, la, ba, ta
- b) so, ro, zo, mo, do, sho
- v) du, ku, zu, gu, ru, lu

• Artikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin tovushlarni logoped ketidan qaytarish:

z-s, s-z, d-t, t-d, b-p, p-b, sh-j,  
j-sh, k-g, g-k, r-l, l-r, ch-j, j-ch

• Artikulyatsion jihatdan bir-biriga yaqin bo'g'inalarni logoped ketidan takrorlash:

a) za-sa, sa-za, da-ta, ta-da, ba-pa, pa-ba, sha-ja,  
ja-sha, ka-ga, ga-ka, ra-la, la-ra, cha-ja, ja-cha  
b) za-sa-za, ba-pa-ba, ta-da-ta, sha-ja-sha,  
va-fa-va, ra-la-ra, cha-ja-cha, ga-ka-ga...

• Bir tovush bilan farq qiladigan so'zlarni logoped ketidan takrorlash:

a) gul-kul, bol-pol, tuz-tus, jar-shar...

b) jo'ja-go'ja, etik-eshek, sayr-sayl...

v) kitob-shitob, bolta-bolg'a, tovush-tovus...

• Bir tovush bilan qiladigan so'zlarga rasm tanlash: "man bu rasmlar ichidan nomi bir tovush bilan farq qiladigan rasmlarni ajratib ber".

Olma-olcha, stol-stul,  
paxta-taxta, shapka-shashka, mashina-malina...

Fonematiq tasavvurni tekshirish. Bunda bolalarni quyidagi topshiriqlar yordamida tekshirdik.

1) Nomlari oppozitsion tovushlar bilan boshlanadigan buyumlarga oid rasmlarni ikki guruhga ajratish. Masalan, s-sh, s-s, ch-s, z-j, r-Y. "Menga nomi s tovushi bilan boshlanadigan rasmlarni chap tomonga ajratib ber". Bu topshiriqda bolaga "s" va "sh" tovushi so'zning boshida kelmagan hamda umuman qatnashmagan rasmlar ham berildi.

2) Nomlari jarangli va jarangsiz tovushlar bilan boshlanadigan predmetlarga oid rasmlarni ikki guruhga ajratish. Masalan, z-s, v-f, d-t, b-p, k-g, j-sh.

3) Berilgan tovush ishtirokida so'z tuzish: "Menga "k" tovushi ishtirok etgan so'zlarni aytib ber". Bolaga namuna tarzida "k" tovushi ishtirok etgan bir so'z aytildi.

4) Ma'lum tovushga rasm tanlash: "man bu rasmlar ichidan nomida "l" tovushi ishtirok etgan rasmlarni bir tomonga ajratib ber".

*Tovushlar tahlilini tekshirish*. Tovushlar tahlilini tekshirishda quyidagi topshiriqlardan foydalanildi:

• topshiriq. So'z boshidagi tovushni aniqlash: "men aytgan so'zlarimni eshitib ularning birinchi tovushini aytasan".

a) ariq, odam, uzuk, uzum, o'rik, echki...

b) shamol, bahor, karam, ro'mol...

v) daftar, maktab, telpak, qo'lqop...

• topshiriq. So'zdagi kerakli tovushlarni aniqlash: "eshitgan so'zlarining orasida "d" tovushi so'zning qayerida kelganini ayt".

Topshiriq bolaga bir misol yordamida tushuntirib beriladi.

a) doska, deraza, dazmol...

b) oydin, parda, bug'doy...

v) poyezd, zumrad, poroxod...

- topshiriq. Tovushning so‘zdagi o‘rnini aniqlash: “eshitgan so‘zingda uchinchi (ikkinchi, to‘rtinchi) bo‘lib qanday tovush kelyapti?”.

a) arqon, oshpaz, anjir...

b) buzoq, ro‘mol, kalit

- topshiriq. Tovushning so‘zdagi keima-ketligini aniqlash:

a) ota, choy, gul, til...

b) buvi, kosa, soat, piyoz...

v) gilos, sochiq, zirak, randa...

- topshiriq. So‘zdagi tovushlar sonini aniqlash: “eshitgan so‘zingda nechta tovush bor?”.

a) ot, in, un, el, ip, oy, it...

b) ari, bir, don, fil, tish...

v) sigir, tulki, ruchka, gilam...

*Tovushlar tarkibini tekshirish.* Buning uchun bolalarga quyidagi topshiriqlar berildi:

- topshiriq. Ketma-ket tovushlardan bo‘g‘inlar tuzish: “men tovushlar aytaman, sen ular ishtirokida bo‘g‘in hosil qilasan”.

D, a, t, a, z, a, m, i, g, i, a, r, i, r...

- topshiriq. Ketma-ket tovushlardan so‘z tuzish: “men tovushlar aytaman, sen ular ishtirokida so‘z tuzasan”.

a) ch-o-l, k-o‘-z, q-u-sh, s-o-ch...

b) b-o‘-r-i, a-r-ch-a, e-ch-k-i.

v) p-i-ch-o-q, q-o-g‘-o-z, t-o-v-u-s.

- topshiriq. Ketma-ketligi buzilgan tovushlardan so‘z tuzish:

a) ya, u, t, (tuya, uyat); o sh, b (bosh); g, z, o (g‘oz)

b) o, l, b, a (bola); ch, l, o, a (olcha); r, o‘, k, i, (o‘rik)

v) b, u, z, q, o (buzoq); t, r, a, u, n (turna); l, a, n, g, a (lagan)

Tekshirish davomida tekshirilayotgan har bir tovushga alohida rasm tanlandi. Rasmlar quyidagi prinsiplarga asoslangan holda tanlandi:

- Ma’lum bir tovush ishtirok etgan rasm;
- ma’lum bir tovushga yaqin tovush ishtirok etgan rasm;
- Ma’lum bir tovush ishtirok etmagan rasm.

### Savol va topshiriqlar:

1. Fonematik tasavvurni tekshirish logopedik ishlardan iborat?

2. Tovushlar tahlilini tekshirishda logopedik ishlarning ahamiyati nimadan iborat?

3. Fonematik idrokni tekshirishda qanday ovoz chiqaruvchi jihozlardan foydalaniladi?

4. Nutqiy va nutqiy bo‘lmagan tovushlar nimalardan iborat?

### Tayanch tushunchalar:

Fonematik idrok – bu nutq tovushlarni farqlash.

Artikulyatsiya - lot.articilo, tilshunoslikda: muayyan tovushni hosil qilishda nutqning harakati, holati, ishtiroki.

## MUSTAQIL O'ZLASHTIRISH UCHUN MATERIALLAR

Nutqiy nafasni rivojlantirishga oid logopedik mashqlar

### KICHIK GURUH

#### “Kuz yaproqlari” o‘yini

O‘yin maqsadi: Bolalarda to‘g‘ri va uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish.

Topshiriq: Bolalar kuz yaproqlarini yerga tashlab turib, ularga puflaydilar. Logoped shu vaqtida she’rni o‘qiydi:

Qanday go‘zal lahma bu!

Deya o‘ylar zulmatda  
Uni kutib turganlar.  
Tog‘lar cho‘qqisi uzra  
Chiqib keldi kuzgi oy.

#### “Quyosh” o‘yini

O‘yin maqsadi: Bolalarga og‘iz va burundan taranglashmagan tinch nafas olish malakalarini hamda tana muskullarini bo‘shashtirishni o‘rgatish.

Topshiriq: Bolalar yerga yotib, oyoqlar birga, qo‘llar pastga tushurilgan, tanalarini bo‘shashtirgan holda tinch yotadilar.

Bir maromda nafas olish, chiqarish.

Logoped she’rni o‘qiydi:

Quyoshda yotamiz tovlanib,  
Quyoshga tomon boqib.  
Bizga iliq juda soz,  
Biz yotamiz yana bir oz.

### O‘RTA GURUH

#### “Shamol” o‘yini

O‘yin maqsadi: Bolalarga nafas chiqarish kuchini ajratishga hamda uzoq nafas chiqarish malakalarini his etishga o‘rgatish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:  
Og‘izdan nafas olish – qo‘llarni yuqoriga ko‘taradilar.

Pauza – nafasni ushlab turadilar.

Nafas chiqarish vaqtida qo‘llarni tebratib “F” tovushini talaffuz qiladilar.

Logoped she’rni o‘qiydi:

Men shamol, kuchli shamol,  
Esaman turli tomon.  
Xohlagan yerimga uchuman,  
Xohlagan yerimni puflayman.  
Meni ko‘rarsiz har yerda,  
Meni eshitasiz har joyda.

#### “Yaproqlar” o‘yini

O‘yin maqsadi: Bolalarda nafas chiqarish kuchi malakalarini o‘rgatishni davom ettirish hamda qisqa nafas chiqarishni faollashtirish ko‘nikmalarini hosil qilish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:  
Og‘izdan nafas olish – qo‘llarni yuqoriga ko‘taradilar.

Pauza – nafasni ushlab turadilar.

Bir nafas chiqarish vaqtida “p” tovushini bir necha bor talaffuz etadilar, zinasimon nafas chiqarish orqali qo‘llarni asta-sekin pastga tushuradilar (“yaproqlar to‘kilyapti”).

#### “Shamol shovqini” o‘yini

O‘yin maqsadi: Bolalarga burundan nafas olishga hamda og‘iz va burun nafasni farqlashga o‘rgatish.

Topshiriq: Bolalar burun va og‘iz orqali bir tekisda nafas chiqarishib, “sh-sh-sh” talaffuz qiladilar (huddi shamol shovqini eshitilgandek).

#### “Majnuntol” o‘yini

Boshim egik Majnuntol,  
Majnuntolman, majnuntol.  
Dam olsangiz soyamda,  
Men sizlardan mammun tol.

O‘yin maqsadi: Bolalarda nafas chiqarish kuchi ko‘nikmalarini o‘rgatishni davom ettirish, og‘izdan uzoq nafas chiqarish malakalar-

ini rivojlantirish, fazoda mo'ljal olish va diqqatini bir yerga jamlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

To'g'ri turadilar.

Og'izdan nafas olish – qo'llar ikki tomonga yoyilgan.

Og'izdan nafas chiqarish – o'ng tomonga egilish.

Og'izdan nafas olish – oldingi holatga qaytish.

Og'izdan nafas chiqarish – chap tomonga egilish.

To'g'ri turish holatiga qaytadilar.

### "Shamol, shamol...." o'yini

O'yin maqsadi: Bolalarga nafas chiqarish kuchi ko'nikmalarini o'rgatishni davom ettirish, burun hamda og'iz nafasini farqlash, og'izdan nafas chiqarish jarayonida to'g'ri va uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish.

Topshiriq: Bolalar shamol esishini imitatsiya qilib, yil fasllari jarayonida shamol kuchini farqlab, taranglashmagan holda burun orqali nafas oladilar, og'izdan nafas chiqaradilar.

Bahor faslida – shamol mayin va iliq bo'ladi.

F-F-F-F-F

Yoz faslida – shamol issiq bo'ladi.

x-x-x-x-x

Kuz faslida – shamol salqin bo'ladi.

s-s-s-s-s

Qish faslida – shamol sovuq va izg'irin bo'ladi.

v-v-v-v-v

### "Archa" o'yini

Archa, archa, jon archa,

Yaproqlaring niynacha.

Atrofingda aylanib,

Qo'shiq aytamiz barcha.

O'yin maqsadi: Bolalarga burundan va og'izdan nafas olishni farqlashga o'rgatish, og'izdan uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish, fazoda mo'ljal olish va diqqatini bir yerga jamlash malakalarini shakllantirish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

To'g'ri turib – oyoqlar ikki tomonga bir oz yoyilgan, qo'llar pastga tushurilgan-burundan nafas olish.

Og'izdan nafas chiqarish – oldinga egilish.

Burundan nafas olish – oldingi holatga qaytish.

Og'izdan nafas chiqarish – orqaga egilish.

### "Terak" o'yini

Men terakman,

Terakman,

Men hammadan

Kerakman.

Osmon mening

Yelkamda,

Men olamga

Tirkakman.

O'yin maqsadi: Bolalarga og'iz va burundan nafas olishni farqlash ko'nikmalarini o'rgatishda davom etish. Tinch, taranglashmagan holda og'izdan uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish. Bolalarga fazoda mo'ljal olish vaqtida o'z tana qismini maydonning qaysi qismida, yuqoridami yoki pastda joylashganligini farqlashga o'rgatish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

To'g'ri turish – oyoqlar jipslashib to'g'ri turgan, qo'llar pastga tushurilgan.

Burundan nafas olish – ikki tomonga yoyilgan qo'llar yuqoriga ko'tarilib, oyoq uchida turib olinadi.

Og'izdan nafas chiqarish – qo'llar oldinga cho'zilgan, sekinlik bilan cho'zilgan qo'llar oyoq uchiga egiladi.

To'g'ri turish holatiga qaytish.

### "Daraxt" o'yini

Yaproqlari - mayin,

Ildizlari – tosh kabi chayir.

O'yin maqsadi: Bolalarga og'iz va burundan nafas olishni farqlash ko'nikmalarini o'rgatishda davom etish. Tinch, taranglashmagan holda og'izdan uzoq nafas chiqarish malakalarini rivojlantirish. Bolalarga fazoda mo'ljal olish vaqtida o'z tana qismini maydonning qaysi qismida, yuqoridami yoki pastda joylashganligini farqlashga o'rgatish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

To'g'ri turib olinadi – oyoqlar jipslashib, to'g'ri turgan holda qo'llar boshning orqasida.

Og'izdan nafas olish – oyoq uchiga turish.

Burundan nafas chiqarish – pastga o'tirib, so'ng to'g'ri turish holatiga qaytish.

## KATTA GURUH

### "O'tinchi" o'yini

O'yin maqsadi: Bolalarga kuchli nafas chiqarishni farqlay olish ko'nikmalarini o'rgatishda davom ettirish, og'izdan kuchli nafas chiqarish malakasini tez-tez bajarishni rivojlantirish.

Topshiriq: Bolalar sxemadagi harakatlarni bajaradilar:

To'g'ri turib olinadi – oyoqlar ikki tomonga bir oz yoyilgan, qo'llar pastga tushurilgan.

Og'izdan nafas olish – qo'llar yuqoriga ko'tariladi.

Og'izdan nafas chiqarish – qo'llarni pastga tushurib, "ux-ux-ux" bo'g'ini kuchli, jarangli talaffuz qilinadi.

Bir – urdik, ikki – urdik,

Bir amallab o'tin qildik.

Ana urdik, mana urdik,

Ikkita o'tin hosil qildik.

### "Kuzgi shamol" o'yini

O'yin maqsadi: Bolalarga kuchli, bir tekisda, sekinlik bilan nafas chiqarishni farqlash ko'nikmalarini o'rgatishni davom ettirish, hamda kuchli, uzoq nafasni tovushlar bilan qo'llashni o'rgatmoq.

Topshiriq: Bolalar topshiriq asosida qisqa va bir tekisda nafas chiqarishni bajaradilar.

Logoped she'rni o'qiydi.

Sekin, bir tekisda uzoq nafas chiqarish.

Mayin shamol esmoqda – f-f-f-f-f

Yaproqlarni tebratib – f-f-f-f-f

Kuchli, uzoq nafas chiqarish.

Mayin shamol esmoqda – f-f-f-f-f

Yaproqlarni tebratib – f-f-f-f-f

Sekin, bir tekisda uzoq nafas chiqarish.

Kuzgi yaproqcha novdada o'tirib,

Kuzgi yaproqcha bolalarga gapirib.

Tovushlar orqali kuchli, uzoq nafas chiqarish.

Terak – o-o-o-o-o

Majnuntol – a-a-a-a-a

## TAYYORLOV GURUHI

### "Yomg'ir" o'yini

O'yin maqsadi: Bolalarga kuchli nafas chiqarishni rivojlantirish, og'izdan nafas chiqarishni to'g'ri yo'naltira olish malakalarini o'rgatishni davom ettirish hamda qo'l va yelka muskullarini tanaglashtirish va bo'shashtirish malakalarini hosil qilish.

Topshiriq: Bolalar doira bo'lib turib oladilar, she'r ostida qo'llari bilan yomg'ir imitatsiyasini "haydash" harakati bilan bajaradilar.

Nafas olish – oyoqlar birga, qo'llar pastga tushurilgan.

Nafas chiqarish – qo'l muskullarini bo'shashtirib, bir qo'lni yelka ustiga "tashlaydilar", so'ngra ikkinchi qo'lni ham yelka ustiga "tashlaydilar".

Bugun havo boshqacha,

Chunon og'ir, zil-zil.

Ertadan to kechgacha,

Yer uzra suv mil-mil.

## GLOSSARY

**Dislaliya** - termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis-buzilish, lalia-nutq degan ma'noni anglatadi.

**Fonetika** – yunoncha so'z bo'lib, tovushga, tovush chiqarishga oid, tovushli, ovozli.

**Fonologiya** – tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy va funksional qonuniyatları.

**Prognatiya-yuqori jag'** oldinga tomon chiqqan bo'ladi. Buning natijasida pastki oldingi tishlar yuqoridagi tishlar bilan birlashmaydi.

**Progeniya-pastki jag'** oldinga chiqqan bo'ladi.

**Sigmațizm** (grekcha «sigma» «s» harfining nomini bildiradi).

**Rotatsizm** (grekcha ro harfi nomidan olingan bo'lib, «r» tovushni bildiradi).

**Lambdatsizm**-(grekcha lambda harfini nomidan olingan bo'lib, l tovushini bildiradi).

**Uvilyar rotatsizm** (grekcha uvula-tilcha), bunda til uchi tebrani shi o'rniga, faqat tilcha tebranadi.

**Velyar rotatsizm** (grekcha velum-yumshoq tanglayning pastki chetiga yaqinlashadi va u yerda oraliq (tirqish) hosil bo'ladi.

**Kappatsizm** – K tovushini nutqda yo'qligi.

**Xitizm** – X tovushini nutqda yo'qligi.

**Gammatsizm** – G tovushini nutqda yo'qligi.

**Postanovka** - tovushlarni nutqga qo'yish.

**Avtomatizatsiya** - tovushlarni nutqda mustahkamlash.

**Defferensiatsiya** - tovushlarni nutqda farqlash.

**Dizartriya**- termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis-bo'lak, arthon-biriktirish degan ma'noni bildiradi.

**Anartriya** termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, a-yo'q, arthon-biriktirish degan ma'noni bildiradi.

**Bulbar dizartriya.** Uzunchoq miya-medullaoblongata- yana ikkinchi ancha eski nomga ham ega – bulbus cerebri – miya o'qining bir qismi piyoz boshchasi bo'laklariga bulbus, piyoz boshchasi tashki yuzasi bilan o'xshash sanaladi.

**Psevdobulbar dizartriya.** Periferik harakatlantiruvchi nevronlarning yadrosining o'zi nerv impulslarini miya po'stlog'idan markaziy harakatlantiruvchi nevronlir, boshqacha kilib aytganda pi-

ramida yo'li bilan qabul qiladi.

**Qobiqli dizartriyada** bosh miya qobig'ining o'choqli jarohatlanishi bilan bog'liq patogenezga ega nutqning motor kamchiliklar guruhi namoyon bo'ladi.

**Ekstrapiramidal dizartriya** (qobiq osti dizartriya). Ekstrapiramidal tizim tez, aniq va differensial harakatlarni bajarish imkonini beruvchi tayyorgarlik foniniavtomatik tarzda yaratadi.

**Antropofonik** - tovushni buzilib talaffuz kilish.

**Fonologik** - tovushni yo'qligi, tovushni almashtirish, differensial lanmagan talaffuz.

**Fizioterapiya** – yun. physis tabiat va therapy – davolamoq klinik tibbiyotning bir sohasi.

**Motivatsiya** – xatti harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiyadir.

**Ovoz** - grekcha so'z bo'lib, "tovush". Bu insonning gaplashish, kuylash, qichqirish, kulish, tovushlar oqomi bo'lib, balandligi, tembri va kuchi bilan farqlanadi.

**Artikulyatsion motorika** – bu nutq a'zolarining harakatchanligi hisoblanadi (til, lablar, yumshoq tanglay, pastki jag', lunjar).

**Differensiatsiya** – frans, differentiation, lot, differentia – farqlanish, farqlash.

**Umumiy motorika** - bu umumiy tana harakatining rivojlanishi.

**Fonematik idrok** – bu nutq tovushlarni farqlash.

**Artikulyatsiya** - lot.articilo, tilshunoslikda: muayyan tovushni hosil qilishda nutqning harakati, holati, ishtiroki.

## ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi  
O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza  
qilish vazirligining  
Qarori

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya  
shoxobchasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil  
26 oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2722]

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 43-  
son, 550-modda)

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'lijni saqlash vazirligi hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi qaror qiladi:

1. Umumiy o'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Xalq ta'limi vaziri

U. INOYATOV  
Toshkent sh.,  
2015 yil 25 sentabr,  
22-mh-son

A. ALIMOV  
Toshkent sh.,  
2015 yil 25 sentabr,  
36-son

Sog'lijni saqlash vaziri

Mehnat va aholini ijtimoiy  
muhofaza qilish vaziri

A. ABDUHAKIMOV  
Toshkent sh.,  
2015 yil 25 sentabr,  
39-QQ-son

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
Sog'lijni saqlash vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy  
muhofaza qilish vazirligining 2015 yil 25 sentabrdagi  
22-mh, 36, 39-QQ-son qaroriga ILOVA

Umumiy o'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya  
shoxobchasi to'g'risidagi  
NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonunlariga muvofiq, umumiy o'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasinining (bundan buyon matnda logopediya shoxobchasi deb yuritiladi) faoliyat yuritish tartibini belgilaydi.

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Logopediya shoxobchasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarini (bundan buyon matnda umumta'lim muassasasi deb yuritiladi) boshlang'ich sinf o'quvchilarining fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini o'zlashtirishlariga to'sqinlik qiluvchi nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etish, jismoniy va psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalash, o'quvchilarining og'zaki nutqidagi nuqsonlarini bartaraf etishda, ularning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishida pedagoglar va o'quvchilarining ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga (bundan buyon matnda ota-onalar deb yuritiladi) yordam ko'rsatish uchun tashkil etiladi.

2. Logopediya shoxobchasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, ushbu Nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

Logopediya shoxobchalarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

3. Logopediya shoxobchasing vazifalari quyidagilardan iborat:  
o'quvchilarining fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini o'zlash-tirishlariga to'sqinlik qiluvchi nutq nuqsonlarining oldini olish va

ularni bartaraf etish;

murakkab nutq nuqsoniga ega bo'lgan, jismoniy va psixik rivojanishida kamchiliklari bo'lgan o'quvchilar bilan korreksion mashg'ulotlarni olib borish;

mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning nutq a'zolarini tizimli ravishda kuzatib borish;

o'quvchining o'quv dasturlarini ongli ravishda tanlashi va o'zlashtirishiga ko'maklashish;

o'quvchilar nutq nuqsonlarining oldini olish va ularni bartaraf etishga doir logopedik bilimlarni ta'lim jarayoni ishtirokchilar, o'qituvchilar va aholi o'rtasida targ'ib qilish.

## **2-bob. Logopediya shoxobchasiga qabul qilinadigan o'quvchilar ro'yxatini shakllantirish**

4. Logopediya shoxobchasiga qabul qilinadigan o'quvchilarni aniqlash va saralab olish uchun har yili sentabr oyining 3-sanasiga qadar umumta'lim muassasasi direktorining buyrug'iga muvofiq ishchi guruh tuziladi.

5. Ishchi guruh kamida 5 nafardan iborat tarkibda quyidagicha tuziladi:

ishchi guruh raisi — umumta'lim muassasasining direktori;

ishchi guruh raisi o'rinosari — umumta'lim muassasasining psixologi (umumta'lim muassasasida psixolog bo'limganda boshqa shaxsga yuklatiladi);

ishchi guruh a'zolari — umumta'lim muassasasi biriktirilgan logopediya shoxobchasi mudiri, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va umumta'lim muassasasiga biriktirilgan tibbiyot xodimi;

ishchi guruh kotibi — boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan biri.

6. Logopediya shoxobchasiga og'zaki nutq nuqsonlari va tovushlar talaffuzida kamchiliklari aniqlangan, tashxis natijalari quyidagi cha bo'lgan o'quvchilar qabul qilinadi:

I va III darajali nutqi to'liq rivojlanmagan I sinf o'quvchilari; tovushlar talaffuzida kamchiliklari bo'lgan I — IV sinf o'quvchilari;

nutq apparati a'zolarining tuzilishi va harakatida nuqsonlari (rinaloliya, dizartriya, duduqlanish) bo'lgan I — IV sinf o'quvchilari.

7. Nutqiy rivojlanishida kamchiligi bo'lgan o'quvchilarning jis-

moniy va psixik holatlariga aniqlik kiritish maqsadida ular tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi mutaxassislari (nevropatolog, psixonevrolog, otolaringolog va boshqalar) tekshiruviga yuboriladi. Ushbu mutaxassislarning xulosalari logopediya shoxobchasida (o'quvchining shaxsiy yig'ma jildida) saqlanadi.

8. Ishchi guruh tomonidan nuqsonlari aniqlangan o'quvchilar ro'yxati umumta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadi va sentabr oyining 15-sanasigacha xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limiga taqdim qilinadi.

O'quv yili davomida og'zaki nutq nuqsoni va tovush talaffuzida kamchiliklari mavjud bo'lgan o'quvchilar aniqlanganda, ular ishchi guruh tomonidan mazkur Nizomda belgilangan tartibda logopediya shoxobchasiga qabul qilinadi.

## **3-bob. Logopediya shoxobchalarini tashkil etish**

9. Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limining O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni va pedagogik-psixologik diagnostikasini metodik ta'minlash kichik guruhi umumta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan o'quvchilar ro'yxati asosida har yili sentabr oyining 25-sanasiga qadar tegishli tuman (shahar) bo'yicha logopediya shoxobchalarining soni va ularning joylashuv dislokatsiyasini ishlab chiqadi.

10. Logopediya shoxobchasi tegishli xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limi mudirining buyrug'i bilan tashkil etiladi.

11. Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limi mudirining buyrug'iga muvofiq har bir logopediya shoxobchasiga bir yoki bir nechta yaqin masofada joylashgan umumta'lim muassasalari biriktiriladi.

Bir nechta umumta'lim muassasalari biriktirilgan logopediya shoxobchasi uning uchun joy ajratish imkoniyatiga ega bo'lgan hamda boshqa umumta'lim muassasalariga qatnash uchun qulay joylashgan umumta'lim muassasasida tashkil etiladi.

12. Logopediya shoxobchasi tashkil etilgan umumta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan logopediya shoxobchasi uchun boshlang'ich sinflarga yaqin joyda tegishli sanitariya qoidalari, normalari

va gigiyena normativlari talablariga javob beradigan, umumiy maydoni 20 kv. metrdan kam bo'lmagan xona ajratiladi.

Logopediya shoxobchasi mazkur Nizomning 1-ilovasidagi talab-larga muvofiq jihozlanadi.

#### **4-bob. Logopediya shoxobchasida korreksion jarayonni tashkil etish**

13. Logopediya shoxobchasida o'quvchilarga korreksion — logopedik yordam ko'rsatiladi.

O'quv-korreksion mashg'ulotlar guruhli va yakka (individual) tartibda, umumta'lim muassasasi rahbariyati bilan kelishilgan jadval asosida darsdan tashqari vaqtida o'tkaziladi.

14. Guruhlarga nuqsonlari o'xshash bo'lgan bir xil yoshdagi o'quvchilar qabul qilinadi. Bir xil yoshdagi o'quvchilar soni kam bo'lgan hollarda, yoshidan qat'i nazar, boshlang'ich sinf o'quvchilari bir guruhga jamlanishi mumkin.

15. Guruhli va yakka (individual) tartibda olib boriladigan mashg'ulotlarning davomiyligi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarining og'ir yoki yengil darajasiga ko'ra quyidagicha belgilanadi:

nutqi to'liq rivojlanmagan 8 — 10 nafar I sinf o'quvchilariga guruhli tarzda 40 — 45 daqiqadan, bir o'quv yili davomida haftasiga ikki martadan;

tovush talaffuzida kamchiliklari bo'lgan 8 — 10 nafar I — IV sinf o'quvchilariga guruhli tarzda 40 — 45 daqiqadan, bir o'quv yili davomida haftasiga uch martadan;

nutq apparati a'zolarining tuzilishi va harakatida nuqsonlari (rinolaliya, dizartriya, duduqlanish) bo'lgan I — IV sinf o'quvchilari bilan yakka (individual) tartibda 15 daqiqadan, nutq nuqsoni bartaraf etilgunga qadar haftasiga uch martadan.

16. Nutq nuqsonlari bartaraf etilgan o'quvchilar logopediya shoxobchasi mudirining ishchi guruh bilan kelishilgan xulosasiga asosan o'quv yilining 15 — 25 may kunlari logopediya shoxobchasi o'quvchilari safidan chiqariladi.

#### **5-bob. Logopediya shoxobchasida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish**

17. Logopediya shoxobchasi o'qituvchi-logoped lavozimida oliv ma'lumotli o'qituvchi-logopedlar va defektologlar faoliyat yuritishi mumkin.

18. O'qituvchi-logoped shtat birliklari logopediya shoxobchasi ga biriktirilgan umumta'lim muassasalarida mavjud har 25 ta boshlang'ich sinfga 1,0 birlik (20 ta boshlang'ich sinfga 0,8 birlik, 30 ta boshlang'ich sinfga 1,2 birlik) hisobidan haftalik ish yuklamasi 18 o'quv soatidan oshmagan holda, mazkur Nizomning 15-bandida ko'rsatilgan meyorlarga ko'ra belgilanadigan o'quvchilar guruhlari va haftalik mashg'ulotlar soatlaridan kelib chiqib kiritiladi.

19. O'qituvchi-logopedlarni ishga qabul qilish hamda ular bilan mehnat shartnomalarini bekor qilish xalq ta'limi muassasalar faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limining tavsiyasiga asosan logopediya shoxobchasi joylashgan umumta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

O'qituvchi-logopedlarning mehnatiga haq to'lash, moddiy rag'batalantirish, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasi va mehnat ta'tiliga haq to'lash uchun zarur mablag'lar logopediya shoxobchasi joylashgan umumta'lim muassasasining xarajatlar smetasida nazarda tutiladi.

20. O'qituvchi-logopedlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

mazkur Nizom va umumta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariiga rioya etish;

mazkur Nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan namunaviy yillik ish reja asosida yillik shaxsiy ish reja, o'quv yiliga taqvimiyl-mavzuiy reja, mashg'ulotlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun umumta'lim muassasasining pedagogik kengashiga taqdim etish;

nutqiy rivojlanishida muammolari bo'lgan o'quvchilarning artikulyatsion a'zolarini, nutq nuqsonlarini tekshirish natijasiga ko'ra mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq nutq xaritasini va sinf journalini yuritish;

o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini o'zlashtirishlariga to'sqinlik qiluvchi nutq nuqsonlarining oldini olish, ulardag'i

mavjud nutq nuqsonining turini va ifodalananish darajasini aniqlash;

mashg'ulotlar o'tkazish uchun guruuhlar tashkil qilish, kundalik mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash, guruhli va yakka (individual) tartibda mashg'ulotlar o'tkazish orqali artikulyatsion organlari agi nuqsonlarni to'g'rilash, nutq nuqsonlari natijasida kelib chiqqan psixik buzilishlarni korrektsiyalash;

umumta'lim muassasasi o'qituvchilarini va ota-onalarga nutqiy rivojlanishida muammolari bo'lgan o'quvchilarga yordam ko'rsatishning maxsus usullarini qo'llash bo'yicha maslahatlar berish;

o'z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borish, uslubiy birlashmalar faoliyatida va boshqa metodik ishlarda ishtirot etish.

21. O'quvchilarning guruhlarga qatnashish davomatini qayd etib borish uchun sinf jurnalni yuritiladi hamda har bir guruhga maxsus sahifalar ajratiladi.

Yakka (individual) tartibda mashg'ulotlar olib boriladigan o'quvchilar uchun sinf jurnalida alohida sahifalar ajratiladi hamda ular ham guruhli mashg'ulotlar kabi to'ldiriladi.

Jurnalning oxirgi betlarida logopediya shoxobchasiga qabul qilinagan har bir o'quvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, sinfi, uy manzili, logopediya shoxobchasiga qabul qilingan vaqt, nutqiy yoki umumiyligi rivojlanishidagi kamchiliklari, logopediya shoxobchasiidan chiqarilgan vaqt, umumiyligi va nutqiy rivojlanish holati, o'quv fanlarini o'zlashtirishidagi kamchilik va muammolarini bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar kiritib boriladi.

22. Logopediya shoxobchasiga o'qituvchi-logopedlardan biri, shoxobchada bitta o'qituvchi-logoped bo'lgan taqdirda esa, uning o'zi mudirlik qiladi.

23. Logopediya shoxobchasi mudiri xalq ta'limi muassasalarini faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman (shahar) bo'limining O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni va pedagogik-psixologik diagnostikasini metodik ta'minlash kichik guruhiga o'quv yili davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 15-sanasiga qadar quyidagi hisobotlarni topshiradi:

o'qituvchi-logopedlar yillik shaxsiy ish rejasining bajarilish holati;

o'quvchilar kontingenching o'zgarish dinamikasi;

o'quvchilarning nutq nuqsonlarini bartaraf etish ko'rsatkichlari.

## 6-bob. Yakuniy qoidalar

24. Mazkur Nizomda belgilangan talablar asosida yangi logopediya shoxobchasi tashkil etilishi lozim bo'lgan tuman (shahar)larda (birinchi navbatda nutqida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar kontengenti eng yuqori joylarda) har o'quv yilida bittadan, Nukus shahri va viloyatlar markazlarida esa ikkitadan logopediya shoxobchasi tashkil etiladi.

25. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan.

Moliya vaziri

R. AZIMOV

2015 yil 25 sentabr, Umumiyligi o'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi nizomga 1-JLOVA

## Logopediya shoxobchasi ta'minlanishi lozim bo'lgan jihozlar RO'YXATI

T/r	Zarur o'quv anjomlari nomi	Miqdori
1.	Yakka holda shug'ullanish uchun deraza yoniga osilgan 50x100 sm. li devoriy ko'zgu	1 dona
2.	Elektr yoritqich (devoriy ko'zgu uchun)	1 dona
3.	O'quvchilar soniga qarab 9x12 sm. li ko'zgu	10 dona
4.	O'quvchilar uchun parta	5 dona
5.	Sinf doskasi	1 dona
6.	O'qituvchi-logoped uchun stol, stul	1 komplekt
7.	Ko'rgazmali qurollar uchun shkaf	2 dona
8.	Stul	10 dona
9.	Logopedik zond, shpatel	1 komplekt
10.	Kesma harf va bo'g'inlar jamlanmasi	10 dona
11.	Devoriy harf kassasi	1 komplekt
12.	O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini tekshirishda ishlataladigan ko'rgazmali materiallar	o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda
13.	Predmetli, mazmunli va seriyali ko'rgazmali rasmlar	o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda
14.	Daftari va o'quv qo'llanmalar	o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda
15.	Turli maqsadda ishlataladigan didaktik o'yinchoqlar	o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda

16.	Metodik adabiyotlar	o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda
17.	Sochiq vasovun	o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda

Umumiy o'rta ta'lif muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi nizomga  
2-ILOVA

### Logopediya shoxobchasi o'qituvchi-logopedining NAMUNAVIY YILLIK ISH REJASI

T/r	Yo'nalishlar va ish turlari	Ish yuklamasi (soat)
	Umumiy yillik ish yuklamasi	1548
1.	O'quv-tarbiya jarayoni	896
	O'quvchilarning hujjatlari bilan ishlash, o'quvchilar nutqini tekshirish, guruuhlar tuzish, xulosa yozish (1-15 sentabr, 16-31 may).	72
	Logopedik mashg'ulot soatlari	540
	O'quvchilar daftalarini tayyorlash, yozma ishlarini tekshirish.	152
	Ota-onalarga masalahatlar berish.	34
	O'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash.	98
2.	O'quv-tarbiya jarayonining metodik ta'minoti	520
	Guruhli va yakka (individual) tartibda olib boriladigan mashg'ulotlar rejalarini tuzish, logopedik mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish.	418
	Logopedlar va boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan o'zaro dars mashg'ulotlarini kuzatish.	34
	Pedagogik kengashlarda, uslubiy birlashmalar yig'ilishlarida, shahar (tuman) seminarlari, konferensiylar, treninglarda ishtirok etish, bilim darajasini oshirib borish, ochiq mashg'ulotlar va darsdan tashqari tadbirlar o'tkazish va ularda ishtirok etish.	34
	Tarqatma va didaktik jihozlar tayyorlash, test tuzish va taqdimotlar tayyorlash, logopediya shoxobchasini jihozlash ishlarini bajarish.	34
3.	Tashkiliy-pedagogik faoliyat	132
	Davomat jurnalini to'ldirish, hisobotlar tayyorlash.	62
	Logopedik guruhlarga olingan bolalarning nutq xaritalarini to'ldirish.	34

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, psixolog, maktab va tuman tibbiyot xodimlari, maktabgacha ta'lif muassasalari xodimlari bilan hamkorlikda ishlar olib borish, tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyalar faoliyatida, umumta'lif muassasasining jamoat ishlarida ishtirok etish.
36

\*Izoh: o'qituvchi-logopedning ish vaqtini yil davomida 43 ish haftasi, haftalik 36 soatni tashkil qiladi. O'quv jarayoni yiliga 34 hafta, o'quv dars soatlari haftasiga 18 soatdan olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lif muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risidagi nizomga 3-ILOVA

### NUTQ XARITASI

1.	O'quvchi haqidagi umumiy ma'lumotlar:
	Familiyasi, ismi, otasining ismi
	Tug'ilgan sanasi
	Yashash manzili
	O'qish joyi, sinfi
	Logopediya shoxobchasiga qabul qilingan vaqt
	O'qituvchi va ota-onanining shikoyati
	Psixonevrolog xulosasi
2.	O'quvchining nutqiga umumiy tavsif:
	nutqning sur'ati va ravonligi
	Ovoz
3.	Artikulyatsion apparatning anatomik tuzilishi va barakatchapligini tekshirish:
	lablar
	til
	jag'lar

	tishlar										
	qattiq tanglay										
	yumshoq tanglay										
4.	Tovushlar talaffuzini tekshirish:										
	so'z boshida										
	so'z o'tasida										
	so'z oxirida										
5.	Fonematik o'quvi, tovushlar differensiatsiyasi:										
	B-P	D-T	S-3	Z-J	S-SH	R-L	M-N	G-K	G-G'	K-Q	X-H
6.	Murakkab bo'g'inli so'zlarni talaffuz qilish:										
7.	Umumiy motorika holatini tekshirish:										
	harakat koordinatsiyasi										
	mayda qo'l muskullari harakati										
8.	Lug'at boyligi:										
	predmetlarni nomlash										
9.	O'qish texnikasini egallash darajasi:										
	harflab, bo'g'inlab, sidirg'asiga o'qish										
10.	Duduqlanishning namoyon bo'lishi:										
	sabablari										
	turi										
11.	O'qituvchi-logopedning xulosasi:										

20\_\_ yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ O'qituvchi-logoped<sup>1</sup> \_\_\_\_\_  
 (imzo)  
 (F.I.O.)

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Ayupova M.Y. "Korreksion ishlar metodikasi" ma'ruza matni. Toshkent-2001y.
2. Ayupova M.Y. "Logopediya" darsligi, Toshkent-2007y.
3. Z.M.Ahmedova, M.Y.Ayupova, M.P.Xamidova. "Logopedik o'yin" darsligi. Toshkent 2007 у.
4. Архипова Е.Ф. «Коррекционная работа с детьми с церебральным параличом» доречевой период, Москва «Просвещение» 1989г.
5. Алмазова Е.С. «Логопедическая работа по восстановлению голоса у детей», Москва «Просвещение» 1973г.
6. Архипова Е.Ф. «Стертая дизартрия у детей» Учебное пособие для студентов вузов, Москва-2006г.
7. Волкова П.С., Шаховская С.Н. Логопедия М., Владос, 2002
8. Краузе Е.Н. Логопедии. М., Корона прнт. 2003
9. Мартынова Р. И. Сравнительная характеристика детей, страдающих легкими формами дизартрий и функциональной дислалией//Расстройства речи и методы их устранения/Под ред. С. С. Ляпидевского и С. Н. Шаховской.-М., 1975.-С.22-29.
10. Мастьюкова Е. М., Иппалитова М. В. Нарушения речи у детей с церебральным параличом.-М., Просвещение, 1985.-191с.
11. Мелехова Л. В., Фомичева М. Ф. Реч дошкольников и ее исправления.-М.: Просвещение, 1967г.
12. «Нарушения речи и голоса у детей» Под редакцией С.С.Ляпидевского и С.Н.Шаховской Москва «Просвещение» 1975г.
13. Нарушения голоса и звука-произносительной стороны речи. Москва-ВЛАДОС- 2003г.
14. «Очерки по патологии речи и голоса» Под редакцией С.С.Ляпидевской Москва «Просвещение» 1967г.
15. Основы логопедии с практикуром по звукопроизношению. Под ред. Т.В. Волосовец.- Москва.: Издательский центр «Академия», 2000г.
16. «Практикум по детской логопедии» Под редакцией проф. В.И.Селиверстова издание 2-е, Москва «Владос», 1997г.

17. Правдина О.В. «Потология голоса» Москва «Проповедование» 1963г.
- 18 «Словарь логопеда» Под редакцией проф В.И. Селиверстова Москва «Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС» 1997г.
19. Специальное образование в Казахстане. Научно-практический журнал, 2008 №1(23).
20. Специальное образование в Казахстане. Научно-практический журнал, 2008 №2(23).
21. Селиверстов В.И. Речевые игры с детьми.- Москва.: ВЛАДОС, 1994г.
22. Соботович Е.Ф. Недостатки звукопроизношения у детей дошкольного возраста и методы их преодоления//Педагогические пути устранения речевых нарушений у детей.-Л., 1976г.
23. Соботович Е. Ф., Чернопольская А. Ф. Проявления стертых дизартрий и методы их диагностики// Дефектология.-1974.-№4.-С.20-26.
24. Таптапова С.Л. «Коррекционная-логопедическая работа при нарушениях голоса» Москва «Проповедование» 1984 г.
25. Ткаченко Т.А. Если ребенок плохо говорит.-Санкт-Петербург, 1997 г.
26. Токарева О. А. Дизартрия//Расстройства речи у детей и подростков/ под общей ред. С. С. Ляпидевского.-М.: Медицина, 1969 г.
27. Физические факторы в лечении детских церебральных параличей. Москва-2006г.
28. Филичева Т.Е. Дети с общим недоразвитием речи. Воспитание и обучение/Т.Е.Филичева. Т.В.Туманов.-Москва: Гном-Пресс, 1999г.
29. Филичева Т.Е. Подготовка к школе детей с общим недоразвитием речи в условиях специального детского сада/ Филичева Т.Е, Г.В.Чиркина.-Москва, 1994г.
30. Соботович Е.Ф. Речевое недоразвитие у детей и пути его коррекции. – Москва, 2003 г.
31. R.SH.Shomaxmudova, L.SH.Nurmuhamedova, D.R.To'laganova. Lögopediya. Kompleks mashqlar metodikasi. Toshkent 2015 y.


## МУНДАРИЖА

Kirish .....	3
<b>I BOB. DISLALIYA</b>	
1§. Dislaliya nutq kamchiligining ilmiy-nazariy asoslari .....	5
2§. Dislaliya nutq kamchiligi va uning kelib chiqish sabablari ..	12
3§. Dislaliya turlari. Dislaliyanı bartaraf etishda logopedik ta'sir metodikasi.....	15
4§. Turli xil sigmatizmlarni bartaraf qilish.....	27
6§. Dislaliya nutq kamchiligini bartaraf etish bo'yicha reja matn tuzish .....	38

## II BOB. DIZARTRIYA

2§. Dizartriya tasnifi va uning shakllari .....	51
3§. Dizartriya belgilari.....	63
4§. Korreksion - pedagogik ishlar tizimi. Artikulyatsion mashqlar .....	66
6§. Korreksion - pedagogik ishlar tizimi. Nutqiy nafasni rivojlantirish.....	84
7§. Korreksion - pedagogik ishlar tizimi. Tovushlar talaffuzini korreksiilash.....	89
8§. Korreksion - pedagogik ishlar tizimi. Umumiy motorika va barmoqlar harakatchanligini rivojlantirish.....	108
9 §. Korreksion - pedagogik ishlar tizimi. Fonematik idrokni rivojlantirish.....	115
Mustaqil o'zlashtirish uchun materiallar .....	120
Glossariy .....	126
Ilova .....	128
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati: .....	139

- 9286-



**Achilova Sevara Djasirkulovna**

# **DISLALIYA. DIZARTRIYA**

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: T. Raxmatullayev

Musahhih: N. Ismatova

Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 30.07.2021 y.

Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Ofset qog'oz. "Times New Roman"  
garniturası. Hisob-nashr tabog'i. 9,0.  
Adadi 100 dona. Buyurtma № 35.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop <sup>et</sup> etildi.  
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

## **QAYDLAR UCHUN**



ISHONCHLI  
HAMKOR  
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-7092-7-0

9 789943 709270